

Samariddin ELMIRZAYEV

KORPORATIV SOLIQLARNI REJALASHTIRISH



336.21071

E-45


**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI**

TOSHKENT MOLIYA INSTITUTI

Samariddin ELMIRZAYEV

KORPORATIV SOLIQLARNI REJALASHTIRISH

*O‘zbekiston Respublikasi oliy va o‘rta maxsus ta‘lim vazirligi tomonidan
o‘quv qo‘llanma sifatida tavsiya etilgan*



13

**Toshkent
IQTISOD-MOLIYA
2019**

UO‘K 65.261.4
KBK 336.22(075)

Taqrizchilar: *i.f.d., prof. B.Toshmurodova;*
i.f.n., dots. S.Xudoyqulov

E47 Korporativ soliqlarni rejalashtirish: O‘quv qo‘llanma / – T.: «Iqtisod-Moliya», 2019. – 176 b.

Bozor munosabatlari sharoitida soliqlarning amal qilishi davlat byudjeti daromadlarini shakllantirish bilan bir vaqtda korporativ tuzilmalar faoliyatini moliyaviy rag‘batlantirishda richag vazifasini o‘taydi. Bunda soliq majburiyatlarini belgilangan tartibda bajarish, soliq imtiyozlari va qonuniy yengilliklardan samarali foydalanish korporativ moliyani boshqarishda soliq munosabatlarini samarali tashkil etishga bevosita bog‘liq bo‘lib, ham davlat byudjeti daromadlarining belgilangan tartibda shakllanishiga, ham korporativ tuzilmalar moliyaviy barqarorligini oshirishga xizmat qiladi. Aynan shundan kelib chiqqan holda o‘quv qo‘llanmada korporativ moliyaviy munosabatlar va soliq munosabatlarining o‘zaro bog‘liqligi, soliqlarni rejalashtirish amaliyoti, soliq risklarini boshqarish, ichki soliq nazorati va soliq tahlili, korporativ moliyani boshqarishda soliq maslahatining roli, soliq islohotlarining biznes muhiti barqarorligini ta‘minlashdagi rolini oshirish, soliqlarni optimallashtirish va soliq majburiyatlarini samarali boshqarish orqali korporativ tuzilma moliyaviy barqarorligini oshirish masalalari tadqiq qilingan.

O‘quv qo‘llanmadan iqtisodchilar, buxgalterlar, iqtisodiy yo‘nalishdagi oliy ta‘lim muassasalari professor-o‘qituvchilari, talaba va magistrantlari, sohaga qiziquvchilar va tadqiqotchilar o‘z faoliyatlarida foydalanishlari mumkin.

UO‘K 65.261.4
KBK 336.22(075)

ISBN 978-9943-13-790-5

© S.Elmirzayev, 2019
© “IQTISOD-MOLIYA”, 2019

KIRISH

Jahon iqtisodiyotidagi integratsiyalashuv jarayonlarining kuchayib borishi ko'p jihatdan korporativ tuzilmalarda yuzaga keladigan soliq munosabatlariga bevosita bog'liq. Korporativ moliyani boshqarishda faoliyatni xorijiy davlatlarda tashkil etish bilan bog'liq qarorlar aynan soliq omilini ham hisobga olgan holda qabul qilinadi va kapital harakati soliq yuki darajasidan kelib chiqqan holda belgilanadi. Bunda investorlar mamlakatlarda soliq munosabatlarining amaldagi holatini Doing Business (Jahon banki), Paying Taxes (Praysuoterxauskupers va Jahon banki guruhi) hisobotlari¹ asosida tahlil qiladilar.

Hozirda jahonda korporativ tuzilmalar faoliyatini har tomonlama qo'llab-quvvatlash, bunda korporativ tuzilmalar faoliyatini kengaytirish maqsadida xorijiy kapital jalb qilishni rag'batlantirishga qaratilgan soliqlar orqali raqobatlashish amaliyoti kuzatilmoqda. Mamlakatlar o'rtasidagi soliq raqobatida har bir davlat tomonidan soliq stavkalarini unifikatsiyalash orqali soliq yuki darajasini keskin kamaytirish, soliq hisobotlarini ixchamlashtirish, soliq nazoratini soddalashtirish masalalariga ustuvor darajada e'tibor qaratilishi talab etilmoqda. Shuningdek, alohida soliq rejimlari o'rnatilgan erkin iqtisodiy zonalar tashkil etish orqali korporativ tuzilmalar faoliyatini rivojlantirish masalasi ham alohida yo'nalish sifatida ko'zga tashlanmoqda. Aynan keltirilayotgan jihatlar asosida korporativ moliyani boshqarishda soliq munosabatlarini samarali tashkil etish muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Mustaqillik yillarida respublikamizda biznesni rivojlantirish va korporativ tuzilmalar moliyaviy-xo'jalik faoliyatini rag'batlantirishga qaratilgan soliq tizimi shakllantirildi. Bunda soliq yukini kamaytirish maqsadida soliq qonunchiligini takomillashtirib borish, soliq tizimini soddalashtirish kabi masalalarga ustuvor darajada e'tibor qaratildi. Natijada soliq yuki 1992 yildagi 49,3 foiz o'rniga 2016 yilda 20,6 foizni tashkil etdi. Korxonalar tomonidan 1992 yilda 45 foizlik stavka bo'yicha

¹ <http://www.doingbusiness.org>; <http://www.pwc.com/payingtaxes>

foyda solig'i to'langan bo'lsa, 2017 yilga kelib 7,5 foizlik stavka amal qilmoqda. Bugunda kunga kelib soliq solinadigan bazani kengaytirish, soliq to'lovchilarning huquqiy madaniyatini yuksaltirish, soliqlar va majburiy to'lovlarning yig'iluvchanlik darajasini oshirish kabilar alohida dolzarblik kasb etmoqda. 2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasida «soliq yukini kamaytirish va soliqqa tortish tizimini soddalashtirish siyosatini davom ettirish, soliq ma'muriyatchiligini takomillashtirish va tegishli rag'batlantiruvchi choralarni kengaytirish»² masalasi alohida belgilandi. Unda belgilangan vazifalarning ijrosi korporativ moliyani boshqarishda soliq munosabatlarini tashkil etishning ilmiy-uslubiy asoslarini takomillashtirishni taqozo etadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi PF-4947-sonli «O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida», 2015 yil 24 apreldagi 4720-sonli «Aksiyadorlik jamiyatlarida zamonaviy korporativ boshqaruv uslublarini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida», 2017 yil 18 iyuldagi 5116-sonli «Soliq ma'muriyatchiligini tubdan takomillashtirish, soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarning yig'iluvchanligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi farmonlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2015 yil 21 dekabrda 2454-sonli «Aksiyadorlik jamiyatlariga xorijiy investorlarni jalb qilish borasidagi qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi qarori hamda korporativ tuzilmalar moliyaviy-xo'jalik faoliyati, yuzaga keladigan soliq munosabatlarini tashkil etish, soliqlarning yig'iluvchanlik darajasini oshirishga qaratilgan boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda mazkur fanni o'rganish muayyan darajada xizmat qiladi.

Korporativ moliyani boshqarishda soliq munosabatlarini samarali tashkil etish masalalari jahondagi yetakchi ilmiy tadqiqot markazlari, universitetlar, xalqaro moliyaviy-iqtisodiy tashkilotlar, xalqaro

² O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi PF-4947-sonli farmonidan.

auditorlik tashkilotlari, reyting agentliklari, moliya institutlari, jumladan Jahon banki (World Bank), Xalqaro moliya korporatsiyasi (International Finance Corporation), Iqtisodiy va biznes tadqiqotlari markazi (Centre for Economics and Business Research), PricewaterhouseCoopers kompaniyasi, Evropa fiskal konfederatsiyasi (The Confédération Fiscale Européenne), Rossiya Federatsiyasi Hukumati huzuridagi moliya universiteti (Финнсовой университет при Правительстве Российской Федерации), Sankt-Peterburg davlat iqtisodiyot universiteti (Санкт-Петербургский государственный экономический университет) kabilarning doimiy diqqat e'tiborida ekanligi ham tadqiqotning dolzarbligini o'zida ko'rsatib beradi.

Dunyoda korporativ moliyani boshqarish, soliq siyosatini takomillashtirish, korporativ moliyada soliq munosabatlarini samarali tashkil etish bo'yicha quyidagi ustuvor yo'nalishlarda tadqiqotlar olib borilgan: soliqqa tortish va korporativ moliyaviy siyosat (University of California, AQSh), korporativ soliqlarning investitsiya va tadbirkorlikka ta'siri (World Bank, Harvard University, National Bureau of Economic Research), korporativ soliqqa tortish va kapital jalb qilish (University of Oxford, Buyuk Britaniya), korporativ moliyalashtirish va soliqqa tortish (Sophia University, Waseda University, Chuo University, Yaponiya), korporativ moliyaga doir qarorlarni qabul qilishga soliqlarning ta'sirini aniqlash (Université Catholique de Louvain, Belgiya), soliq ma'murchiligida soliq maslahatining rolini oshirish (American College of Tax Counsel, AQSh) va boshqalar.

Dunyo miqyosida korporativ moliyani boshqarishda soliq munosabatlarini samarali tashkil etishga oid qator, jumladan, quyidagi ustuvor yo'nalishlarda tadqiqotlar olib borilmoqda: korporativ moliyani boshqarishda davlat bilan moliyaviy munosabatlarni samarali o'rnatish, korporatsiyalarni soliqqa tortish amaliyotini takomillashtirish, korporativ moliyaviy menejmentning tarkibiy qismi sifatida korporativ soliq menejmentini rivojlantirish, korporativ moliyaviy qarorlar qabul qilishda soliqlarning ta'sirini hisobga olish, korporativ miqyosda soliqlarni rejalashtirish orqali soliq yukini kamaytirish, soliq risklarini boshqarish

amaliyotini takomillashtirish, soliq maslahati institutini rivojlantirish orqali korporativ tuzilmalar va davlat o'rtasidagi soliq munosabatlarini to'g'ri tashkil etish, korporativ tuzilmalarda soliqlarni optimallashtirish.

Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda 5A230602 – “Korporativ moliya va qimmatli qog'ozlar bozori” magistratura mutaxassisligida o'tiladigan “Korporativ soliqlarni rejalashtirish” fani bo'yicha mazkur o'quv qo'llanma tayyorlandi.

O'quv qo'llanmadan iqtisodchilar, buxgalterlar, iqtisodiy yo'nalishdagi oliy ta'lim muassasalari professor-o'qituvchilari, talaba va magistrantlari, sohaga qiziquvchilar va tadqiqotchilar o'z faoliyatlarida foydalanishlari mumkin.

1-BOB. KORPORATIV MOLIYAVIY MUNOSABATLAR VA SOLIQQA TORTISH AMALIYOTINING O‘ZARO BOG‘LIQLIGI

Korporativ tuzilma tomonidan amalga oshirilgan har bir moliyaviy operatsiya bevosita yoki bilvosita soliqlar yoki majburiy ajratmalar bo‘yicha munosabatlar yuzaga kelishiga sabab bo‘ladi. Bundan tashqari “Yuridik shaxslardan undiriladigan soliqlar davlatning barcha vazifalarini amalga oshirishi uchun zarur bo‘lgan moliya manbalaridan biri bo‘lib, u davlat byudjeti daromadlarini shakllantirishda asosiy vositadir”.³ Shundan kelib chiqqan holda quyida avvalo soliqlarning iqtisodiy mohiyati, mamlakatimizda amal qilayotgan soliqlar va majburiy ajratmalar turlari xususida qisqacha to‘xtalib o‘tamiz.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida korporativ tuzilmalar moliyaviy munosabatlarini quyidagi to‘rtta guruh bo‘yicha tasniflash mumkin (1.1-rasm):

Bozor iqtisodiyoti sharoitida soliqlar davlatning iqtisodiyotga aralashuvining asosiy vositasi sifatida ko‘zga tashlanadi. Shuningdek soliqlar orqali davlat byudjeti daromadlari shakllanadi va natijada ishlab chiqarish bazalarini yangilashga, ijtimoiy xarajatlarini qoplashga yo‘naltiriladi. Umuman «Soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlar qonun bilan belgilangan, davlat pul jamg‘armalariga (byudjet va b.) tushadigan, soliq to‘lovchilar bilan davlat o‘rtasidagi majburiy to‘lovni ifodalovchi pul munosabatlaridir».⁴


Bizga ma’lumki, Respublikamiz Konstitutsiyasiga asosan “O‘zbekiston Respublikasi hududida yagona soliq tizimi amal qiladi. Soliqlar joriy qilishga faqat O‘zbekiston Respublikasining Oliy Majlisi haqli”.⁵ Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksi “soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlarni belgilash, joriy etish, hisoblab chiqarish

³ M. Alimardonov va boshq. Yuridik shaxslarni soliqqa tortish. T.: Cho‘lpon nomidagi NMIU, 2013. B. 3.

⁴ Yahyojev Q.A. Soliqqa tortishning nazariy asoslari haqida ayrim mulohazalar // Moliya. Toshkent, 2009. №2. B. 53-55.

⁵ O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. 123-modda. www.lex.uz

hamda O‘zbekiston Respublikasining Davlat byudjetiga (bundan buyon matnda byudjet deb yuritiladi) va davlat maqsadli jamg‘armalariga to‘lash bilan bog‘liq munosabatlarni, shuningdek soliq majburiyatlarini bajarish bilan bog‘liq munosabatlarni tartibga soladi”⁶.



1.1-rasm. Korporativ tuzilmalar moliyaviy munosabatlari tasnifi

O‘zbekiston Respublikasi hududida amal qilayotgan soliqlar va majburiy ajratmalar Soliq kodeksining 23-moddasida o‘z aksini topgan.

⁶ O‘zbekiston Respublikasining Soliq kodeksi. 1-modda. www.lex.uz

Unga ko'ra hozirgi kunda quyidagi soliqlar umumbelgilangan tartibda davlat byudjetiga undirilib kelinmoqda⁷:

- yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'i;
- jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i;
- qo'shilgan qiymat solig'i;
- aksiz solig'i;
- yer qa'ridan foydalanuvchilar uchun soliqlar va maxsus to'lovlar;
- suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq;
- mol-mulk solig'i;
- yer solig'i;
- obodonlashtirish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish solig'i;
- transport vositalariga benzin, dizel yoqilg'isi va gaz ishlatganlik

uchun olinadigan soliq.

Mamlakatimizda amal qilayotgan boshqa majburiy to'lovlarga quyidagilar kiradi:

- yagona ijtimoiy to'lov;
- fuqarolarning byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasiga sug'urta badallari;
- byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasiga majburiy ajratmalar;
- Respublika yo'l jamg'armasiga majburiy ajratmalar;
- Respublika yo'l jamg'armasiga yig'implar;
- byudjetdan tashqari Umumta'lim maktablari, kasb-hunar kollejlari, akademik litseylar va tibbiyot muassasalarini rekonstruktsiya qilish, mukammal ta'mirlash va jihozlash jamg'armasiga majburiy ajratmalar;

- davlat boji;
- bojxona to'lovlari;
- ayrim turdagi tovarlar bilan chakana savdo qilish va ayrim turdagi xizmatlarni ko'rsatish huquqi uchun yig'im.

Shuningdek, belgilangan hollarda va tartibda soliq solishning soddalashtirilgan tartibida to'lanadigan quyidagi soliqlar qo'llanilishi mumkin:

⁷ O'zbekiston Respublikasining Soliq kodeksi. 23-modda. www.lex.uz

- yagona soliq to'lovi;
- yagona yer solig'i;
- tadbirkorlik faoliyatining ayrim turlari bo'yicha qat'iy belgilangan soliq.

Bilamizki, respublikamizda amal qilib kelayotgan soliqlar tegishli byudjetlarga kelib tushishidan kelib chiqqan holda umumdavlat va mahalliy soliqlar hamda majburiy to'lovlarga bo'linadi (1.1-jadval).

1.1-jadval

Tegishli byudjetlarga undirilishidan kelib chiqqan holda soliqlarning tasniflanishi

Umumdavlat soliqlari	Mahalliy soliqlar
1. Yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'i	1. Mol-mulk solig'i
2. Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i	2. Yer solig'i
3. Qo'shilgan qiymat solig'i	3. Obodonlashtirish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish solig'i
4. Aktsiz solig'i	4. Ayrim turdagi tovarlar bilan chakana savdo qilish va ayrim turdagi xizmatlarni ko'rsatish huquqi uchun yig'im
5. Yer qa'ridan foydalanuvchilar uchun soliqlar va maxsus to'lovlar	5. Yagona soliq to'lovi
6. Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq	6. Yagona yer solig'i
7. Yagona ijtimoiy to'lov	7. Tadbirkorlik faoliyatining ayrim turlari bo'yicha qat'iy belgilangan soliq
8. Fuqarolarning byudjetdan tashqari pensiya jamg'armasiga sug'urta badallari	
9. Byudjetdan tashqari pensiya jamg'armasiga majburiy ajratmalar	
10. Respublika yo'l jamg'armasiga majburiy ajratmalar	
11. Respublika yo'l jamg'armasiga yig'imlar	
12. Byudjetdan tashqari umumta'lim maktablari, kasb-hunar kollejlari, akademik litseylar va tibbiyot muassasalarini rekonstruksiya qilish, mukammal ta'mirlash va jihozlash jamg'armasiga majburiy ajratmalar	
13. Davlat boji	
14. Bojxona to'lovlari	

Lekin shuni ham alohida qayd etib o'tish lozimki, respublika byudjetiga undiriladigan soliqlar davlat byudjeti parametrlariga asosan mahalliy byudjetlarga birlashtirilishi ham mumkin.

Korporativ moliyaviy munosabatlar va soliqqa tortish amaliyotining o'zaro bog'liqligi xususida so'z yuritganda korporativ tuzilma tomonidan amalga oshiriladigan har bir moliyaviy operatsiya ma'lum darajada soliq munosabatlarining yuzaga kelishiga olib kelishini alohida ta'kidlashimiz lozim bo'ladi.

Korporativ tuzilmalar moliyaviy-xo'jalik faoliyatining asosiy yo'nalishlaridan kelib chiqqan holda korporativ moliyaviy munosabatlarning soliqqa tortish amaliyoti bilan o'zaro bog'liqligi xususida quyida atroflicha to'xtalib o'tamiz.

Avvalo korporativ tuzilma tomonidan moliyaviy resurs (kapital) jalb qilish bo'yicha munosabatlar tashkil etilganda kapital bahosiga to'xtalib o'tish shart hisoblanadi, deb o'ylaymiz.

“Kapital bahosi har xil turdagi moliyalashtirish manbalari bo'yicha talab qilinadigan xarajatlar qiymatidir. Bunda umumiy kapital bahosi moliyalashtirish manbalari bo'yicha alohida talab qilinadigan xarajatlarning o'rtacha ko'rsatkichidir”⁸. Umuman ma'lum bir miqdordagi moliyaviy resurs (kapital)ni jalb qilish uchun talab qilinadigan jami xarajatlarning jalb qilingan (yoki jalb qilinishi kutilayotgan) moliyaviy resurs (kapital) miqdoriga nisbati kapital bahosini anglatadi va quyidagicha aniqlanadi:

$$\text{Kapital bahosi} = \frac{\text{Kapital jalb qilish bo'yicha xarajatlar}}{\text{Jalb qilingan kapital}} \times 100\%.$$

Kapital bahosi kapital tarkibidan kelib chiqqan holda xususiy kapital va qarz kapitali bo'yicha aniqlanadi. Xususiy kapital va qarz kapitali bo'yicha kapital bahosini aniqlash jarayoni umumiy va o'zaro farqli jihatlarga ega ekanligini alohida qayd etib o'tishimiz lozim. Qarz mablag'lari hisobiga moliyalashtirishda Birinchi Prezidentimiz

⁸ James C. Van Horne, John M. Wachowicz. Fundamentals of financial management. 13th ed. – Pearson Education, 2009. P. 383 (719).

I.Karimovning “Qarz olish oson, bu hammamizga ma’lum, lekin uni bir kun kelib to‘lash ham kerak”⁹, degan fikrini hisobga olish lozim.

O‘zbekiston Respublikasining yangi tahrirdagi “Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to‘g‘risida” va “Qimmatli qog‘ozlar bozori to‘g‘risida”gi Qonunlariga asosan aksiyadorlik jamiyatlari o‘z faoliyatlarini moliyalashtirish uchun emissiyaviy qimmatli qog‘ozlar hisoblangan oddiy va imtiyozli aksiyalar, shuningdek korporativ obligatsiyalar muomalaga chiqarishlari mumkin. Bunda “Emissiyaviy qimmatli qog‘ozlarning dastlabki chiqarilishini davlat ro‘yxatidan o‘tkazishda emitent mazkur chiqarilishdagi emissiyaviy qimmatli qog‘ozlar nominal qiymatining 0,01 foizi miqdorida respublika byudjetiga yig‘im to‘laydi. Ilgari ro‘yxatdan o‘tkazilgan chiqarilishdagi emissiyaviy qimmatli qog‘ozlarning nominal qiymati oshirilgan taqdirda, emitent mazkur chiqarilishdagi emissiyaviy qimmatli qog‘ozlar nominal qiymati oshgan summasining 0,01 foizi miqdorida respublika byudjetiga yig‘im to‘laydi”.¹⁰ Natijada davlat bilan moliyaviy munosabat yuzaga keladi. O‘z navbatida kapital bahosini aniqlashda talab qilinadigan xarajatlar tarkibida emissiyaviy qimmatli qog‘ozlarni ro‘yxatga olish bo‘yicha respublika byudjetiga to‘lanadigan yig‘im ham hisobga olinishi, lekin bu xarajat umumiy xarajatlar tarkibida katta ulushga ega emasligini ta’kidlashimiz lozim.

Kapital jalb qilish va soliqqa tortish amaliyotining o‘zaro bog‘liqligi qarz kapitali bo‘yicha kapital bahosini aniqlashda yaqqol ko‘zga tashlanadi. Chunki qarz kapitali bahosi soliqni hisobga olmasdan hamda soliqni hisobga olgan holda yakuniy baho sifatida hisoblab chiqiladi.

“Qarz kapitali bo‘yicha kapital bahosi odatda quyidagi uchta omil orqali aniqlanadi:

- amaldagi foiz stavka;
- bankrot bo‘lish (defolt) ehtimoli;

⁹ Karimov I.A. Bank tizimi, pul muomalasi, kredit, investitsiya va moliyaviy barqarorlik to‘g‘risida. T.: O‘zbekiston, 2005. 8 b. (528).

¹⁰ O‘zbekiston Respublikasi “Qimmatli qog‘ozlar bozori to‘g‘risida”gi qonuni. 10-modda.

- foizlar bo'yicha soliq samarasi"¹¹.

Lekin kapital bahosini aniqlashda kapital jalb qilish bo'yicha amalga oshiriladigan barcha xarajatlarning inobatga olinishidan kelib chiqqan holda hisobga olinishi lozim bo'lgan omillarni yanada kengaytirishimiz mumkin.

Bevosita foizlar bo'yicha soliq samarasi haqida so'z ketganda xalqaro amaliyotda foizlar bo'yicha xarajatlarning foyda solig'i bazasidan chegirilishi natijasida soliq bo'yicha yengillik yuzaga kelishi bilan bog'liq holat nazarda tutiladi. O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 141-moddasi, 145-modda 41-bandiga asosan kreditlar (zayomlar) bo'yicha foizlar, 46-bandiga asosan soliq to'lovchi tomonidan chiqarilgan obligatsiyalar va boshqa qarz qimmatli qog'ozlari bo'yicha foizlar tarzidagi xarajatlar foyda solig'i bazasidan chegiriladi.

Umumiy holatda har qanday qarz mablag'ining muhim xususiyatlaridan biri sifatida qarz mablag'lari bo'yicha to'lanadigan foiz to'lovlarining foyda solig'i bo'yicha soliqa tortiladigan bazadan chegirilishini keltirish mumkin. Shunday qilib, qarz kapitalining yakuniy bahosi to'lanadigan foyda solig'i ta'sirini hisobga olgan holda quyidagicha aniqlanadi:

$$K_D = R \times (1 - T) \quad (1.1)$$


bu yerda, K_D – qarz kapitali bahosi;

R – qarz kapitalining soliqni hisobga olmagan holdagi bahosi;

T – foyda solig'i stavkasi, koeffitsientda.

Investitsiya faoliyatini amalga oshirish jarayonida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan soliq munosabatlarini hisobga olish maqsadga muvofiq hisoblanadi. Investitsion faoliyatni, umuman moliyaviy-xo'jalik faoliyatini amalga oshirish davomida soliq majburiyatlari ortib boradi. Chunki bevosita tannarx shakllanishidan tortib (yagona ijtimoiy to'lov nazarda tutilmoqda) sof foyda shakllangunga qadar hamda foydani taqsimlash vaqtida soliqlar va majburiy ajratmalar davlat byudjetiga va byudjetdan tashqari fondlarga to'lab boriladi (2-rasm).

¹¹ Glen Arnold. Corporate financial management. 5th ed. Pearson Education Limited, 2013. P. 702. (1107).



1.2-rasm. Korxonalar va davlat o'rtasidagi soliq munosabatlari tizimi¹²

Yuqoridagi 1.2-rasmda moliyaviy natijalar shakllanishi nuqtai nazaridan korporativ tuzilma va davlat o'rtasida soliq munosabatlari keltirilgan. Bunda tannarx tarkibiga kiritiladigan yagona ijtimoiy to'lovni ham alohida tartibda ko'rsatish maqsadga muvofiq edi.

¹² Tashmuradova B., Qurbonov J. Korporativ tuzilmalar va davlat o'rtasidagi o'zaro moliyaviy munosabatlar tizimi. // Biznes-ekspert. T., 2015. №11. B. 10 (7-11).

Shuningdek, korporativ tuzilmalarda soliq agenti sifatida to'lov manbaida ushlab qolish orqali tegishli byudjetlarga o'tkazib beradigan jismoniy shaxslar daromad solig'i, dividend va foizlarga soliqlar bo'yicha ham davlat bilan soliq munosabatlari amalga oshirilishini ta'kidlashimiz lozim.


Nazorat savollari

1. Mamlakatimiz soliq tizimi o'ziga xos xususiyatlari.
2. Kapital jalb qilishga soliqlarning ta'siri.
3. Investitsiya munosabatlariga soliqlarning ta'siri.
4. Respublika byudjeti va mahalliy byudjetlarga to'lanadigan soliqlar.
5. Byudjetdan tashqari jamg'armalarga to'lanadigan majburiy ajratmalar.
6. Mahsulot sotishdan tushum va sof tushumga nisbatan hisoblanadigan va to'lanadigan soliqlar.
7. Asosiy faoliyat davomida to'lanadigan boshqa soliqlar.
8. Soliq to'langunga qadar foyda ko'rsatkichining aniqlanish tartibi.

2-BOB. SOLIQ MUNOSABATLARINI BOSHQARISHDA SOLIQ MENEJMENTINING IQTISODIY MOHIYATI, VAZIFALARI VA TASNIFLANISHI

Bugungi kunga kelib soliqlar davlat tomonidan iqtisodiyotga aralashishning muhim dastagi sifatida namoyon bo‘lmoqda. Davlat soliqlar orqali iqtisodiyotga bevosita aralashishdan tashqari o‘z funksiyalarini bajarishi uchun zarur bo‘lgan moliyaviy resurslarga ham ega bo‘ladi. Shundan kelib chiqqan holda soliqlarning joriy etilishi va ularning undirilish jarayonini davlat tomonidan boshqarib borish talab etiladi. Umumiy holda “soliq tizimi milliy iqtisodiyotni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishga davlat tomonidan samarali ta’sir etishning asosiy vositasi hisoblanadi”¹³.

O‘zbekiston Respublikasi “Davlat soliq xizmati to‘g‘risida”gi Qonuniga asosan “Davlat soliq xizmati organlari soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlarning byudjetga to‘liq va o‘z vaqtida tushishini ta’minlash maqsadlarida tuziladi”.¹⁴ Mamlakatimizda davlat soliq xizmati organlari quyidagilar (2.1-rasm).



2.1-rasm. O‘zbekistonda davlat soliq xizmati organlari¹⁵

¹³ Mahmudov N.M., Adizov S.R. Soliqlarning makroiqtisodiy ko‘rsatkichlarga ta’sirini baholash: nazariya, amaliyot va modelashtrish: Monografiya. T.: Fan, 2014. B. 151.

¹⁴ O‘zbekiston Respublikasi “Davlat soliq xizmati to‘g‘risida”gi qonuni. 1-modda.

¹⁵ O‘zbekiston Respublikasi “Davlat soliq xizmati to‘g‘risida”gi qonuni asosida tuzildi.

Davlat soliq xizmati organlarining faoliyati soliqlarni o'z vaqtida va to'liq undirishni ta'minlash orqali soliq qonunchiligining ijrosini ta'minlashga qaratilgan. Soliqqa tortish jarayonida soliq to'lovchilar va soliq organlari o'rtasida ishonchli munosabatlarni yuzaga keltirish soliq to'lovchi uchun turli xil kutilmagan soliq tekshiruvlarining oldini olsa, soliq organlari uchun esa soliqlar va majburiy ajratmalarning belgilangan vaqtda hamda to'liq davlat byudjetiga kelib tushishini ta'minlashga xizmat qiladi. Umumiy holda Bu idoralarning bosh vazifasi soliqlarning byudjetga o'z vaqtida va to'liq tushishini ta'minlashgina emas, balki, eng muhimi, soliqqa doir jinoyatlarning oldini olish maqsadida soliq to'lovchilarga yordam berish va ularning bu boradagi bilimlarini oshirishga ko'maklashish, ular bilan muntazam ish olib borishdan iboratdir¹⁶.


Mamlakatimizda to'plangan va chet el tajribasini hisobga olgan holda soliq organlari tizimini yanada modernizatsiya qilish, nazorat qiluvchi organlar funksiyalaridagi bir-birini takrorlashlarni bartaraf etish, respublika fiskal-moliya organlari tuzilmasida soliq organlarining, eng avvalo, qabul qilingan soliq qonunchiligini va Davlat byudjetining daromad qismini shakllantirish bo'yicha belgilangan topshiriqlarni bajarish masalalaridagi vakolatlarini kengaytirish va rolini oshirish maqsadida 2010 yilda 8 yanvarda qabul qilingan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Respublika soliq organlari tizimini yanada modernizatsiya qilish chora-tadbirlari to'g'risida" 1257-sonli Qaroriga asosan quyidagilar O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasining asosiy vazifalari va funksiyalari etib belgilangan¹⁷:

- davlat soliq siyosatini amalga oshirish va soliq qonunchiligiga, soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarning to'g'ri hisoblanishiga, ularning to'liq va o'z vaqtida to'lanishiga rioya qilinishi yuzasidan ta'sirchan nazoratni ta'minlash;

- soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarning O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksiga hamda boshqa qonun hujjatlariga muvofiq

¹⁶ Karimov I.A. Bizning bosh maqsadimiz – jamiyatni demokratlashtirish va yangilash, mamlakatni modernizatsiya va isloh etishdir. T.: O'zbekiston, 2005. 90 b.

¹⁷ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Respublika soliq organlari tizimini yanada modernizatsiya qilish chora-tadbirlari to'g'risida" 1257-sonli qarori. 2010. 18 yanvar.



O'zbekiston Respublikasi Davlat byudjetiga, davlatning maqsadli jamg'armalariga va byudjetdan tashqari jamg'armalarga to'liq miqdorda tushishini ta'minlash;

- soliqlar yig'ilishini ko'paytirish chora-tadbirlarini amalga oshirish, ma'lumotlarning yagona kompyuter bazasini yuritish asosida soliq to'lovchilarni hisobga olish mexanizmlarini takomillashtirish, ularga ko'rsatilayotgan axborot-maslahat xizmatlari sohasini kengaytirish, soliq sohasida huquq buzilishlarining oldini olish, ularni aniqlash va bartaraf etish bo'yicha kompleks tadbirlarni ro'yogga chiqarish;

- pul mablag'larining noqonuniy muomalada bo'lishi manbalarini bartaraf etish, aholi bilan pul hisob-kitoblarini amalga oshiruvchi yuridik va jismoniy shaxslar tomonidan naqd tushumning o'z vaqtida va to'liq topshirilishi yuzasidan tizimli nazoratni ta'minlash;

- xo'jalik yurituvchi subyektlar, yuridik va jismoniy shaxslar faoliyatini rag'batlantirish bo'yicha qonun hujjatlarini yanada takomillashtirish, ularga zarur imtiyozlar va preferensiyalar berish yuzasidan takliflar kiritish;

- dehqon bozorlari va savdo komplekslarining moliya-xo'jalik faoliyatini, ular tomonidan soliq qonunchiligiga rioya qilinishini qattiq nazorat qilish hamda jinoiy ishlarni huquqni muhofaza qilish organlariga topshirgan holda ularning hududlarida aniqlangan huquq buzilishlari bo'yicha surishtiruvlar o'tkazish;

- respublika nazorat qiluvchi organlarining xo'jalik yurituvchi subyektlar faoliyatini tekshirish masalalari bo'yicha ishlarini muvofiqlashtirilishini ta'minlash, ushbu ishni amalga oshirishda bir-birini takrorlashga va suiiste'molchiliklarga yo'l qo'ymaslik;

- yuridik va jismoniy shaxslar tomonidan valyuta va eksport-import operatsiyalarini amalga oshirishda qonun hujjatlariga qat'iy rioya etilishi yuzasidan ta'sirchan nazoratni o'z vakolatlari doirasida amalga oshirish;

- soliq xizmati organlarini halol, yuqori malakali xodimlar bilan ta'minlash, korrupsiya va ishga rasmiyatchilik bilan munosabatda

bo'lish holatlariga qat'iy ravishda barham berish bo'yicha tizimli ish olib borish, doimiy asosda kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasi oshirib borilishini ta'minlash.

Davlat soliqlarni undirish jarayoni bilan bog'liq xarajatlarni imkon qadar kamaytirishga harakat qiladi. Bu holat soliqlarning arzonlilik tamoyili bilan birga soliq organlari faoliyatini moliyalashtirishni tartibga solishni anglatadi. Davlat soliq tushumlarini oshirib borishga intilishdan tashqari, investitsiyalarni jalb qilish va mavjudlarini ushlab turishga harakat qiladi. Bu holatda investitsiyalar harakati mamlakat miqyosida ishlab chiqarishni kengaytirish bilan birga qo'shimcha soliq tushumlari uchun xizmat qilishi bilan izohlanadi.

Umuman, soliqlarni boshqarish moliyaviy boshqaruvning bir qismi hisoblanadi. Bunda davlat hamda soliq to'lovchilar soliqlar bilan bog'liq munosabatlarni boshqarishdagi asosiy subyektlar hisoblanadi. Bunda o'z-o'zidan soliqlar va soliqqa tortishning amal qilishida davlatdan boshqa manfaatdor tomonlar ham mavjudligi namoyon bo'ladi. Ya'ni, davlat soliqlarning amal qilishini boshqarib borishiga parallel ravishda soliq to'lovchilar tomonidan soliqlarni imkon qadar kamroq to'lashga bo'lgan intilish ham manfaatdorlik nuqtai nazaridan kuchayib boradi. Bunda soliqlar ikkinchi tomon – soliq to'lovchilar tomonidan ham boshqarilib borilishi yuzaga keladi va amaliyotda soliq to'lovchilar nuqtai nazaridan soliq majburiyatlarini boshqarish sifatida baholanadi.

Soliq to'lovchilarning soliqlarni boshqarish orqali soliqlarni kamaytirishga qaratilgan chora-tadbirlar bilan bir vaqtda davlat soliqlaridan qonuniy qochish holatlarini bartaraf etishga, kapitalarning ko'chishiga qarshi kurashga, korporativ tuzilmalarning boshqa davlatlarda olgan foydalarini ham soliqqa tortish bo'yicha chora-tadbirlarni belgilashga intiladi.

Umuman soliqlarni undirish jarayonini boshqarish va soliq majburiyatlarini boshqarish qisqacha soliq menejmenti, deb yuritiladi.

Soliq menejmenti davlat va korporativ tuzilmalar miqyosida ham o'xshash, ham bir-biriga qarama-qarshi tushunchalar sifatida namoyon bo'lishini ko'rishimiz mumkin. Ya'ni, davlat tomonidan soliqlarni

boshqarish soliq tizimini tartibga solish hamda soliqlarni belgilangan muddatlarda va to'liq tegishli byudjetlarga tushishini ta'minlashga qaratilsa, soliq to'lovchilar bunga qarama-qarshi ravishda soliq majburiyatlarini boshqarish orqali soliqlarni imkon qadar kechroq hamda kamroq to'lashga intiladilar. Bu holatga bozor iqtisodiyoti qonuniyati sifatida yondashishimiz lozim.

Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda soliq menejmenti tushunchasiga soliq munosabatlarini boshqarish sifatida qarashimiz lozim va bu jarayon davlat hamda korporativ tuzilmalar miqyosida tashkil etilishiga e'tibor qaratishimiz maqsadga muvofiq. Bunda soliq menejmentining alohida xususiyatlari sifatida quyidagilarni qayd etib o'tishimiz mumkin:

- birinchidan, soliqlarni boshqarish uzluksiz amalga oshirib boriladigan jarayon hisoblanadi;

- ikkinchidan, soliqlarni boshqarish bu aniq iqtisodiy, moliyaviy, ijtimoiy natijalarga erishish uchun soliqlar va soliqqa tortishga ta'sir etadigan aniq maqsadga yo'naltirilgan jarayondir;

- uchinchidan, bu natijalarga erishish uchun aniq maqsad va vazifalar qo'yilishi, rejalashtirish, tashkil etish, muvofiqlashtirish, soliq majburiyatlarining belgilangan tartibda bajarilishini ta'minlash maqsadida ta'sir choralari ko'rish va nazorat kabilar amalga oshiriladi.

Soliqlarning ko'proq davlat miqyosida qo'llaniladigan tushuncha ekanligidan kelib chiqqan holda dastlab davlat tomonidan soliqlarni boshqarish haqida to'xtalib o'tamiz.

Bizning fikrimizcha, bozor iqtisodiyoti sharoitida davlat tomonidan soliqlarni boshqarish davlat ahamiyatiga ega ilmiy-amaliy, ijtimoiy-iqtisodiy muammolarni hal qilishda dolzarblik kasb etadi. Bundan davlat miqyosida soliqlarni boshqarishning to'g'ri yo'lga qo'yilishi makroiqtisodiy darajada umumdavlat iqtisodiyotiga o'zining ijobiy ta'sirini ko'rsatishini ko'rishimiz mumkin. E.N.Evstigneev asoslaganidek, Davlat soliq menejmenti – davlatning bevosita funksiyalaridan biri va uning iqtisodiy siyosatining muhim elementidir.¹⁸

¹⁸ Евстигнеев Е.Н. Налоги и налогообложение. СПб.: Питер, 2009. С. 250.

Korporativ tuzilma miqyosida soliqlar bo'yicha pul oqimlarini boshqarishning ahamiyatini soliqlar va majburiy ajratmalar bo'yicha xarajatlarni tejash orqali xo'jalik subyektlari moliyaviy barqarorligini oshirishda dolzarflik kasb etishida ko'rishimiz mumkin. Bu borada ham E.N.Evstigneev ta'kidlaganidek, Korporativ soliq menejmenti – korxon va tashkilotlar moliyaviy-xo'jalik faoliyatining ajralmas qismi bo'lib, soliq to'lovchi tomonidan soliq yukini kamaytirishning qonuniy vositasidir.¹⁹

Davlat tomonidan soliqlarni boshqarishning ahamiyatini davlatning umumiy boshqaruvi tizimida ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy fan taraqqiyotini ta'minlashda ko'rishimiz mumkin. Ya'ni, soliqlar va majburiy ajratmalarni samarali boshqarish orqali davlat o'z boshqaruv funksiyalarini moliyaviy jihatdan ta'minlaydi va mamlakat taraqqiyotiga zamin yaratadi.

Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda bizning fikrimizcha, davlat soliq menejmenti mohiyatini davlatning soliqlar amal qilishi bo'yicha umumiy tamoyillar, metodologik qoidalar ishlab chiqish orqali soliq munosabatlarini tartibga solish borasidagi faoliyatida ko'rishimiz mumkin. Davlat tomonidan soliqlarni boshqarishning muhimligini soliqlar jamiyatdagi iqtisodiy munosabatlar vositasi, davlatning daromadlarini ta'minlaydigan, iqtisodiy va ijtimoiy jarayonlardagi takror ishlab chiqarishni tartibga soladigan manba ekanligi bilan ham bog'lashimiz mumkin. Bundan soliqlarni davlat tomonidan boshqarib borish zarurati kelib chiqadi, desak mubolag'a bo'lmaydi.

Davlat soliq tizimini, soliqqa tortish sohasini tartibga solib turadi va shu orqali davlat jamiyatdagi boshqa ko'plab o'zaro bog'liq sohalarni moliyaviy jihatdan ta'minlaydi va bundan o'z-o'zidan soliqlar va soliqqa tortish sohasini boshqa sohalar taraqqiyotiga hissa qo'shuvchi markaziy bo'g'in sifatida ko'rishimiz mumkin. Davlat soliqlarni boshqarib borish orqali soliqlar va soliqqa tortish sohasining fan, iqtisodiyot, moliya, siyosat, huquq, ta'lim, ijtimoiy jarayonlar, madaniyat, etika yoki boshqa sohalar bilan to'g'ridan-to'g'ri bog'liqligidagi ahamiyatini yanada

¹⁹ Евстигнеев Е.Н. Налоги и налогообложение. СПб.: Питер, 2009. С. 251.

oshiradi. Ya'ni bunda aynan davlat tomonidan soliqlarning o'z vaqtida va to'liq undirilishini tashkil etish jamiyat miqyosidagi boshqa ko'plab sohalarning moliyalashtirilishiga va shu orqali ularning rivojlanishiga erishiladi.

Umuman olganda, davlat soliq menejmenti soliqlarni undirishni samarali tashkil etish jarayonlariga yo'naltiriladi. Respublikamizda davlat tomonidan soliqlarni boshqarishni boshqaruv ta'siri ko'lamiga ko'ra respublika va mahalliy darajalarga bo'lishimiz mumkin. Bunday tasniflanishni soliqlarning tegishli byudjetlarga birlashtirilganligidan kelib chiqqan holda izohlashimiz mumkin. Shuningdek ayrim soliq turlari bo'yicha mahalliy hokimiyatlarga soliq stavkalarini belgilash huquqi berilganligida ham ko'rish mumkin.

Soliqlar korporativ tuzilmalar pul oqimlarida salmoqli ulushga ega hisoblanadi. Soliqlarning xo'jalik subyektlari moliyaviy holatiga ta'sirini hisobga olgan holda qabul qilingan qarorlar biznes taqdirini belgilab berish bilan birga uning o'sish va rivojlanish imkoniyatlarini ham belgilab beradi. Soliqlar va majburiy ajratmalar bo'yicha davlat byudjeti bilan hisob-kitoblardagi har qanday xato yoki kamchilik korporativ tuzilma uchun qo'shimcha moliyaviy majburiyatlarni yuzaga keltirishi va jiddiy moliyaviy yo'qotishlarga olib kelishi mumkin.

Korporativ tuzilmalar tomonidan soliqlar bo'yicha jiddiy xatolar yoki soliq huquqbuzarliklariga yo'l qo'yilishining oldini olish, soliqlar bo'yicha majburiyatlarni qonuniy yo'llar va usullardan foydalangan holda maksimal darajada kamaytirishni yo'lga qo'yish moliyaviy barqarorlik va korporativ moliyaviy xavfsizlikni ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Bunga erishish uchun korporativ tuzilma o'z faoliyatini yuritish davomida soliqqa tortish jarayoni bilan bevosita bog'liq hamda obyektiv zaruriyat bo'lgan soliq majburiyatlarini boshqarishni samarali tashkil etishi lozim bo'ladi.

Ko'plab rivojlangan mamlakatlar kompaniyalari faoliyatida soliq menejeri o'z vazifalaridan kelib chiqqan holda soliqlarni rejalashtirish va optimallashtirish bilan shug'ullanishini ko'rishimiz mumkin. Natijada

kompaniyalar rahbariyati tomonidan qarorlar qabul qilishda soliq menejerlarining soliq to'lovlarini amalga oshirish borasidagi qarorlariga alohida e'tibor qaratiladi va yil yakunida bu qarorlarning samaradorligi baholanadi.

Shu o'rinda alohida ta'kidlab o'tishimiz kerakki, davlat soliq menejmenti va korporativ soliq menejmenti soliqlarning ijtimoiy-iqtisodiy kategoriya sifatida majburiyat ko'rinishida amal qilishiga qaramasdan o'zaro yaqin tushunchalar emas. Buni davlat soliq menejmenti va korporativ soliq menejmentining maqsadlaridagi obyektiv qarama-qarshilikda ko'rishimiz mumkin. Yana shuni ham alohida ta'kidlashimiz lozimki, ularning yagona maqsadi – jamiyatda soliqlar va soliqqa tortishni umumiy boshqarish bo'lib, ular o'zaro qarama-qarshi yo'alishda aks etadi. Bu borada Davlat soliq menejmenti davlat manfaatlarini ko'zlaydi, korporativ soliq menejmenti esa konkret tashkilot, konkret jamoa manfaatlaridan kelib chiqadi.²⁰ Ya'ni, "Qoidaga muvofiq, soliq to'lovchi subyekt va soliq yig'ib oluvchi davlat byudjeti o'rtasida hamisha qarama-qarshi manfaat ehtiyoji mavjud bo'lgan va bo'ladi".²¹

Huquqiy jihatdan soliqlarning amal qilishi davlat tomonidan tartibga solib borilganligi uchun korporativ tuzilmalar uchun o'rnatilgan soliq yuki ko'p holatlarda manfaatlar uyg'unligiga mos tushmasligini ko'rishimiz mumkin.

Soliqlarni boshqarish jarayonida davlat soliq menejmentiga nisbatan korporativ miqyosdagi soliqlarni boshqarish tobeklik, bo'ysunuvchanlik xarakteriga ega. Chunki korporativ tuzilmalar soliq to'lovchilar sifatida davlat tomonidan o'rnatilgan soliq qonunchiligi doirasida o'zlarining soliq majburiyatlarini boshqarib boradi.


Korporativ tuzilmaning moliyaviy-xo'jalik faoliyati davomida byudjet bilan soliqlar bo'yicha hisob-kitoblarda xatolarga yo'l qo'yishi korxonalar uchun jiddiy moliyaviy yo'qotishlarga aylanishi haqida yuqorida ham ta'kidlab o'tdik. O'zbekistondagi haqiqiy holat

²⁰ *Налоговый менеджмент*/ Под ред. А.Г.Поршеннова. М.: INFRA-M, 2003. С. 26.

²¹ N.X.Наудагоров va boshq. Xorijiy investitsiyalarni jalb etishni muvofiqlashtirish masalalari: Qo'llanma. T.: Akademiya, 2011. B.118.


tadbirkorlik faoliyatini soliqqa tortishning va soliq qonunchiligining o'zgaruvchanligi va shu kabi boshqa holatlardan kelib chiqqan holda korxonalarda soliq majburiyatlarini boshqarish keng miqyosda yo'lga qo'yilmagan. Bugungi kunda biznes faoliyatining borishi davomida ba'zi bir shartnomalarning qancha foyda keltirishi va bu bo'yicha qancha soliq to'lanishi talab qilinishini hisobga olmaganda korxonalar miqyosida soliqlarni boshqarish deyarli ko'zga tashlanmaydi. Soliqqa tortish, soliq hisobi va soliqlarni boshqarish muammolarini xususiyatlari bo'yicha taqqoslaganda bunday muammolar bilan birgalikda ishlab chiqarish yoki xohlagan tadbirkorlik faoliyati sohasi bilan bevosita bog'liq bo'lgan muammolar ham mavjud. Soliq to'lovlari korxonaning barcha ishlab chiqarish va xo'jalik faoliyatini qamrab olib, narx shakllanishidagi barcha elementlarga, ishlab chiqarish samaradorligiga ta'sir ko'rsatadi, shuningdek biznes qarorlarini qabul qilish bo'yicha muhim omillarga ham o'z ta'sirini ko'rsatadi. Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda quyida davlat soliq menejmenti va korporativ soliq menejmentining tashkiliy xususiyatlarini keltirib o'tamiz (2.2-rasm):

Soliqlar haqiqatda korporativ tuzilmaning moliyaviy qarorlar qabul qilishiga jiddiy ta'sir qilmasligi lozim. Amaliyotda soliqlar iqtisodiy tartibga solishning muhim vositasi sifatida ko'rinadi. Strategik qarorlar sohasida, ba'zan esa kompaniya faoliyatida ham taktik almashtirishlar zarur bo'lib qoladi. Jiddiy qarorlar hech qachon soliqlarni hisobga olmasdan qabul qilinmaydi. Korxonada doimiy ravishda asosiy funksiyasi mazkur korxonada faoliyatini soliq nuqtai nazaridan kuzatish va tahlil qilish bo'lgan ichki va tashqi mutaxassislar bo'lishi lozim. Agar soliqlar korporativ tuzilma moliyaviy strategiyasida e'tiborga olinmasa, kimdir ularni o'z vaqtida va to'g'ri hisoblashi, shuningdek ularni optimallashtirish bo'yicha chora-tadbirlar qabul qilishi kerak. Soliq to'lovchilarda soliqlarni to'lamaslik mumkin emas ekan, unda mumkin qadar kamroq to'lash kerak degan yondashuvni shakllantirish barcha xo'jalik subyektlarining o'z soliq majburiyatlarini ta'qiqlanmagan qonuniy usullar yordamida kamaytirishini bozor iqtisodiyoti talab etadi va bu ularning huquqi sifatida asoslanadi.



2.2-rasm. Davlat soliq menejmenti va korporativ soliq menejmenti tashkiliy xususiyatlari

Umuman, shuni alohida ta'kidlash kerakki, korporativ tuzilmalarda tadbirkorlik qarorlarini qabul qilishga soliqqa tortish elementlari va soliq yukini aniqlash bo'yicha o'rnatilgan soliq qonunchiligi, shuningdek soliq to'lovchilar faoliyatini nazorat qiluvchi va turli xil soliq sanksiyalarini qo'llovchi soliq organlari faoliyati ta'sir ko'rsatuvchi omillar hisoblanadi (2.3-rasm).



2.3-rasm. Tadbirkorlik qarorlarini qabul qilishga soliqlarning ta'siri²²

²² Видликова Е.С. Налоговое планирование: Учебник для магистров. М.: Юрайт, 2011. С. 507 (639).

Xulosa sifatida shuni ta'kidlashimiz mumkinki, korxonalarda soliqlarni boshqarish korporativ moliyani boshqarishning muhim tarkibiy qismi sifatida hamda amaliyotga moliyaviy-xo'jalik faoliyatining muhim bo'g'ini sifatida kirib borishi kerak. Xo'jalik yurituvchi subyektlarda soliq majburiyatlarini, umuman soliqlarni boshqarish bo'yicha mutaxassislar (soliq menejeri, soliq maslahatchisi) eng ahamiyatli figura sifatida yuzaga chiqishi maqsadga muvofiq.

Nazorat savollari

1. Davlat soliq xizmati organlari va ularning faoliyat mexanizmi.
2. Soliq islohotlari va ularning faoliyat mexanizmi.
3. Soliq menejmenti va uning tashkiliy xususiyatlari.
4. Davlat soliq menejmenti amal qilish mexanizmi.
5. Soliq ma'murchiligi va davlat soliq menejmenti: umumiy va farqli jihatlar.
6. Korporativ soliq menejmenti amal qilish mexanizmi.
7. Davlat soliq menejmenti va korporativ soliq menejmenti: umumiy va farqli jihatlar.
8. Tadbirkorlik faoliyatida moliyaviy qarorlar qabul qilishga soliqlarning ta'siri.

3-BOB. KORPORATIV MOLIYANI BOSHQARISHDA SOLIQ MAJBURIYATLARI IJROSINI TA'MINLASHNING TASHKILY XUSUSIYATLARI

Mamlakatimiz o'z mustaqilligini qo'lg'a kiritgach, mulkchilik munosabatlarini samarali tashkil etishga, davlat mulkini bosqichma-bosqich xususiylashtirishga, xususiy mulk ustuvorligini ta'minlashga alohida e'tibor qaratildi. Avvalo, xususiylashtirish jarayonlarining huquqiy asoslari yaratildi. Natijada mulkdorlar sinfi shakllanishiga erishildi va turli xil tashkiliy-huquqiy shakldagi korporativ tuzilmalar, xususan aksiyadorlik jamiyatlari, mas'uliyati cheklangan jamiyatlar, xususiy korxonalar o'z faoliyatlarini mustaqil tashkil etgan holda iqtisodiy taraqqiyotga o'z hissalarini qo'shib kelmoqda. Bugungi kunga kelib mavjud korporativ tuzilmalarda muayyan korporativ moliyani boshqarish tizimi shakllanib ulgurdi.


Umumiy tartibda korporativ moliyani boshqarish bo'yicha tegishli korporativ boshqaruv organlari vakolatlaridan kelib chiqqan holda mamlakatimizdagi korporativ tuzilmalarda korporativ boshqaruv va korporativ menejment joriy etildi. Bunda *korporativ boshqaruv* korporatsiya ta'sisчилari mulkidan samarali foydalanish ustidan nazoratni amalga oshiradi, *korporativ menejment* esa xo'jalik yuritish jarayonida korporatsiya mulkidan samarali foydalanishga javob beradi²³. Umumiy holda Korporativ boshqaruv – bu korporatsiya mulkdorlarining korporatsiya kapitali tashkil etilishiga yo'naltirilgan, strategik muhim boshqaruv qarorlarini aniqlash, ishlab chiqish va qabul qilishda ularning doimiy ta'sirini ta'minlashdagi, shuningdek foydani oshirish maqsadida undan samarali foydalanish va olingan daromadlarni barcha korporativ munosabatlar ishtirokchilari o'rtasida adolatli taqsimlashdagi bevosita ishtirokidir.²⁴

²³ Хамидулин М. Развитие финансового механизма корпоративного управления... Автореферат диссертации на соискание ученой степени доктора экономических наук. Т., 2008. С. 11.

²⁴ Хамидулин М. Развитие финансового механизма корпоративного управления... Автореферат диссертации на соискание ученой степени доктора экономических наук. Т., 2008. С.11.

Yuqoridagilar asosida korporativ menejment korporativ boshqaruvga bevosita bo'ysunishini ko'rishimiz mumkin. Ya'ni korporativ boshqaruv kompaniyaning haqiqiy egalari mol-mulkidan samarali foydalanish orqali qo'yilgan maqsadga erishish jarayonini umumiy boshqarishda namoyon bo'lsa, korporativ menejment tashkil etilgan kompaniya mol-mulkini samarali boshqarish orqali qo'yilgan maqsadga erishishni tashkil etishda ko'zga tashlanadi.

Quyidagi model korporativ darajada moliyaviy munosabatlarning tashkil etilishi va moliyaviy munosabatlar strukturasi (3.1-rasm).



3.1-rasm. **Korporativ moliyaviy munosabatlar klassifikatsiyasi va korporativ boshqaruv mexanizmlari**²⁵

Shu o'rinda milliy qonunchiligimizga ko'ra mamlakatimizda "korporatsiya" degan biznesning tashkiliy-huquqiy shakli mavjud emasligini alohida qayd etib o'tishimiz lozim. Yuqorida keltirib o'tilgan

²⁵ Хамидулик М. Развитие финансового механизма корпоративного управления... Автореферат диссертации на соискание ученой степени доктора экономических наук. Т., 2008. С. 12.

rasmda ham ma'lumotlar korporativ tuzilma va boshqa subyekt o'rtasidagi moliyaviy munosabatlar sifatida yoritilsa maqsadga muvofiq bo'lar edi.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida davlat miqyosida soliqlar va majburiy ajratmalarni hamda soliq tizimini boshqarish yuzaga kelishi, aynan shu jarayon bilan bir vaqtda korporativ miqyosda soliqlarni boshqarish ham yuzaga chiqishi va rivojlanishi haqida yuqorida ham to'xtalib o'tdik. Korporativ miqyosda soliqlarni boshqarishni yuqoridagi rasmda keltirilganidek, korporativ tuzilmaning davlat byudjeti va byudjetdan tashqari fondlar bilan moliyaviy munosabatlari jarayonida ko'rishimiz mumkin.

Fikrimizcha, korporativ miqyosda soliqlarni boshqarish, korporativ tuzilmaning davlat bilan moliyaviy va soliq munosabatlarini boshqarish, soliqlar va majburiy ajratmalarni to'lash bo'yicha majburiyatlarini bajarish jarayonida yuzaga keladigan muammolarni hal qilishda muhim ahamiyatga ega hisoblanadi hamda korporativ moliyani boshqarish tizimining muhim qismi sifatida ko'zga tashlanadi. Bu amaliyot odatda "korporativ soliq menejmenti" tushunchasi bilan ifodalanadi.

Korxonalarda soliq menejmenti – soliq to'lovlarini optimal- lashtirish bilan bog'liq faoliyat sifatida ularni samarali boshqarishdir va u moliyaviy menejmentning ajralmas qismi hisoblanadi. E.N.Evstigneevning izohlashicha, Korporativ soliq menejmenti – bu iqtisodiy subyekt moliyasini boshqarishning tarkibiy qismidir; tashkilotning o'z oldiga qo'ygan maqsadidan va yuzaga kelishi mumkin bo'lgan soliq oqibatlari miqdorlari hisobidan kelib chiqqan holda boshqaruv qarorlarini ishlab chiqish va baholashdir. Uning bosh maqsadlaridan biri – soliq qonunchiligining barcha xususiyatlaridan foydalanish yo'li bilan soliqqa tortishni optimallashtirishdir.²⁶

Bizning fikrimizcha, **korporativ soliq menejmenti** bu – qonunchilik doirasida korporativ tuzilma miqyosida soliqlar bo'yicha pul oqimlari harakatini samarali boshqarish orqali soliq majburiyatlarini minimallashtirish, tartibga solish, soliq xatolarining oldini olish, soliq

²⁶ Евстигнеев Е.Н. Налоги и налогообложение. СПб.: Питер, 2009. С. 252.

to'lashning qulay vaziyatlarini tanlashga qaratilgan korporativ moliyani boshqarish tizimining muhim bo'g'inidir.

Korporativ soliq menejmentini keng ma'noda korporativ tuzilma moliyaviy-xo'jalik faoliyatini tashkil etish va davom ettirish jarayonida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan soliqlar bilan bog'liq har qanday munosabatni samarali tashkil etishga qaratilgan moliyaviy boshqaruv sohasi sifatida ko'rishimiz mumkin.

Tor ma'noda esa soliqlar va majburiy ajratmalarni optimal darajada to'lashni tashkil etish uchun zarur shart-sharoit yaratish va uni amalga oshirish sifatida baholanadi.

Korporativ tuzilmada soliqlar bo'yicha pul oqimlarini boshqarishni tashkil etish uchun moliyaviy menejmentning tashkiliy strukturasiidan foydalaniladi. Ya'ni, bu jarayonda moliyaviy rejalashtirish, moliyaviy risklarni boshqarish, ichki moliyaviy nazoratni yo'lga qo'yish, moliyaviy tahlil o'tkazish, hamkorlar bilan moliyaviy munosabatlarni tashkil etish va hokozalarda korporativ soliq menejmenti tashkiliy yo'nalishlari hisoblangan soliqlarni rejalashtirish, soliq risklarini boshqarish, ichki soliq nazoratini yo'lga qo'yish, soliqlarni tahlil qilib borish, shartnomaviy munosabatlarda soliqlarning amal qilish doirasini hisobga olish kabilarda e'tibor qaratilishi lozimligini alohida ta'kidlab o'tamiz.

Korporativ tuzilmalar miqyosida soliqlarni boshqarish va davlat tomonidan soliqlarni boshqarishning o'zaro bog'liq sohalari sifatida soliqlarni prognozlash (davlat miqyosida) yoki rejalashtirish (korxonalar miqyosida), soliqlarni tartibga solish va soliq nazorati keltirib o'tiladi. Bunda soliqlarni rejalashtirish moliyaviy rejalashtirishning muhim tarkibiy qismlaridan biri sifatida qaraladi. Soliqlarni tartibga solish esa korporativ miqyosda soliq qonunchiligiga qat'iy rioya qilish orqali soliq huquqbuzarliklariga yo'l qo'yilishining oldini olishda namoyon bo'ladi. Korporativ soliq nazorati soliqlar va majburiy ajratmalar bo'yicha hisob-kitoblarning ishonchliligini ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Ko'plab mamlakatlardagi aksariyat kompaniyalarda soliq to'lovlarini boshqarish bilan moliya bo'limi (xizmati) mutaxassisi yoki

buxgalteriya bo'limi xodimlari shug'ullanadi. Shuningdek, yirik kompaniyalar moliya bo'limlarida kompaniya boshqaruvi tarkibiy qismi sifatida tashkil etilgan soliq menejmenti orqali soliqlar bo'yicha pul oqimlarini boshqarish bilan soliq menejerlari shug'ullanadi. Ularning asosiy majburiyatlari sifatida quyidagilar e'tirof etiladi:

- kompaniya faoliyatini tartibga soluvchi hujjatlar ustav va turli xil nizomlarni ishlab chiqishda qatnashish;
- kompaniya uchun samarali soliq rejimlarini o'rganib chiqish va asoslab berish orqali amaliyotga joriy etish;
- soliq qonunchiligi bo'yicha axborot bazasini yaratish, yangilab turish va saqlash;
- shartnoma va kelishuvlar tizimini asoslashda ishtirok etish;
- amaldagi soliq siyosatidan kelib chiqqan holda korporativ tuzilmaning soliq siyosatini belgilash va soliq byudjeti (to'lanishi kutilayotgan soliq summalari va ular bo'yicha to'lov manbalari rejasi)ni ishlab chiqish;
- korporativ miqyosda soliqlarni rejalashtirish va byudjetlashtirishni amalga oshirish;
- soliq to'lovlari tahlilini amalga oshirish, ichki soliq nazoratini o'tkazish;
- tashqi soliq nazorati o'tkazilayotganda soliq organlariga hujjatlarni o'z vaqtida va to'liq taqdim etish;
- soliq to'lovchi sifatida faoliyat yuritish (tegishli organlarda o'z vaqtida hisobda turish yoki qayta ro'yxatdan o'tish, soliq kalendarini ishlab chiqish va alohida soliqlar bo'yicha to'lovlarni tartibga solish, soliqlar bo'yicha, xususan, soliq imtiyozlari bo'yicha savollar yuzasidan mahalliy moliya va soliq organlari bilan bog'lanish);
- o'z tashkilotida soliqqa tortish sohasida tashkiliy-metodologik ishlarni bajarish va hokazolar.

Fikrimizcha, elementlari bo'yicha keng qamrovli korporativ soliq menejmentini tashkil etish va samarali faoliyatini yo'lga qo'yish orqali quyidagi imkoniyatlar qo'lga kiritilishini ko'rishimiz mumkin:

- joriy va kelgusi davrlar uchun soliqqa oid moliyaviy yengilliklardan foydalanish uchun qo'shimcha elementlarni qo'lga kiritish;

- korxonada faoliyatiga ta'sir etuvchi tashqi omillar o'zgarishini yanada kengroq qamrab olgan holda hisobga olish;

- qabul qilingan boshqaruv qarorlarining natijalarini hisobga olgan holda soliq menejmenti ishtirokchilarini rag'batlantirish, menejerlar darajasi va malakasini oshirish uchun qo'shimcha imkoniyatlar yaratish;

- xo'jalik subyektining moliyaviy resurslarini yuqori darajada to'g'ri taqsimlash va ulardan samarali foydalanishni ta'minlash;

- korporativ tuzilmaning moliyaviy barqarorligi darajasini xarajatlarni kamaytirish hisobiga oshirish.

Yana shuni ham alohida ta'kidlashimiz lozimki, korporativ tuzilmalarda soliqlar bo'yicha pul oqimlarini boshqarishning samarali amal qilishi korporativ moliyani boshqarish tizimining samarali ishlashiga o'ziga xos zamin yaratadi va moliyaviy menejmentning asosiy maqsadi hisoblangan korxonalar xususiy kapitalining bozor qiymati o'sishiga xizmat qiladi.

Korporativ tuzilmalarda soliqlar bo'yicha pul oqimlarini boshqarishning zarurligi korxonada zimmasiga tushayotgan soliq yuki bilan bevosita bog'liqdir. Chunki, soliq yuki darajasi yuqori darajada bo'ladigan bo'lsa, korxonada to'la quvvatli soliq menejmentini tashkil etish maqsadga muvofiq hisoblanadi. Soliq yuki yuqori bo'lganda soliqlar bo'yicha pul oqimlarini boshqarishni tashkil etish bo'yicha xo'jalik subyekti xarajatlari samarali bo'ladi, soliq bo'yicha qabul qilingan boshqaruv qarorlari yuqori baholanadi.

Tashkilotning miqdor va sifat ko'rsatkichlarini oshirishda soliq majburiyatlari bilan bog'liq muammolarni hal qilish ancha murakkab va mas'uliyatli hisoblanadi. Bir tomondan tashkilot moliyaviy faoliyati bo'yicha hisob-kitobning yetarli emasligi, byudjet bilan soliq bo'yicha hisob-kitoblardagi kamchiliklar jiddiy moliyaviy va ma'naviy zararlarga olib keladi, hatto korxonaning bankrot bo'lishiga yoki tugatilishiga ham olib kelishi mumkin. Bu muammolarni hal qilish har bir korxonaning

oldida turgan muhim vazifalardan ekanligini inobatga olgan holda soliqlar bo'yicha pul oqimlarini boshqarish barcha korxonalar va tashkilotlarda moliyaviy-xo'jalik faoliyati amaliyotida qatnashishini yo'lga qo'yish lozim, deb o'ylaymiz.

Soliqlar bo'yicha pul oqimlarini boshqarish korporativ moliyani boshqarishning tarkibiy qismi sifatida yo'lga qo'yilishi bilan birga bozor infrastrukturasi tarkibida soliq to'lovchilar bilan shartnomalar asosida soliqqa tortish sohasida xizmat ko'rsatuvchi soliq maslahati institutini samarali xizmat ko'rsatishini yo'lga qo'yish orqali ham rivojlanishi mumkin. Chunki, soliqlarni korporativ miqyosda boshqarish bozor iqtisodiyoti sharoitida soliq maslahatchilari tashkilotining faoliyat sohasi hisoblanadi. Bunda korporativ moliyani boshqarishda soliq maslahatchilarini jalb qilish yoki soliq munosabatlari bo'yicha alohida tarkibiy qism faoliyatini yo'lga qo'yishdan qaysi biri samaradorlik jihatdan ahamiyatli ekanligiga e'tibor qaratish talab etiladi.

Korporativ soliq menejmentini korporativ tuzilmalarning davlat bilan moliyaviy munosabatlarida, ularning majburiy va ekvivalentsiz to'lovlar (soliqlar va majburiy ajratmalar) ko'rinishidagi resurslar oqimini, qat'iy tartibga solingan soliq qonunchiligi talablarini bajarish jarayonini boshqarishda ko'rishimiz mumkin. Bunda turli darajadagi byudjetlarga va byudjetdan tashqari fondlarga soliqlar va majburiy ajratmalar ko'rinishidagi pul oqimlari harakatini tashkil etishda paydo bo'ladigan munosabatlar tizimi soliq menejmentining boshqarish obyekti sifatida qaralishini alohida ta'kidlab o'tamiz.

Korporativ moliyani boshqarishning tarkibiy qismi sifatida korporativ soliq menejmentida quyidagilarga e'tibor qaratish lozim, deb hisoblaymiz:

- soliq majburiyatlarini boshqarish;
- soliqlarni rejalashtirish;
- soliq risklarini boshqarish;
- ichki soliq nazoratini tashkil etish;
- soliq majburiyatlarini qonun doirasida kamaytirish bo'yicha sxemalar ishlab chiqish (soliqlarni optimallashtirish).

Soliqlarni rejalashtirish tashkilotning umumiy maqsadidan kelib chiqqan holda faqatgina soliq to'lovlarini kamaytirishga yo'naltirilmaydi. Bunda soliq to'lovlarini kamaytirishga qaratilgan chora-tadbirlar soliqlarni rejalashtirishning bir qismi sifatida e'tiborga olinadi. Bu haqda keyingi paragraflarda batafsil to'xtalamiz.

Korxonalar miqyosida soliq risklarini boshqarish soliqlar bo'yicha pul oqimlarini boshqarishning amal qilish jarayonida yo'l qo'yilishi mumkin bo'lgan xatoliklarni kamaytirishga qaratiladi.

Soliqlar bo'yicha pul oqimlarini boshqarishda soliq majburiyatlarini boshqarish soliqlar va majburiy ajratmalar amal qilishi bo'yicha majburiyatlarni belgilangan tartibda bajarishni nazarda tutadi va bu vazifa davlat byudjeti daromadlarining o'z vaqtida shakllanishiga xizmat qiladi.

Korporativ miqyosda ichki soliq nazorati soliqlar bo'yicha huquqbuzarliklarning oldini olish va soliq xatolarini soliq organlari tomonidan tekshiruv o'tkazilgunga qadar bartaraf etish maqsadida tashkil etiladi. Ichki soliq nazorati va bu jarayonda e'tibor qaratilishi lozim bo'lgan jihatlar haqida keyingi paragraflarda to'xtalib o'tamiz.

Soliqlarni optimallashtirish esa turli xil sxemalar ishlab chiqish orqali soliq to'lovlarini qonun doirasida kamaytirish yo'llarini ishlab chiqish va ulardan foydalanish orqali soliqlar bo'yicha xarajatlarni qisqartirishni nazarda tutadi.

Keng ma'noda korporativ soliq menejmentini qo'yilgan maqsadga erishish uchun barcha imkoniyatlardan yaxshiroq foydalanishni ta'minlaydigan maxsus yaratilgan mexanizm yordamida muammolarni hal qilishni boshqarishning muhim vositasi sifatida tushunish kerak.

Korporativ soliq menejmentini samarali tashkil etishda buxgalteriya hisobining alohida tarkibiy qismi sifatida soliq hisobini yuritish ham muhim ahamiyat kasb etadi, deb o'ylaymiz. Chunki soliq hisobini alohida tashkil etish soliq majburiyatlarini boshqarishni belgilangan tartibda tashkil etishda, soliqlarni optimallashtirishda xodimlarning ixtisoslashuvini yuzaga keltiradi, barcha xo'jalik yurituvchi subyektlarda soliqlar va to'lovlarni o'z vaqtida va to'g'ri

hisobga olish, soliq imtiyozlarini qo'llash hamda soliqlar va to'lovlarning belgilangan muddatlarda byudjetga o'tkazib borilishi ta'minlanadi. Umuman, korxonalarda soliq hisobini tashkil etish ham bevosita korxonalarda soliqlar bo'yicha pul oqimlarini samarali boshqarishga xizmat qiladi. Fikrimizcha, soliq hisobi boshqaruv qarorlarini qabul qilishda zarur axborotlar bilan ta'minlovchi manba bo'lib xizmat qiladi va moliyaviy qarorlar samaradorligini oshiradi, deb o'ylaymiz.

Korporativ soliq menejmentini tashkil etish yo'nalishlari, xususan korxonalarda soliqlarni rejalashtirish, soliq risklarini boshqarish, ichki soliq nazoratini tashkil etish va uni o'tkazish, soliqlarni optimallashtirish, shuningdek, soliq maslahatchiligining korporativ soliq menejmentini rivojlantirishdagi ahamiyati haqida navbatdagi boblarda batafsil to'xtalib o'tamiz.

Nazorat savollari

1. Korporativ boshqaruv moliyaviy mexanizmida soliqqa oid masalalar.
2. Korporativ menejment moliyaviy mexanizmida soliqqa oid masalalar.
3. Korporativ soliq menejmenti tashkiliy yo'nalishlari.
4. Korporativ moliyani boshqarish va korporativ soliq menejmenti o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik.

4-BOB. SOLIQLARNI REJALASHTIRISHNING KORPORATIV MOLIYANI BOSHQARISH JARAYONIDA AMAL QILISH MEXANIZMI

Korporativ moliyani boshqarishda soliq munosabatlarini samarali tashkil etishning eng asosiy yo‘nalishlaridan biri soliqlarni rejalashtirishdir. Soliqlarni rejalashtirish tashkiliy-huquqiy shaklni tanlash va faoliyatni qaysi hududda tashkil etish bo‘yicha qaror qabul qilishdan tortib, soliq majburiyatlarining ijrosini belgilangan tartibda ta‘minlashga qadar barcha jarayonlarda muhim ahamiyatga ega hisoblanadi. Shundan kelib chiqqan holda quyida soliqlarni rejalashtirishning mazmun-mohiyati, korporativ moliyani boshqarish tizimidagi o‘rni haqida to‘xtalib o‘tamiz.

T.S.Malikovning “Soliq tizimi (soliqqa tortish) oldiga qo‘yilgan uchinchi tamoyilga ko‘ra, *har bir soliq to‘lovchi necha so‘m, qachon va nima uchun soliq to‘lashi lozimligini bilmog‘i kerak*”,²⁷ deya ta‘kidlagan fikri bozor iqtisodiyoti sharoitida soliqlarni rejalashtirishga bo‘lgan zaruratni o‘zida to‘liq ifodalay oladi.

Bevosita soliqlarni rejalashtirishning iqtisodiy mohiyatiga to‘xtaladigan bo‘lsak, bu borada M.Q.Adilov “qonunda berilgan imtiyozlar va soliq majburiyatlarini qisqartirish usullarini qo‘llagan holda soliq yukini kamaytirishning qonuniy usuli”²⁸ sifatida ta‘rif beradi.

A.V.Vahobov, N.X.Jumaev, U.A.Burxonovlar esa “Soliqlarni rejalashtirishning iqtisodiy ma‘nosi shuki, soliq to‘lovchining qonunchilik tomonidan ruxsat berilgan barcha yo‘llar, usullar va vositalardan foydalangan holda o‘z soliq majburiyatlarini maksimal darajada qisqartirish bo‘yicha hamma tomonidan tan olingan huquqlaridan foydalanishdir”²⁹, deya ta‘kidlaydi. Bunda soliq

²⁷ Malikov T.S., Jalilov P.T. Byudjet-soliq siyosati: Monografiya. T.: Akademnashr, 2011. B. 195.

²⁸ Adilov M.Q. Tadbirkorlik faoliyatida soliqlarni rejalashtirish. T.: Norma, 2012. B. 48 b. (420).

²⁹ Vahobov A.V., Jumaev N.X., Burxonov U.A. Xalqaro moliya munosabatlari: Darslik. T.: Sharq, 2003. B. 343.

majburiyatlari ijrosini o‘z vaqtida ta‘minlash masalasi e‘tibordan chetda qolganligini qayd etib o‘tishimiz lozim.

E.S.Vilkova tomonidan soliqlarni rejalashtirish «xo‘jalik subyektlari yagona iqtisodiy taraqqiyot strategiyasi doirasidagi moliyaviy-xo‘jalik faoliyatini boshqarishning ajralmas qismi bo‘lib, resurslarning cheklanganligi sharoitida korxonaning kelajakdagi moliyaviy holatini belgilash uchun optimal qonuniy soliq to‘lash usullaridan va metodlaridan hamda soliq to‘lashning mumkin bo‘lgan muqobil variantlaridan foydalanish tizimidagi jarayonlar»³⁰ sifatida izohlanadi. Mazkur izohda soliqlarni rejalashtirishga bevosita korporativ moliya strategiyasining tarkibiy qismi sifatida qaralganligini ko‘rishimiz mumkin.

E.S.Mityukova esa “soliqlarni rejalashtirish deganda fuqarolik, mehnat va soliq qonunchiliklari me‘yorlariga muvofiq soliq to‘lovlarini kamaytirishga yoki kechiktirishga yo‘naltirilgan chora-tadbirlar kompleksi tushuniladi. Aks holda bunday chora-tadbirlar soliq organlari tomonidan soliqlarni to‘lashdan qochish usullari sifatida baholanadi”³¹ deya fikr bildiradi. Bunda “fuqarolik, mehnat va soliq qonunchiliklari” tushunchasi o‘rniga “faoliyat bilan bog‘liq qonunchilik doirasida” tushunchasi qo‘llanilsa maqsadga muvofiq bo‘lar edi, deb o‘ylaymiz.

E.YU.Sidorova soliqlarni rejalashtirish tushunchasiga ham korporativ tuzilma, ham davlat manfaatlari nuqtai nazaridan yondashgan holda tashkilotning moliyaviy resurslarini oshirishga, soliq bazasi tarkibi va miqdorini tartibga solishga, boshqaruv qarorlari samaradorligiga ta‘sir etishga hamda amaldagi qonunchilik bo‘yicha byudjet bilan hisob-kitoblarni o‘z vaqtida ta‘minlashga yo‘naltirilgan rejali faoliyatlar yig‘indisi³² sifatida ta‘rif beradi. Ya‘ni bir tomondan korporativ tuzilma moliyaviy resurslarini oshirishga xizmat qilishi, ikkinchi tomondan byudjet bilan hisob-kitoblarning o‘z vaqtida ta‘minlanishi e‘tiborga olinganligini qayd etishimiz lozim.


³⁰ Вилкова Е.С. Налоговое планирование. М.: Юрайт, 2011. С. 26 (639).

³¹ Митюкова Е.С. Налоговое планирование: анализ реальных схем. М.: Эксмо, 2010. С. 8. (288).

³² Сидорова Е.Ю. Налоговое планирование. М.: Экзамен, 2006. С. 20.

V.A.Babanin va N.V.Voroninalar “Soliqlarni rejalashtirish soliqlarni to‘g‘ri va o‘z vaqtida hisoblash hamda to‘lash, shuningdek soliq to‘lovlari nuqtai nazaridan faoliyat samaradorligini oshirishni ta‘minlash bo‘yicha soliq rejaları va reja ko‘rsatkichlari tizimini ishlab chiqish jarayonini o‘zida aks ettiradi,”³³ deb hisoblaydi.

J.P.Fridmanning biznes atamalar lug‘atida soliqlarni rejalashtirish joriy va kelgusi davrlarda soliq majburiyatlarini minimallashtirishga yo‘naltirilgan turli xil soliqqa tortish muqobil variantlarini tizimli tahlil qilish³⁴ sifatida ifodalanadi va shu asosda qaror qabul qilish sifatida baholanadi.



4.1-rasm. Soliqlarni rejalashtirishning tarkibi³⁵

E.N.Evstigneev tomonidan esa qonuniy taqdim etilgan imtiyozlardan foydalanish orqali soliqlarni aylanib o‘tishning qonuniy

³³ Баданин В.А., Воронина Н.В. Организация налогового планирования в российских компаниях // Финансовый менеджмент. 2006. №1. С. 48.

³⁴ Friedman J.P. Dictionary of Business Terms. Varron's Educational Series, Inc., 2000. 736 p.

³⁵ Н.Г. Иванова и др. Налоги и налогообложение. Схемы и таблицы. СПб.: Питер, 2004. С. 340.

usullari va soliq majburiyatlarini kamaytirish yo‘llari³⁶ sifatida asoslanadi.

Shuningdek, N.G.Ivanov soliqlarni rejalashtirishni davlat tomonidan va korporativ miyosda soliqlarni rejalashtirishga ajratgan holda ularning mohiyatini quyidagi rasmda aks ettirgan (4.1-rasm).

Umumiy holda davlat tomonidan soliq tushumlarining prognoz qilinishi, korporativ tuzilmalar tomonidan esa soliq to‘lovlar rejalashtirilishi xususida yuqorida ham to‘xtalgan edik.

Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda hamda ularni umumlashtirgan holda ta’kidlash mumkinki, **soliqlarni rejalashtirish** – qonunchilik tomonidan taqdim etilgan yengilliklar va soliq majburiyatlarini qisqartirishning boshqa qonuniy usullaridan foydalangan holda soliqlar va majburiy ajratmalarni kamaytirish hamda soliq majburiyatlarini belgilangan tartibda bajarish bo‘yicha belgilanadigan moliyaviy rejalashtirish turidir.

“Soliq imtiyozlari tizimidan keng foydalanish soliq tizimining (soliqqa tortishning) o‘n ikkinchi tamoyili”³⁷ ekanligidan kelib chiqqan holda bu jihatga soliqlarni rejalashtirish amaliyotida ustuvor darajada e’tibor qaratilishini shu o‘rinda alohida ta’kidlab o‘tishimiz lozim.

Shuningdek, umumiy holatda soliqlarni rejalashtirishning ahamiyati soliqlarni maksimal darajada qisqartirish uchun qonunchilik yo‘l qo‘ygan usul va vositalar, shu jumladan qonunchilikdagi bo‘shliqlardan soliq to‘lovchilar foydalanishi natijasida uning prezumpsiya huquqi tan olinishida aks etadi. Bundan tashqari soliqlarni rejalashtirish soliqlarni o‘z vaqtida va to‘liq to‘lash bo‘yicha chora-tadbirlarni oldindan belgilashda ham namoyon bo‘ladi.

Xususiy hollarda esa E.S.Vilkova izohlashicha, firma faoliyati va hamkorlik munosabatlarida soliqlarni rejalashtirishning qo‘llanilishi biznes uchun quyidagi muhim afzalliklarni yaratadi³⁸:

- yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan muammoli holatlarni aniqlab olish;

³⁶ Евстигнеев Е.Н. *Налоги и налогообложение*. М.: ИНФРА-М, 2001. С. 78.

³⁷ Malikov T.S., Jalilov P.T. *Byudjet-soliq siyosati: Monografiya*. T.: Akadennashr, 2011. B. 207.

³⁸ Вилкова Е.С. *Налоговое планирование*. М.: Юрайт, 2011. С. 38 (639).

- imkoniyatlarni tahlil qilish va kelgusida qulay shart-sharoitlardan foydalanish;

- tashqi muhitdagi o'zgarishlarga korporativ tuzilmani tayyorlab borish;

- soliqlarni rejalashtirish jarayoni ishtirokchilarini kelgusidagi ish faoliyatida o'z qarorlarini amalga oshirishga rag'batlantirish, o'z kasbiy tayyorgarliklarini oshirish uchun shart-sharoit yaratish;

- xo'jalik subyektida turli xil resurslarni yuqori darajada to'g'ri taqsimlanishi va ulardan samarali foydalanilishini ta'minlash;

- korxonaning moliyaviy barqarorligi va ahamiyatini oshirish.

B.Toshmurodovning korxonada soliqni rejalashtirishdan quyidagi maqsadlar ko'zlanadi³⁹:

- soliqlarni eng minimal darajada to'lashga harakat qilish (soliq qonunchiligi doirasida);

- soliq to'lashning optimal holatini tanlash. Masalan, soddalashtirilgan tizimda yoki aksincha, umumiy tartibda soliq to'lashni tanlash; soliq imtiyozlaridan foydalanishdan voz kechish (ayrim hollarda bu korxonaga uchun qulay bo'lmasligi mumkin); soliqqa tortish tizimining qulayligiga qarab tadbirkorlik bilan shug'ullanuvchi jismoniy shaxs sifatida ro'yxatdan o'tish yoki yuridik shaxs sifatida faoliyat yuritish qulay bo'lishi mumkin;

- soliq to'lovlari muddatlarini o'z manfaatidan kelib chiqib taqsimlash. Bunda soliqlar qonuniy belgilangan muddatlarda to'lanmay, jarima va penyalar to'lash korxonaga uchun afzalroq, deb qaralishi mumkin.

M.Q.Adilov tomonidan ta'kidlanishicha, soliqlarni rejalashtirish korxonaning moliyaviy boshqaruvida muhim o'rin tutadi va quyidagilarga imkoniyat yaratadi⁴⁰:

- uzoq va yaqin muddatlardagi soliq to'lovlarini bashorat qilish;

- uzoq va yaqin muddatlardagi soliq to'lovlarini to'lash uchun pul oqimlarini yo'naltirishni bashorat qilish;

- korxonaga pul mablag'larini operativ boshqarish;

³⁹ Toshmurodova B. Soliq nazorati. T.: Iqtisod-moliya, 2007. B. 71.

⁴⁰ Adilov M.Q. Tadbirkorlik faoliyatida soliqlarni rejalashtirish. T.: Norma, 2012. B. 48 (420).

- soliq to'lovchi majburiyatlarini o'z vaqtida bajarmaganligi uchun soliq oqibatlaridan qochish.

Soliq majburiyatlarining o'rnatilgan tartibda bajarilishini ta'minlash maqsadida vaqt omilini va pul mablag'lari oqimini to'g'ri rejalashtirish davlat byudjeti oldidagi majburiyatlarning o'z vaqtida bajarilishiga xizmat qilishini alohida qayd etib o'tishimiz zarur.

Soliqlarni rejalashtirishning mavjud emasligi xo'jalik subyektining quyidagi holatlariga sabab bo'ladi⁴¹:

- qulay sharoitga qaramasdan biznesni rivojlantirish imkoniyatlaridan to'liq foydalanmaslik;

- bozordagi boshqa ishtirokchilar (raqobatchilar) bilan solishtirganda zaif pozitsiyaga ega bo'lish;

- o'z faoliyatini rivojlantirishda lozim darajadagi tizimlilikni ta'minlay olmaslik;

- strategik rivojlanishda jiddiy xatolarga yo'l qo'yish mumkinligi.

Shuningdek, soliqlarni rejalashtirishning yo'lga qo'yilmaganligi oqibatida soliq majburiyatlarining o'z vaqtida bajarilmasligi natijasida qo'shimcha moliyaviy majburiyatlarning yuzaga kelishi mumkinligini ham nazardan qochirmasligimiz kerak.

Yuqorida ta'kidlaganimizdek, soliqlarni rejalashtirish qonunchilik doirasida tashkil etiladi va amal qiladi. Bu o'z-o'zidan har bir soliq turini rejalashtirish yuzasidan qabul qilinayotgan moliyaviy qaror soliq qonunchiligi buzilishiga sabab bo'lmasligi uchun soliq to'lovchidan qonunchilik bo'yicha yuqori darajadagi xabardorlik talab etiladi.

Soliqlarni rejalashtirishda e'tibor qaratiladigan jihatlar sifatida quyidagilarni ta'kidlashimiz lozim bo'ladi:

- davlatning byudjet-soliq siyosati hamda investitsiya siyosatining asosiy yo'nalishlarini hisobga olish;

- hisob siyosatini yuritishda va shartnomaviy munosabatlarda soliqlarning ta'sirini hisobga olish;

- davlat tomonidan taqdim etilgan barcha imtiyozlardan to'g'ri va to'liq foydalanish;

⁴¹ Вилкова Е.С. Налоговое планирование. М.: Юрайт, 2011. С. 37-38 (639).

- soliqlarni to'lash bo'yicha majburiyatlarni kechiktirish imkoniyatlarini baholash va ulardan to'liq foydalanish.

Korporativ tuzilmalarda soliqlarni rejalashtirishni tashkil etish orqali soliqlar va majburiy ajratmalar bo'yicha to'lovlarni qonun doirasida kamaytirish imkoniyatlarini quyidagilarda ko'rishimiz mumkin:

- soliqqa tortish obyekti bo'yicha;
- soliqqa tortish subyekti bo'yicha;
- soliqlarni hisoblash va to'lash usuli bo'yicha;
- soliqqa tortish tartiblari bo'yicha;
- faoliyatni soliq yuki past davlatlarda yoki hududlarda tashkil etish orqali soliqlarni butunlay kamaytirish.

Soliqlarni rejalashtirishda e'tibor qaratiladigan jihatlarni yaxshi bilish soliqlarni kamaytirishning barcha usullarini muvaffaqiyatli qo'llash imkoniyatini yuzaga chiqaradi. Buning uchun esa qonunchilikni mukammal darajada bilish talab etiladi. Shundan kelib chiqqan holda soliqlarni rejalashtirish elementlari sifatida quyidagilarga e'tibor qaratishimiz lozim:

1. Buxgalteriya hisobi va soliq hisobining o'zaro muvofiqligi. Bunda buxgalteriya hisobi va soliq hisobi normativ-huquqiy hujjatlar asosida bir-biriga qat'iy ravishda o'zaro muvofiq kelishi kerak. Buxgalteriya hisobi ma'lumotlari soliqqa tortish jarayonida asos bo'lib xizmat qiladi. Lekin buxgalteriya hisobi va hisoboti korxonaning haqiqiy moliyaviy holatini aks ettira olmaydi. Buxgalteriya va soliq hisoblarining o'zaro muvofiq kelmasligi investitsion qarorlar qabul qilishda, soliqlarni rejalashtirishda keskinlikni yuzaga keltirishi mumkin. Shundan kelib chiqqan holda hisob siyosati orqali buxgalteriya hisobi va soliq hisobining o'zaro mos kelishini ta'minlash lozim. Buning uchun esa pul oqimlari harakatini to'g'ri tashkil etish maqsadga muvofiq sanaladi.

2. Soliq imtiyozlari va ularning shartnomalar tuzish jarayoniga ta'sirini baholash. Bunga misol sifatida yagona soliq to'lovi to'lovchilar uchun qo'shilgan qiymat solig'i to'lashning ixtiyoriyligi qo'llanilishidan

kelib chiqqan holda mikrofirma yoki kichik korxonada tomonidan QQS to'lovchisi hisoblanganda erishiladigan natija va QQSdan ozod bo'lgan holatda erishiladigan natija o'zaro solishtiriladi.

3. Ichki soliq nazoratini rejalashtirish. Soliq hisob-kitoblaridagi va moliyaviy hisobotlardagi xato va kamchiliklarning soliq tekshiruvlari o'tkazilgunga qadar ichki soliq nazorati orqali aniqlanishi qo'llanilishi mumkin bo'lgan moliyaviy jarimalarning oldini oladi.

4. Soliqlar va majburiy ajratmalar bo'yicha kalendarni ishlab chiqish va amaliyotga joriy etish. Bunda soliq va moliyaviy hisobotlar taqdim etishning oxirgi muddatlari, soliqlarni to'lashning oxirgi muddatlari, soliqlar bo'yicha to'lovlar miqdori hamda ularni qoplash uchun talab qilinadigan to'lov manbalariga ham e'tibor qaratish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

5. Imtiyozli soliq rejimlari qo'llaniladigan soha va hududlarni o'rganish. Bunda asosiy e'tibor soliq imtiyozlari taqdim etilgan sohalarga hamda alohida hududlar (masalan, erkin iqtisodiy zonalar)ga qaratiladi.

Soliqlarni rejalashtirishni tashkil etishda yuqorida tanishib chiqqan soliqlarni rejalashtirish elementlarining har birini e'tiborga olgan holda bir-biri bilan o'zaro bog'liq soliq majburiyatlarining pasayishini kafolatlaydigan bir nechta bosqichni e'tiborga olish lozim bo'ladi.

B.Sanakulova o'zining tadqiqot ishlarida soliqlarni rejalashtirishni ikki bosqichga, ya'ni davlat ro'yxatidan o'tguniga qadar hamda joriy soliqlarni rejalashtirishga ajratgan⁴².

Fikrimizcha, korporativ tuzilmalar yangi tashkil etilayotgan bo'lsa soliqlarni strategik rejalashtirishga alohida e'tibor qaratish lozim. Soliqlarni strategik rejalashtirishda faoliyat sohasini, faoliyat tashkil qilinadigan hududni, tashkiliy-huquqiy shaklni belgilab olish bevosita soliqlarni hisobga olgan holda amalga oshiriladi. Qonunchilik asosida doimiy tusga ega bo'lgan, shuningdek uzoq muddatli imtiyozlardan foydalanish masalasiga ham mazkur rejalashtirish bosqichida e'tibor qaratiladi. Bu jarayon odatda "korxonani ro'yxatdan o'tkazishga qadar

⁴² Sanakulova B.R. Kichik tadbirkorlik subyektlarini soliqqa tortish mexanizmini takomillashtirish orqali iqtisodiy o'sishni ta'minlash. *Iqtisod fanl. dokt. ilmiy dar. olish uchun doktorlik dissertatsiyasi avtoreferati*. T., 2016. B. 23.


soliqlarni rejalashtirish”⁴³ deb ham ataladi. Shuningdek, soliqqa tortish tartibini tanlash (umumbelgilangan yoki soddalashtirilgan tartibda) ham soliqlarni strategik rejalashtirish asnosida belgilanishi mumkin. Lekin soliq qonunchiligidagi o‘zgarishlardan kelib chiqqan holda korporativ tuzilma joriy tartibda ham soliqqa tortish tartibini o‘zgartirish huquqidan belgilangan tartibda foydalanishi mumkin.

Korporativ tuzilma davlat ro‘yxatidan o‘tkazilgandan so‘ng o‘z faoliyatini boshlagach, soliqlarni joriy rejalashtirishga talab yuzaga keladi va u odatda korporativ moliyani boshqarishning butun tizimini qamrab oladi. Soliqlarni joriy rejalashtirish birinchi navbatda korporativ moliyaviy munosabatlar natijasida yuzaga keladigan soliq majburiyatlarini o‘z vaqtida bajarishga qaratiladi, shuningdek barcha vaqtinchalik xarakterga ega soliq imtiyozlaridan foydalanish masalalari e‘tiborga olingan holda qarorlar qabul qilinadi. Bundan tashqari tanlangan soliqqa tortish tartibidan kelib chiqqan holda shartnomaviy munosabatlar tizimi (ijara, pudrat, savdo-xarid, tekin xizmat ko‘rsatish va boshqalar) ishlab chiqiladi va unda bevosita soliqlar bo‘yicha oqibatlar hisobga olinishi talab etiladi.

Soliqlarni joriy rejalashtirish soliqlarni hisoblash va to‘lashning to‘g‘riligi bo‘yicha kam xarajatli soliq hisobi va nazoratini tashkil etish bilan bevosita bog‘liq. Xatolarga yo‘l qo‘yish bilan bog‘liq risklarni kamaytirishning asosiy usuli ichki soliq nazorati mexanizmidan foydalanishdir. Bu borada keyingi paragraflarda alohida to‘xtalib o‘tamiz.

Soliqlarni rejalashtirishning navbatdagi bosqichi sifatida operativ rejalashtirishni amalga oshirish maqsadga muvofiq, deb o‘ylaymiz. Bunda asosiy e‘tibor soliq to‘lovlari rejasi va soliq kalendarlarini vaqt va miqdor omillarini hisobga olgan holda ishlab chiqish, shuningdek tuzilgan shartnomalar bo‘yicha joriy moliyaviy-xo‘jalik operatsiyalarini soliq oqibatlari nuqtai nazaridan tahlil qilish va shartnomalar optimal variantlarini aniqlashga qaratiladi (4.2-rasm).

⁴³ Adilov M.Q. Tadbirkorlik faoliyatida soliqlarni rejalashtirish. T.: Norma, 2012. B. 123 (420).



4.2-rasm. Soliqlarni rejalashtirish bosqichlari va yo'nalishlari

Faoliyatini davom ettirib kelayotgan korporativ tuzilmalarda faoliyatni diversifikatsiyalash yoki kengaytirish bilan bog'liq holatlarda soliqlarni qisman strategik rejalashtirish amal qilishi asnosida asosan joriy rejalashtirishga ustuvor darajada e'tibor qaratilishi lozimligini alohida qayd etib o'tish zarur. Bunda asosiy jihatlar sifatida soliq davri asosida soliq qonunchiligi monitoringini o'tkazib borish, faoliyatni diversifikatsiyalash nuqtai nazaridan boshqa faoliyatlar bo'yicha ham soliqqa tortish tartiblarini kuzatib borish, ichki va tashqi o'zgarishlar asosida soliqlarni rejalashtirish kabilarga e'tibor qaratiladi. Bundan tashqari xususiy tartibda soliq bazalari tahlili, hisob siyosatini tahlil qilib borish, soliq hisobini tashkil etish va yuritish, soliq majburiyatlari ijrosini aniq reja asosida nazorat qilib borish nazarda tutiladi (4.1-jadval).

Soliqlarni joriy rejalashtirishning tashkiliy jihatlarini va samaradorligini baholash mezonlari

№	Tashkiliy jihatlar	E'tibor qaratiladigan masalalar
1	Umumiy tartibda tashkiliy jihatlar	Hisobot davri asosida soliq qonunchiligi monitoringi Boshqa faoliyat turlarini, operatsiyalarni kuzatib borish Kutilayotgan ichki o'zgarishlar asosida soliqlarni rejalashtirish Tashqi muhitda kutilayotgan o'zgarishlar asosida soliqlarni rejalashtirish
2	Xususiy tartibda tashkiliy jihatlar	Har bir soliq turi bo'yicha soliq bazalarini tahlil qilib borish Soliq qonunchiligi asosida hisob siyosatini ishlab chiqish Alohida tartibda soliq hisobini tashkil etish va yuritish Soliq majburiyatlarini ijrosini rejali tartibda nazorat qilib borish
3	Samarali tuzilmalar yaratish va ularning ish faolligini oshirish	Tezkor va aniq axborotlar bilan ta'minlash Aniq tahlil qilish imkonini beruvchi dasturiy vositalar bilan ta'minlash Soliq organlari bilan doimiy aloqani ta'minlovchi ishchi muhit yaratish Natijaga yo'naltirilgan rag'batlantirish tizimini yo'lga qo'yish
4	Baholash mezonlarini belgilash	Soliqlarni rejalashtirish orqali tejalgan mablag'lar miqdorini aniqlash Soliq risklari yuzaga kelishi natijasidagi zararlarni baholash Soliqlarni rejalashtirishni tashkil etish bilan bog'liq xarajatlarni belgilash Soliqlarni rejalashtirish natijasida olingan qo'shimcha foyda yoki qilingan qo'shimcha xarajat natijasidagi zarar

Soliqlarni rejalashtirishni tashkil etishda tashkil etilayotgan amaliyotning samaradorligiga ham e'tibor qaratarebiz talab etiladi. Chunki soliqlarni rejalashtirish amaliyotini yo'lga qo'yish korporativ tuzilmadan ma'lum miqdordagi xarajatlarni talab qilishi bizga ma'lum. Shu boisdan quyida soliqlarni rejalashtirish samaradorligini oshirish va samaradorligini baholashning tashkiliy jihatlarini keltirib o'tamiz. Bunda soliqlarni rejalashtirishning samaradorligini baholashda yo'lga qo'yilgan amaliyot natijasida birinchi navbatda erishilgan ijobiy natijaga e'tibor qaratarebiz maqsadga muvofiq. Buning uchun esa soliq majburiyatlarini kamaytirish yoki kechiktirish natijasida erishilgan

natijadan soliq risklari yuzaga kelishi natijasidagi yo‘qotishlar va soliqlarni rejalashtirishning tashkiliy xarajatlarini chegirish orqali natijani aniqlash talab etiladi (3.1-jadvalga qarang).

Yuqorida soliqlarni rejalashtirish orqali korporativ tuzilmalarda soliqlarni qonun doirasida kamaytirish elementlari, yo‘nalishlari, soliqlarni rejalashtirish bosqichlari, umuman soliqlarning ahamiyatli jihatlari xususida to‘xtaldik. Soliqlarni rejalashtirishning amal qilishi ikkinchi tomondan mantiqan davlat byudjeti daromadlarining kamayishiga ham sabab bo‘ladi. Shu boisdan korporativ miqyosda soliqlarni rejalashtirishni chegaralash maqsadida davlat tomonidan ham qator chora-tadbirlar ko‘rilishini alohida ta’kidlashimiz lozim. Ko‘pchilik davlatlarning huquqni qo‘llash amaliyotida soliqlarni to‘lashdan bo‘yin tovlashning oldini olishga, shuningdek soliqlarni rejalashtirishni qo‘llash sohasini jiddiy ravishda chegaralash imkonini beradigan maxsus usullar shakllangan. Qator mamlakatlarda soliqlarni to‘lashdan qochishning oldini olish uchun, shuningdek soliqlarni rejalashtirishning qo‘llanish doirasini chegaralash imkonini beruvchi maxsus metodlar ishlab chiqilgan. AQSh, Buyuk Britaniya va Yevropa Ittifoqi mamlakatlarida antitransfert, antioffshor va antidemping qonunchiligi nihoyatda qattiq amal qiladi. Shuning uchun korporativ tuzilma tomonidan soliqlarni kamaytirish faqat amaldagi chegaralangan tizim doirasida amalga oshiriladi.

Korporativ tuzilmalarda soliq munosabatlari qonunchilik doirasida tashkil etilishidan kelib chiqqan holda soliqlarni rejalashtirish doirasi mavjudligi xususida yuqorida to‘xtalib o‘tdik. Hozirgi vaqtda davlat tomonidan byudjet daromadlari barqarorligini ta’minlash maqsadida soliq to‘lovchilarning soliqlarni qonuniy kamaytirish imkoniyatlarini pasaytirishga qaratilgan chora-tadbirlar sifatida quyidagilarini ko‘rsatishimiz mumkin:

- qonunchilikdagi bo‘shliqlarni to‘ldirish;
- qonunchilikdagi qarama-qarshiliklarni bartaraf etish;
- ma’muriy ta’sir etish chora-tadbirlarini qo‘llash;
- maxsus sud doktrinalari.

Davlat qonunchilik hujjatlaridagi doimiy o'zgarishlar sharoitida qonunchilikdagi bo'shliqlarni doimiy to'ldirib borish orqali soliq qonunchiligini takomillashtirishga hamda soliqlarni pasaytirishga imkon tug'diruvchi holatlarni bartaraf etish bo'yicha soliq qonunchiligiga tuzatishlar kiritishga harakat qiladi. Aynan shuning uchun uzoq muddat davomida soliqlarni rejalashtirish amaliyotini soliq qonunchiligidagi bo'shliqlardan foydalangan holda amalga oshirish imkoniyatining chegaralanganligini ta'kidlashimiz lozim.

Mamlakatimiz soliq qonunchiligiga soliq prezumpsiyasi tamoyili kiritilishi natijasida soliq to'lovchilar huquqi yuqori baholanishi joriy etilganligi sababli qonun chiqaruvchi organ tomonidan qonunchilikdagi qarama-qarshiliklarni bartaraf etishga alohida e'tibor qaratiladi. Bu amaliyot ham o'z navbatida soliqlarni rejalashtirish imkoniyatlarining pasayishiga xizmat qiladi.


Soliqlarni rejalashtirishni chegaralashning ma'muriy ta'sir etish chora-tadbirlarida soliq to'lovchining soliqlarni joriy rejalashtirishi chegaralanadi. Soliq organlari soliqlarni o'z vaqtida va to'liq to'lashni, zarur hujjatlarni taqdim etishni, tushuntirishlarni talab qilish huquqiga ega. Ular tekshiruvlar o'tkazish va tegishli sanksiyalarni qo'llash to'g'risida qaror qabul qilishi mumkin. Misol sifatida yagona soliq to'lovi bo'yicha soliq hisob-kitobini soliqlar va majburiy ajratmalar to'g'risidagi qonunchilikda o'rnatilgan tartibda taqdim etmaslik holatida subyektning javobgarlikka tortilishi bo'yicha soliq organlarining huquqini keltirish mumkin.

Maxsus sud doktrinalari soliqlardan qochish yoki noqonuniy aylanib o'tish maqsadidagi faoliyat natijalarining qonunchilik talablariga muvofiq emasligidan kelib chiqqan holda sud tomonidan qo'llaniladi. Umuman, soliqlarni qonun doirasida kamaytirishning oldini olish maqsadida davlat tomonidan qo'llaniladigan chora-tadbirlar soliq qonunchiligining takomillashuviga va o'z navbatida byudjet daromadlarining o'z vaqtida shakllanishiga xizmat qiladi.

Umuman, korporativ tuzilmalar tomonidan soliq munosabatlarini subyekt uchun manfaatli tarzda tashkil etish jarayonida, soliqlarni rejalashtirish amaliyotida korporativ miqyosda soliqlarni rejalashtirishga

qarama-qarshi tarzda davlat tomonidan qo‘llaniladigan chora-tadbirlarni ham inobatga olish shart, deb hisoblaymiz.

Korporativ miqyosda soliqlarni rejalashtirishni samarali tashkil etishda mazkur jarayonni zarur axborot bilan ta‘minlash ham muhim ahamiyatga ega. Bu jarayonda soliqlarni rejalashtirish jarayoni ishtirokchilari haqida to‘xtaladigan bo‘lsak, ularni ikki guruhga ajratish maqsadga muvofiq (4.3-rasm).



4.3-rasm. **Soliqlarni rejalashtirish jarayoni ishtirokchilari**

- *birinchidan*, asosiy ishtirokchilar: buxgalteriya, moliya, ichki audit xizmati, taftish komissiyasi, qimmatli qog‘ozlar va investitsiyalar bo‘yicha bo‘lim, yuridik xizmat, reja bo‘limlari va tashkiliy tuzilmadan kelib chiqqan holda boshqa bo‘limlar;

- *ikkinchidan*, yordamchi ishtirokchilar: ishlab chiqarish, ta‘minot savdo, marketing va boshqa bo‘limlar.

Bunda soliqlarni rejalashtirish jarayonining bevosita ishtirokchisi sifatida u xoh asosiy ishtirokchi bo‘lsin, xoh yordamchi ishtirokchi o‘zining muhim o‘rniga ega bo‘lib, ko‘rsatib o‘tilayotgan biror bir bo‘limning ishtirok etmasligi korporativ tuzilma uchun soliq borasida

jiddiy moliyaviy yo'qotishlarga olib kelishi mumkin. Shu o'rinda soliqlarni rejalashtirish amaliyoti ishtirokchilari bevosita tashkiliy tuzilmadan kelib chiqqan holda tashkil etilishini ham ta'kidlashimiz lozim.

Yuqorida ta'kidlab o'tganimizdek, soliqlarni rejalashtirish jarayonida turli xil modellardan ham foydalaniladi. Bunday modellardan biri imitatsion modellardir. Imitatsion modellarning mohiyati soliq to'lovchilarning soliqqa tortish tartiblaridan afzalini tanlagan holda faoliyat yuritishlarida namoyon bo'ladi. Xususan, faoliyat sohasi va belgilangan mezonlarga javob berganda korxonaning umumbelgilangan tartibda barcha soliqlarni to'lashdan soddalashtirilgan tartibda soliq to'lashga o'tishlarida aniq hisob-kitoblarga asoslanishi yoki soddalashtirilgan tartibda soliq to'lashga o'tish uchun faoliyatni qayta tashkil etish bo'yicha ishlab chiqilgan modelni anglatadi.

Faraz qilaylik, korxonalar soliqlar bo'yicha xarajatlar yuqori bo'lganligi uchun o'z biznes faoliyatini qonunchilikda belgilangan tartibda bo'linish orqali qayta tashkil etgan. Boshqaruv shakli bo'yicha tarkibiy bo'linmalarni mustaqil yuridik shaxs sifatida ajratish hisobiga xarajatlarni pasaytirish mumkin. Ya'ni bunda soliqqa tortishning soddalashtirilgan tizimini qo'llash hisobiga korxonalar rentabelligi oshishiga erishish mumkin. Bu amaliyotga bevosita soliq majburiyatlarini kamaytirish maqsadida birlashish va qo'shib olish amaliyotlariga teskari hisoblangan ajralib chiqish amaliyoti sifatida qaraladi.

Bunda tashkilot bo'linish jarayonida o'zining tarkibini kichik korxonalar sifatida tashkil etish orqali va soliqqa tortish jarayonida soddalashtirilgan tartibda soliqqa tortish tizimiga o'tishi uchun, avvalambor, faoliyat sohasi va soddalashtirilgan tartibda soliqqa tortish rejimiga o'tish mezoni bo'yicha talablarga javob berishi lozim.

Mamlakatimizda soddalashtirilgan tartibda soliqqa tortish tizimi ayrim faoliyat sohaslariga, xususan, O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 350-moddasiga asosan aksiz solig'i to'lanadigan mahsulot ishlab chiqaruvchi va yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliq

solinadigan foydali qazilmalarni qazib olishni amalga oshiruvchi mikrofirmalar va kichik korxonalar, mahsulot taqsimotiga oid bitimlar ishtirokchisi bo'lgan mikrofirmalar va kichik korxonalar ta'biq etilmaydi.

Yagona soliq to'loviga o'tish mumkin bo'lgan mikrofirmalar va kichik korxonalar jumlasiga xodimlarining soni bo'yicha qonun hujjatlarida belgilangan mezonga mos keladigan yuridik shaxslar kiradi. Bunda:

- xodimlarning soni hisobot yili uchun xodimlarning o'rtacha yillik sonidan kelib chiqqan holda aniqlanadi;

- xodimlarning o'rtacha yillik sonini aniqlashda o'rindoshlik, pudrat shartnomalari va boshqa fuqarolik-huquqiy tusdagi shartnomalar bo'yicha ishga qabul qilingan xodimlarning, shuningdek unitar (sho'ba) korxonalar, vakolatxonalar va filiallarda ishlayotganlarning soni ham hisobga olinadi;

- yuridik shaxslarni mikrofirmalar va kichik korxonalar toifasiga kiritishda yuridik shaxsning asosiy faoliyat (ixtisosligi) turiga to'g'ri keladigan xodimlar sonining mezoni qabul qilinadi.

Ayni vaqtda amaliyotda ko'plab tadbirkorlik subyektlarida qonunchilikda belgilangan xodimlar soni bo'yicha chegara doirasida faoliyat yuritishni ta'minlash bir muncha murakkab jarayon bo'lib hisoblanadi. Natijada bunday xo'jalik subyektlari o'z biznes faoliyatini bo'lishga majbur bo'ladi. Shunda har bir bo'linma maxsus soliq rejimi mezonlari bo'yicha soddalashtirilgan soliqqa tortish rejimiga o'tish uchun o'rnatilgan mezonlarga muvofiq ravishda faoliyat yuritishi ta'minlanadi.

Ko'pchilik holatlarda bunday bo'linish va soliqqa tortishning soddalashtirilgan tizimiga o'tish iqtisodiy jihatdan korxonalar uchun foydali. Lekin, korxonalar rahbariyatini amaldagi tashkiliy tuzilmani bo'lishning real yo'llari, soddalashtirilgan soliqqa tortish rejimining salbiy oqibatlarini kabi muammolar bezovta qiladi. Shuning uchun qaror qabul qilish jarayonida quyidagilarni hisobga olish zarur:

- korporativ tuzilma biznes strukturasi yuridik jihatdan asosli ekanligini, ya'ni faoliyat sohasining va ishchi xodimlar sonining soliqqa tortishning soddalashtirilgan tizimiga o'tish uchun qonunchilikda o'rnatilgan me'yorlarga mos kelishi aniqlanadi;

- firma ichidagi va firmalar o'rtasidagi aloqalarning huquqiy yo'nalishlarini o'rnatish. Bunda tashkil etilayotgan kichik korxonalar o'rtasida o'zaro aloqalar sxemalarini yaratish biznes jarayonini boshqarishni va soliqlarni pasaytirishning qonuniy yo'llarini joriy etishdagi muammolarni bir vaqtning o'zida hal qilish uchun qabul qilinishi zarur;

- soliqqa tortishning soddalashtirilgan tizimini qo'llashdagi risklarni, shu jumladan, qonunchilikdagi shartli noaniqliklar bo'yicha risklarni baholash.

Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda biznes faoliyatini bo'lish va soliqqa tortishning soddalashtirilgan tizimiga o'tishni boshlash uchun yuqorida ko'rsatilgan muammolarni huquqiy jihatdan o'rganish talab qilinadi hamda bu jarayon soliq risklarini pasaytirish maqsadida chuqurroq ko'rib chiqish uchun yetarli hisoblanadi.

Aytaylik, birinchi navbatda ko'rsatilgan barcha savollar taxminan hal qilingan. Bunda korxonani qayta tashkil etish natijasida iqtisodiy samara bo'yicha savollar paydo bo'ladi. Bunda erishilgan natija butun faoliyat bo'yicha soliq yukining qay darajada pasayganligida namoyon bo'ladi. Shuning uchun korxonaga to'laydigan soliq summalari hamda yangi tarkibiy bo'linmalar to'laydigan soliq summalari taqqoslanadi.

Bunda soliqlarning umumiy pasayish darajasi (birinchi navbatda yagona ijtimoiy to'lov va foyda solig'i) baholanishi kerak. Shuningdek, iqtisodiy tahlil jarayonida quyidagilarga ham e'tibor qaratish kerak:

- daromad bo'yicha soliqqa tortishning soddalashtirilgan tizimiga o'tish varianti va daromaddan xarajatlarni chegirish orqali soliq to'lash tizimini solishtirish;

- soliq to'lovchi soliq davri davomida to'lanadigan pensiya fondiga majburiy sug'urta badallarini ham hisoblash;

- iqtisodiy subyekt rentabelligi tahlilini o'tkazish;

- hisob-kitoblarda soliqlarni kamaytirishning boshqa imkoniyatlarini ko'rib chiqish (masalan, jismoniy shaxslar daromadiga soliqni kamaytirishning dividend sxemasini qabul qilish hisobiga).

Soliqlarni rejalashtirish jarayonida korxonaning o'z biznes maqsadidan kelib chiqqan holda tashkiliy strukturasi belgilash soliqqa tortish tartibini belgilashda ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Umuman amal qilayotgan strukturani qayta tashkil etish yoki bo'lish jarayonida imitatsion modeldan foydalanish quyidagi maqsadlarda tashkil etiladi:

- soliqqa tortish ko'rsatkichlari va parametrlarini o'zgartirish;
- kompaniyaning turli tarkibiy tuzilmalardagi rentabellikni oshirish;
- yangi tashkil etilayotgan tarkibiy bo'linmalar o'rtasidagi faoliyatning tashkiliy sxemalari yaratish natijasida narx orqali ham soliqlarni kamaytirish.

Korporativ tuzilmalarda soliqlarni rejalashtirishning amaldagi holati tahlil qilinganda quyidagi ikkita holatga guvoh bo'ldik:

4.2-jadval

Olmaliq KMK AJ moliyaviy ko'rsatkichlari va ularning makroiqtisodiy ko'rsatkichlardagi ulushi tahlili⁴⁴

Ko'rsatkichlar	O'lchov birligi	2015 yil	2016 yil	Farq
Yalpi ichki mahsulot hajmi	Mrld so'm	171 369	199 325,1	27 956,1
Davlat byudjeti daromadlari ijrosi	Mrld so'm	36 493,3	41 043,4	4 550,1
AJ mahsulot sotishdan sof tushumi	Mrld so'm	2 479,73	2 979,51	499,78
AJ to'lagan jami soliqlar va majburiy ajratmalar	Mrld so'm	994,23	1 202,44	208,21
AJ to'lagan sof soliqlar	Mrld so'm	721,75	894,24	172,49
AJ mahsulot sotishdan sof tushumining YalMdagi ulushi	Foizda	1,45	1,49	0,04
AJ to'lagan jami soliqlar va majburiy ajratmalar hajmining YalMdagi ulushi	Foizda	0,58	0,60	0,02
AJ to'lagan sof soliqlarning davlat byudjeti daromadlaridagi ulushi	Foizda	1,98	2,18	0,20

⁴⁴ Davlat statistika qo'mitasi hamda Olmaliq KMK AJ hisobotlari asosida tayyorlandi.

Birinchiidan, davlat ishtirokidagi korporativ tuzilmalar soliq majburiyatlarini o'z vaqtida to'liq bajarishga intiladi va ularda soliqlarni rejalashtirish orqali majburiyatlarni kamaytirishga jiddiy e'tibor qaratilmaydi. Bunday holatga Olmaliq kon-metallurgiya kombinati, O'zdonmahsulot, O'zqurilishmateriallari, O'zkiyosanoat, O'zbekenergo, O'zbekko'mir, Toshkent don mahsulotlari, Dunyo-M, Don xalq rizqi, Do'stlik don mahsulotlari, Eyvalekmaxsustemirbeton aksiyadorlik jamiyatlari faoliyati o'rganilganda yaqqol guvoh bo'ldik. Olmaliq KMK AJ moliyaviy ko'rsatkichlari va makroiqtisodiy ko'rsatkichlardagi ulushi buni ko'rsatib turibdi (4.2-jadval).

Ikkinchiidan, xususiy korporativ tuzilmalar, shuningdek chet el kapitali ishtirokidagi aksiyadorlik jamiyalarida soliqlarni rejalashtirish birinchi navbatda soliq majburiyatlarini minimallashtirish, to'lovlarni optimallashtirishga qaratilganligini ko'rish mumkin. Bunday holatga "Xorazm shakar" qo'shma korxonasi, "Deutsche Kabel AG Taschkent" qo'shma korxonasi, "Wide tent system" xorijiy korxonasi kabi aksiyadorlik jamiyatlarida guvoh bo'ldik.

Nazorat savollari

1. Korporativ moliyani boshqarishda soliqlarni rejalashtirishning ahamiyatli jihatlari.
2. Soliqlarni prognoz qilish va soliqlarni rejalashtirish o'rtasidagi o'zaro farqli va umumiy jihatlari.
3. Soliqlarni rejalashtirish bosqichlari.
4. Soliqlarni strategik rejalashtirishda e'tibor qaratiladigan jihatlari.
5. Soliqlarni joriy rejalashtirishda soliq kalendari.
6. Soliqlarni operativ rejalashtirish va soliq majburiyatlarini bajarish o'rtasidagi bog'liqlik.
7. Soliqlarni joriy rejalashtirish samaradorligini baholash mezonlari.

5-BOB. KORPORATIV TUZILMALARDA SOLIQ RISKLARINI BOSHQARISH METODOLOGIYASI

Bizga ma'lumki, boshqa insoniy faoliyatlar singari xususan iqtisodiy faoliyat ham xavf-xatarlardan holi emas. Bunda iqtisodiy faoliyatdan ko'zlangan maqsadlarga erishishga turli xil risklar bevosita ta'sir ko'rsatadi. Korporativ tuzilmalarning moliyaviy-xo'jalik faoliyati ko'p sonli moliyaviy risklar bilan bog'langan. Soliqlarning amal qilishi va korporativ tuzilmalarning soliq munosabatlariga kirishishi ham o'z navbatida moliyaviy risklarning, xususan soliq risklarining yuzaga kelishiga sabab bo'ladi. Soliq risklarining mohiyati, ularning yuzaga kelish sabablari haqida soliq to'lovchilarning yetarlicha tushunchaga ega emasliklari ko'p holatlarda ularning jiddiy moliyaviy yo'qotishlariga sabab bo'ladi.

Hozirgi vaqtga qadar iqtisodiyot nazariyasida moliyaviy risklar nazariyasining yetarlicha tizimlashmaganligi, tushunchaning integratsiyalash-maganligi va aniq bir tasnifga ega emasligi muammoligicha qolmoqda.

Bizga ma'lumki, risk subyektning o'z maqsadlariga erishishining noaniqligi bilan bog'langan bo'lib, amal qilishi salbiy omil sifatida gavdalanadi. Soliqlarni rejalashtirish jarayonidagi riskka kompaniyaning soliqlarni rejalashtirish natijasida qo'yilgan maqsadga erishishining noaniqligi sifatida qarashimiz mumkin.

Soliq risklari amalda korporativ moliyaviy boshqaruv tizimida jiddiy e'tibor talab qiladi va yuzaga keladi. Shunday ekan, soliq risklari har qanday moliyaviy operatsiyani amalga oshirishda hisobga olinishi lozim. Bizning nuqtai nazarimizcha, moliyaviy boshqaruv doirasida xo'jalik subyektlarini soliqqa tortish borasida faoliyat sohasi bo'yicha qabul qilinadigan qarorlar sifatini baholash nafaqat moliyaviy natijalarni va moliyaviy holatni barqarorlashtirish maqsadida pul oqimlarini maksimallashtirishga hamda tashkilotning bozor qiymati oshganligi

bilan shuningdek, faoliyat yuritish davomida risklarni kamaytirishga erishilganligida ham namoyon bo'lishi kerak.

Soliq risklariga soliqlarni rejalashtirishni yoki boshqa soliq sxemalarini amaliyotda qo'llash natijasida paydo bo'ladigan turli xil moliyaviy yo'qotishlar ehtimoli sifatida qarash maqsadga muvofiqligi namoyon bo'ladi. Bu bo'yicha soliqlarni rejalashtirish masalalarini hal qilish jarayonida paydo bo'ladigan noaniqliklarni mavjud soliqqa tortish modelini optimallashtirish maqsadida qo'llash uchun ishlab chiqilgan soliq sxemalaridan ba'zilarining alohida dolzarblik kasb etishi moliyaviy risklar kamayishiga xizmat qiladi.

Soliq risklari bo'yicha tadqiqotlar o'rganilganda bu borada turli xil yondashuvlarga guvoh bo'ldik. D.N.Tixonov va L.G.Lipniklar o'z ilmiy ishlarida iqtisodiy tabiatni o'zgartuvchi ikki faktor – samaradorlik va risklar⁴⁵ alohida keltirilgan. Ta'kidlab o'tish kerakki, soliqlarni rejalashtirish jarayonida moliyaviy natija va pul oqimlari miqdorida soliq risklari yuzaga chiqishi tufayli salbiy holat yuzaga kelsa, bu holatni soliqlarni boshqarish borasida iqtisodiy samarasiz boshqaruv qarorlari qabul qilinganligi bilan izohlash mumkin.

Ba'zan soliq risklarini tashkil etuvchi tashqi jihatlar alohida olinib, soliq riski sifatida yangi soliq to'lovlarining amalga kiritilishi, to'lov shartlari va stavkalarining o'zgarishi, soliq imtiyozlarining bekor qilinishi va boshqa shu kabilar bilan bog'liq ravishda paydo bo'ladigan risklar tushuniladi⁴⁶. Lekin, shuni ham ta'kidlab o'tish kerakki, soliq risklarining paydo bo'lishi nafaqat tashqi, balki qator ichki omillarga ham bog'liq ravishda namoyon bo'lishi mumkin. Soliq xatolari sifatida shunday ichki omillarni ham hisobga olganda Soliq riski, - izohlaydi S.A.Filin, - soliq qonunchiligidagi noqulay o'zgarishlar bilan bog'liq yoki soliq to'lovlarini hisoblash vaqtida yo'l qo'yilgan xatolar bilan bog'liq moliyaviy yo'qotish sifatida baholanadi». ⁴⁷ Lekin, bizning

⁴⁵ Тихонов Д.Н., Липник Л.Г. Налоговое планирование и оптимизация налоговых рисков. М.: Алпина Бизнес Букс, 2004. С. 14-15.

⁴⁶ Козенкова Т.А. Налоговое планирование на предприятии. М.: АиН, 1999. С. 15.

⁴⁷ Филин С.А. Финансовый риск и его составляющие для обеспечения процесса оценки и эффективного управления финансовыми рисками при принятии финансовых управленческих решений // Финансы и кредит. М., 2002. №3. С. 21-31; №4. С. 9-23.

nuqtai nazarimizda, soliq risklari bo'yicha ichki omillarni faqatgina soliq xatolari bilan chegaralab qo'yish to'g'ri bo'lmaydi. Soliq riskiga birmuncha kengroq ta'rif V.N.Evstigneev tomonidan taklif etilgan bo'lib, konkret soliq to'lovchi uchun soliqqa tortish sohasida paydo bo'lishi mumkin bo'lgan noqulay oqibatlarini baholash⁴⁸ soliq riski sifatida aks ettiriladi, lekin bu mulohaza soliq sanksiyasi qo'llanilishi bilan bog'lanadi. Boshqa tomondan soliq risklarini aniqlashda soliq sanksiyalaridan tashqari moliyaviy yo'qotishlar ham bo'lishi mumkinligi haqida D.N.Tixonov va L.G.Lipniklar alohida to'xtalib, bunda soliq riski pul ekvivalentida aks etadigan soliqlarni to'lash va optimallashtirish jarayoni bilan bog'liq yo'qotish⁴⁹ sifatida tushuntiriladi. Shunga o'xshash nuqtai nazardan N.V.Bondarchuk mulohaza yuritib, soliq riskini amaldagi huquq me'yorlari to'g'risida noaniq axborotlar asosida joriy qarorlar qabul qilinishi bilan bog'laydi.

Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda **soliq riski tushunchasiga** soliq munosabatlarida qatnashuvchi subyektlarning o'z majburiyatlarini bajarish borasidagi faoliyati davomida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan va soliq to'lovchilar, shuningdek davlat byudjeti moliyaviy yo'qotishlariga sabab bo'luvchi xavf-xatar, deya ta'rif berish maqsadga muvofiq, deb o'ylaymiz.

Shu o'rinda alohida ta'kidlab o'tishimiz kerakki, soliq to'lovchilar tomonidan soliq risklariga atayin yo'l qo'yish soliq to'lovchilar uchun ijobiy natija bilan ham yakunlanishi mumkin. Masalan, soliqqa tortish shartlaridagi qonunchilikning yumshashi, xususan soliq huquqbuzarliklariga qarshi qo'llaniladigan chora-tadbirlar ta'sir doirasining yengillashuvi soliq to'lovchi zimmasidagi soliq yukining qisqarishiga sabab bo'ladi. Bunda to'lanishi lozim bo'lgan soliq summasi to'lovni kechiktirish natijasida qo'llaniladigan penya yoki jarima miqdori bilan birgalikda hisoblab chiqiladi va unga parallel ravishda to'lanishi lozim bo'lgan soliq summasini ishlab chiqarishga joylashtirish natijasida olinadigan tushum hisob-kitobi amalga oshiriladi


⁴⁸ Евстигнеев Е.Н. Основы налогового планирования. СПб.: Питер, 2004. С. 196, 271.

⁴⁹ Тихонов Д.Н., Липник Л.Г. Налоговое планирование и оптимизация налоговых рисков. М.: Алпина Бизнес Букс, 2004. С. 105.

hamda ko'rsatkichlar o'zaro solishtiriladi. Natija soliq to'lovchi uchun ijobiy bo'ladigan bo'lsa soliq riskini keltirib chiqaruvchi soliq huquqbuzarliklari atayin sodir etiladi.

Soliq risklari soliq to'lovchi moliyaviy holatiga salbiy ta'sir ko'rsatish bilan birga davlatga ham o'zining salbiy ta'sirini ko'rsatishi mumkin. Bunda soliq yuki darajasining va soliq qonunchiligi buzilishi bilan bog'liq moliyaviy yo'qotishlarning o'sishi soliq to'lovchilar moliyaviy resurslarining va mulkiy imkoniyatlarining pasayishiga sabab bo'lishi bilan birga byudjet daromadlari tashkil topish manbalari sifatida soliq tushumlarining pasayishiga ham sabab bo'ladi.

Korporativ tuzilmalarda soliqlar bo'yicha pul oqimlarini boshqarishda, xususan soliqlarni rejalashtirishda paydo bo'lishi mumkin bo'lgan soliq risklarining mohiyatini chuqurroq anglash uchun ularning tasniflanishi haqida tushunchaga ega bo'lish muhim ahamiyat kasb etadi. Shu boisdan quyida soliq risklarining tasnifini keltirib o'tamiz (5.1-rasm).



5.1-rasm. Soliq risklarining tasniflanishi

Soliq risklari, avvalambor, subyektlar bo'yicha tasniflanadi. Bunda soliq munosabatlari davlat va soliq to'lovchilar o'rtasidagi o'zaro munosabat natijasida yuzaga kelishi tufayli soliq riski tushunchasiga ikki

xil nuqtai nazardan yondashish imkoniyati kelib chiqadi. Ya'ni soliq risklari bir tomondan davlat boshqaruv organlarining soliqqa tortish borasidagi faoliyati davomida (bunda soliq riski qonunchilik, ijro etuvchi va sud organlari faoliyati orqali vujudga kelishi ko'rib chiqiladi), ikkinchi tomondan soliq to'lovchilarning soliq munosabatlariga kirishishi natijasidagi qonunchilikka zid xatti-harakatlari oqibatida yuzaga kelishi ko'rib chiqiladi.

Davlat boshqaruv organlari nuqtai nazaridan soliq risklarini ko'rib chiqadigan bo'lsak, qonun chiqaruvchi organning soliq qonunchiligini ishlab chiqish borasidagi faoliyati davomida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan soliq risklariga misol sifatida soliq qonunchiligi ishlab chiqilishida qarama-qarshiliklarga yoki bo'shliqlarga yo'l qo'yilishi, *tarjimaning noto'g'ri ketishi natijasida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan holatlarni keltirishimiz mumkin*. Davlat ijro etuvchi organlari (soliq undirish bilan bog'liq vakolatli organ, masalan soliq organi)ning soliqqa tortish borasidagi faoliyati davomida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan soliq risklariga soliq nazorati (xususan, noqonuniy soliq nazorati) risklari misol bo'la oladi. Sud organlarining masalan, iqtisodiy sudlarning soliqqa tortish borasidagi faoliyati natijasida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan soliq risklariga qonunchilikdagi noaniqliklar tufayli yuzaga kelgan soliqqa oid nizolarda soliq to'lovchining aybdor deb topilishi natijasidagi moliyaviy yo'qotishlar misol bo'ladi.

Soliq to'lovchilar nuqtai nazaridan soliq risklarining yuzaga kelishiga soliq qonunchiligi bo'yicha huquqbuzarliklarga yo'l qo'yish ham sabab bo'lishi haqida yuqorida ta'kidlab o'tdik. Misol uchun jismoniy shaxs mol-mulk solig'ini to'lashi lozimligi haqida to'lov xabarnomasi olgan bo'lishiga qaramasdan to'lovni o'z vaqtida amalga oshirmadi. Bunday holatda soliq riski bo'yicha yo'qotish o'z vaqtida to'lanmagan soliq bo'yicha hisoblanadigan penyalarda, shu bilan birga ish sudgacha boradigan bo'lsa qo'shimcha sud xarajatlarida ham namoyon bo'ladi. Soliq to'lovchilar faoliyati davomida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan soliq risklari bo'yicha javobgarlik choralari esa Soliq kodeksining IV bo'limida keltirilgan.

Subyektlari bo'yicha soliq risklari tasniflanganda soliq agentlarining soliqlar bo'yicha risklari ham alohida ko'rsatiladi. Soliq agentlarining soliqlar bo'yicha risklariga soliqlarni to'lov manbaida ushlab qolish va byudjetga o'tkazib berish jarayonidagi faoliyati natijasida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan risklarni kiritishimiz mumkin. Bunday risklar jismoniy shaxslarning mehnatga haq to'lash shaklidagi daromadlaridan olinadigan daromad solig'ini, Pensiya fondiga majburiy sug'urta ajratmalarini hisoblash va byudjetga o'tkazib berish bilan bog'liq operatsiyalardagi xatoliklar, jismoniy shaxslarning dividend tarzidagi olinadigan daromadlar bo'yicha hisoblanadigan soliqlarni byudjetga o'tkazib berish bilan bog'liq operatsiyalardagi xatoliklar, bu jarayonda imtiyozlarning noto'g'ri talqin qilinishi tufayli yuzaga kelishi mumkin. Shuningdek, o'zaro bog'liq shaxslar faoliyati natijasida ham soliq risklari yuzaga keladi. Bunga misol sifatida soliq to'lovchilarning o'z hisobraqamlari ochilgan tijorat bankiga soliqlar va majburiy ajratmalarni tegishli byudjetlarga va byudjetdan tashqari fondlarga o'tkazish to'g'risidagi to'lov topshiriqnomasini belgilangan muddatda taqdim etganiga qaramasdan tijorat banki tomonidan pul o'tkazishning kechiktirilishi oqibatida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan soliq riskini keltirib o'tishimiz mumkin. Bankning aybi bilan soliq to'lovchining soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar summasini o'tkazish topshiriqnomasi, tegishli vakolatli organning soliqlar va majburiy ajratmalarni undirish to'g'risidagi inkasso topshiriqnomasi bajarilmagan (bajarilishi kechiktirilgan) taqdirda, bankdan har bir kechiktirilgan kun uchun soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarning o'tkazilmagan summasini 0,5 foizi miqdorida belgilangan tartibda penya undirilishiga sabab bo'ladi.

Korxonalarda soliq risklarini paydo bo'lishiga sabab bo'luvchi omillarga ko'ra ichki va tashqi risklarga ajratish mumkin. Ichki risklar soliq to'lovchi faoliyati davomida hisobchilarning yoki moliyaviy menejerlarning malakasizligi tufayli soliq xatolariga yo'l qo'yilishi natijasida yuzaga kelsa, tashqi risklar qonunchilikdagi o'zgarishlardan


xabardor bo'lmalik oqibatida, shuningdek, kutilmaganda o'tkazilgan soliq nazorati natijasida yuzaga kelishi mumkin.

Soliq risklarini yuzaga kelish holatiga ko'ra atayin yo'l qo'yilgan soliq risklari hamda kutilmaganda yuzaga keladigan soliq risklariga ajratishimiz mumkin.

Soliq to'lovchilar faoliyatiga ta'sir etish darajasiga ko'ra soliq risklarini korxonalar faoliyatiga jiddiy ta'sir ko'rsatmaydigan risklar, korxonalar faoliyatiga jiddiy ta'sir ko'rsatadigan, lekin faoliyatning izdan chiqib ketishiga olib kelmaydigan soliq risklari hamda korxonaning o'z faoliyatini tugatish darajasigacha ta'sir qiladigan soliq risklariga ajratishimiz mumkin.

Soliq risklarining tasniflanishidan ham ko'rinib turibdiki, soliq munosabatlari subyektlari faoliyati davomida soliq risklari yuzaga keladi va asosan soliq to'lovchilar moliyaviy yo'qotishlariga sabab bo'ladi. Umumiy holda korporativ tuzilmalarda yuzaga kelishi mumkin bo'lgan soliq risklarining oqibatlari sifatida quyidagilarni qayd etishimiz mumkin. Umumiy holda soliq risklari davlat soliq nazorati o'tkazilishi, bu o'z navbatida aniqlangan kamchiliklar, soliq huquqbuzarliklari tufayli soliq yukining ortishiga olib keladi. Natijada esa foydaning boy berilishi kuzatiladi va to'lovga layoqatsizlik hamda moliyaviy barqarorlik pasayishi yuz beradi. Bunday holat aksiyadorlik jamiyatlarida kuzatilishi natijasida aksiyalar kursi pasayadi hamda korporativ tuzilmaning bozordagi nufuzi pasayishiga olib keladi. Umuman jiddiy soliq risklari faoliyatning tugatilishiga olib kelishini ham qayd etib o'tish lozim bo'ladi (3.5-rasm).

Soliq risklarining paydo bo'lishiga soliq qonunchiligidagi o'zgarishlar ham sabab bo'lishi haqida yuqorida ta'kidlab o'tdik. Bunday holat ko'proq har bir moliya yilining oxirida soliq qonunchiligiga ko'plab o'zgarishlar kiritilishi natijasida yanvar oyida soliq xatolarining yuzaga kelishi va soliq risklarining ko'proq yuzaga chiqishiga e'tibor qaratishni talab etadi. Aynan shu davrda, shuningdek faoliyatning dastlabki yillarida ham ichki soliq nazoratini tashkil etish maqsadga muvofiq.



5.2-rasm. Korporativ tuzilmalarda yuzaga kelishi mumkin bo'lgan soliq risklarining oqibatlari


O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 3-moddasida Yangi soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar belgilanishini, imtiyozlar to'liq yoki qisman bekor qilinishini, soliq solinadigan baza oshirilishini nazarda tutuvchi soliq to'g'risidagi qonun hujjatlari ular rasmiy e'lon qilingan paytdan e'tiboran kamida uch oy o'tgach, amalga kiritiladi.

Soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarning stavkalari o'zgartirilishini nazarda tutuvchi soliq to'g'risidagi qonun hujjatlari hisobot davri boshlanishidan kamida bir oy oldin e'lon qilinishi kerak va ular rasmiy e'lon qilingan oydan keyingi hisobot davrining birinchi kunidan e'tiboran amalga kiritiladi»,⁵⁰ deb qayd etilgan. Lekin har bir moliya yili uchun qabul qilinadigan O'zbekiston Respublikasining asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlari prognozi va Davlat byudjeti parametrlari to'g'risida qabul qilinadigan qarorlar ko'p hollarda dekabr oyining oxirlarida qabul qilinmoqda va keyingi moliya yilining birinchi kunidan kuchga kirmoqda. Natijada soliq to'lovchilar soliq qonunchiligidagi o'zgarishlar to'liq o'zlashtirishlari uchun vaqt qisqaligi

⁵⁰ O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksi. 3-modda. O'zbekiston Respublikasining 2007 yil 25 dekabrda O'RQ-136-son qonuni bilan tasdiqlangan.

sababli soliq munosabatlarida ayrim muammolarga duch kelmoqda. Soliq to'lovchilarga yengillik yaratish maqsadida davlat byudjeti parametrlari, soliq bazalari yoki soliq stavkalari o'zgarishi bo'yicha qonunchilik hujjatlarini amaldagi Soliq kodeksida belgilangan tartibda e'lon qilish maqsadga muvofiq, deb o'ylaymiz. Aynan soliq qonunchiligidagi o'zgarishlarning soliq to'lovchilar tomonidan o'z vaqtida o'zlashtirilishi soliq to'lovchilar tomonidan yo'l qo'yiladigan soliq risklarining pasayishiga xizmat qiladi.


Soliq to'lashdagi xavfsizlikka erishish nafaqat soliq riskini tahlil qilishga, balki uni kamaytirishga qaratilgan chora-tadbirlarni amalga oshirishga ham bog'liqdir. Soliq risklarini samarali boshqarishni tashkil etish uchun soliq risklarini aniqlash va baholash, ularga ta'sir etish, ya'ni kamaytirish chora tadbirlarini ko'rish muhim ahamiyat kasb etadi. Shundan kelib chiqqan holda soliq risklarini aniqlash, baholash va ularga qarshi chora qo'llash ketma-ketligini keltiramiz (5.3-rasm).



5.3-rasm. Korxonalarda soliq risklarini boshqarish ketma-ketligi

Yuqoridagi rasmda keltirilgan ketma-ketlikdan kelib chiqqan holda soliq risklarini samarali boshqarish nuqtai nazaridan quyidagilarga e'tibor qaratish lozim deb hisoblaymiz (5.4-rasm).

Buning uchun esa soliq qonunchiligidagi munozarali holatlarni o'rganib chiqish, mavjud risklar monitoringini olib borish, risklarning tasniflanishi va ularning oqibatlarini tahlil qilish muhim ahamiyat kasb etadi. Bulardan tashqari soliq risklariga ta'sir etishda risklarni kamaytiruvchi metodlarni ishlab chiqish, mavjud risklarni turli xil o'xshash holatlar bilan solishtirish va maqbulini tanlash, risklarning kamayishini ta'minlovchi eng yaxshi metodni amaliyotga joriy etish maqsadga muvofiq sanaladi.



5.4-rasm. **Soliq risklarini samarali boshqarish**

Nazorat savollari

1. Soliq risklarining iqtisodiy mohiyati.
2. Soliq risklarining tasniflanishi.
3. Korporativ tuzilmalarda yuzaga kelishi mumkin bo'lgan soliq risklarining oqibatlari.
4. Korxonalarda soliq risklarini boshqarish ketma-ketligi.
5. Soliq risklarini aniqlash va baholash.
6. Soliq risklariga ta'sir etish usullari.
7. Soliq qonunchiligi monitoringi orqali soliq risklarini boshqarish.
8. Soliq qonunchiligi barqarorligini ta'minlashning soliq risklarini kamaytirishga ta'siri.

6-BOB. KORPORATIV MOLİYANI BOSHQARISHDA ICHKI SOLIQ NAZORATINI TASHKIL ETISH VA UNDA E'TIBOR QARATILADIGAN JIHATLAR

Soliq nazorati deganda aksariyat holatlarda davlat soliq organlari tomonidan soliq to'lovchilar faoliyatini tekshirishga qaratilgan faoliyat va bu borada ularning amalga oshiradigan ishlari tushuniladi. Bunda soliq nazorati soliq to'lovchilarning amaldagi soliq qonunchiligiga amal qilish holatlarini o'rganishga, soliq huquqbuzarliklariga qarshi kurashga qaratiladi. Soliq organlari tomonidan o'tkaziladigan soliq nazorati davrida soliq huquqbuzarliklarining aniqlanishi soliq to'lovchilarga nisbatan amaldagi qonunchilikka ko'ra javobgarlik choralari qo'llanilishiga sabab bo'ladi. Bu holat o'z navbatida soliq to'lovchining jiddiy moliyaviy yo'qotishlariga olib keladi. Soliq huquqbuzarliklari tufayli qo'shimcha majburiyatlarning yuzaga kelishi va ularning moliyaviy yo'qotishlarga olib kelishining oldini olish maqsadida davlat soliq nazoratidan tashqari korporativ tuzilmalarda soliq munosabatlarini samarali tashkil etishga qaratilgan va soliq majburiyatlarining o'z vaqtida bajrilishini doimiy nazorat qilib boradigan ichki soliq nazoratini yo'lga qo'yish boshqa tomondan iqtisodiy subyekt moliyaviy barqarorligini ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Korporativ tuzilmalarda ichki soliq nazoratini tashkil etish va amalga oshirishning tartibi, shakllari, usullari va amal qilishi iqtisodiy subyektning faoliyat ko'lami, tashkiliy-huquqiy xususiyatlari bilan bog'liqlik holda farqlanishi mumkin.

Yuqoridagilar asosida ta'kidlash mumkinki, ichki soliq nazoratini tashkil etishdan asosiy maqsad soliq organlari tomonidan soliq nazorati o'tkazilgunga qadar soliq xatolarini, soliq huquqbuzarliklarini aniqlash va ularni bartaraf etish orqali moliyaviy javobgarliklarning oldini olishdir.

Ichki soliq nazorati tushunchasi zamirida umumiy tizim bilan bog'liqlikda korxonada soliq hisobini tashkil etishga yo'naltirilgan

maqsadli va tizimli faoliyat; soliqlar va majburiy ajratmalar bo'yicha hisob-kitoblarning to'g'ri amalga oshirilayotganligi hamda ularning o'z vaqtida to'lanayotganligi ustidan nazorat; davlat soliq xizmati organlari tomonidan tekshiruvlar o'tkazilgunga qadar yo'l qo'yilgan soliq xatolari va soliq huquqbuzarliklarini bartaraf etish; soliq huquqbuzarliklariga nisbatan moliyaviy va ma'muriy choralarni kamaytirish yotadi.

Korporativ tuzilmada ichki soliq nazorati tizimi tashkil etilganda va nazorat o'tkazish jarayonida quyidagi tamoyillar guruhlariga e'tibor qaratish maqsadga muvofiq hisoblanadi⁵¹:

- yuridik tamoyillar (qonuniylik, javobgarlik, oshkoralik);
- bazaviy tamoyillar (etika normalariga rioya qilish, asoslanganlik tamoyillari);
- tashkiliy tamoyillar (muntazamlilik, uzluksizlik, ta'sirchanlik tamoyillari).

Ichki soliq nazoratining tashkiliy tuzilishi, nazorat jarayoni va mexanizmi korporativ tuzilmalar faoliyat ko'lami, faoliyat sohasi, to'laydigan soliqlari ro'yxati va boshqa omillarga bog'liqligi xususida yuqorida ham to'xtalib o'tdik.


Mamlakatimizda faoliyat yuritayotgan korporativ tuzilmalarda ichki soliq nazoratini samarali tashkil etish tartibi qonunchilik bilan hozirgi kunga qadar belgilanmagan. Shuni alohida ta'kidlash kerakki, ichki soliq nazoratini yirik kompaniyalarda tashkil etish bo'yicha me'yoriy hujjatlarning ishlab chiqilishi soliq to'lovchilar faoliyatida ijobiy ahamiyat kasb etadi va soliqlarga oid huquqbuzarliklarni kamaytiradi. Buning natijasi o'laroq, korxonalar moliyaviy barqarorligi ta'minlanishi, soliqlar va majburiy ajratmalarning o'z vaqtida va to'liq tegishli byudjetlarga va byudjetdan tashqari fondlarga kelib tushishi ta'minlanadi.

Korxonalarda ichki soliq nazorati soliqlar bo'yicha kamchiliklarni bartaraf etishga qaratiladi. Bundan asosiy e'tibor bevosita xo'jalik yurituvchi subyektlar buxgalteriya hisobi yuritilishiga qaratilishi kelib chiqadi. Ichki soliq nazoratini tashkil etish jarayoni haqida so'z

⁵¹ Чусов И.А. Развитие внутреннего налогового контроля в системе корпоративного управления элеваторов... Автореф. дисс. на соиск. уч. степ. М., 2012. <http://www.timacad.ru/catalog/disser/referat/Chusov.pdf>

yuritganda, bunda birinchi navbatda buxgalteriya hisobida soliq xatolarining yuzaga kelish sabablari haqida to'xtalib o'tishimiz kerak bo'ladi.

Buxgalteriya hisobi amaliyotida eng ko'p uchraydigan xatolar quyidagi rasmda aks ettirilgan (6.1-rasm).



6.1-rasm. Buxgalteriya hisobi amaliyotida eng ko'p uchraydigan xatolar (foizda)⁵²

Tahlil ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, buxgalteriya hisobi amaliyotida 28 foiz xatolik birlamchi hujjatlarda, 27 foiz xatolik soliq hisob-kitoblarida, 21 foiz xatolik foyda solig'i bazasini aniqlashda yuzaga kelmoqda. Shuningdek, 21 foiz xatolik teng ulushlarda qo'shilgan qiymat solig'ini chegirish, nomoddiy aktivlar hisobi bo'yicha hamda to'lov topshiriqnomalarida kuzatilgan.

Korxonalar amaliy faoliyatida soliq xatolarining paydo bo'lish sabablarini quyidagicha tasniflash mumkin:

- birlamchi hujjatlar (buyruqlar, dalolatnomalar, shartnomalar, yukxatlar, hisob-kitoblar, hisobvara-q-fakturalar va boshqalar)ning yo'qligi yoki soliq qonunchiligi nuqtai nazaridan noto'g'ri rasmiylashtirilganligi;

⁵² www.pbuh.ru/article sayti ma'lumotlaridan foydalanildi.

- soliq qonunchiligini shartli ravishda noto'g'ri izohlash (talqin etish) natijasidagi xatolar;

- soliq qonunchiligidagi qarama-qarshiliklar va noaniqliklar bilan bog'liq xatolar;

- soliq qonunchiligidagi o'zgarishlarga o'z vaqtida e'tibor qaratmaslik;

- arifmetik xatolar;

- soliq inspeksiyalariga soliqlar va majburiy ajratmalar hisob-kitoblari va moliyaviy hisobotlarni o'z vaqtida taqdim etmaslik;

- soliqlarni o'z vaqtida to'lamaslik.

Tekshirishlar shuni ko'rsatadiki, soliq xatolarining yuzaga kelishiga ko'proq subyektiv omillar sabab bo'ladi. O'tkazilgan kuzatishlar va tahlillarga ko'ra 75% soliq xatolari bevosita inson omili bilan bog'liq. Bunda xodim malakasining yetishmasligi, e'tiborsizlik (diqqat bilan ishlamaslik), o'z majburiyatlarini bajarishga sidqidildan yondashmaslik va boshqalar soliq xatolarining yuzaga kelishiga sabab bo'luvchi asosiy omil sifatida ko'zga tashlanadi. Korporativ nazorat tizimi bilan bog'liqlikda soliq hisob-kitoblariga ta'sir qiluvchi subyektiv omillarni maksimal darajada qisqartirish va korxonaning soliq majburiyatlarini amalga oshirish paytidagi xatolarini yo'qotish ichki soliq nazoratini tashkil etishning asosiy maqsadlaridan biridir.

Rossiya Federatsiyasida Internet so'rovlar orqali amaliyotda ko'p uchraydigan xatolarni baholash o'tkazilgan. Unda korxonalarining buxgalteriya bo'yicha faoliyat ko'rsatadigan 55 ta xodimi ishtirok etgan bo'lib so'rov natijalari quyidagi jadvalda aks ettirilgan (6.1-jadval).

Yuqoridagi jadval ma'lumotlaridan ham ko'rinib turibdiki, birlamchi hujjatlarning yo'qligi yoki noto'g'ri rasmiylashtirilishi hamda soliq qonunchiligidagi qarama-qarshiliklar va noaniqliklar bilan bog'liq xatolar boshqa xatolarga nisbatan yuqori baholangan.

O'zbekiston Respublikasi Savdo-sanoat palatasi tomonidan 2016 yilning 6 oyi mobaynida tanlab olingan tadbirkorlik tekshiruvlari

natijalariga ko'ra tadbirkorlik subyektlari tomonidan quyidagilar bo'yicha eng ko'p soliq xatoliklariga yo'l qo'yilgan⁵³:

6.1-jadval

Amaliyotda ko'p uchraydigan soliq xatolari⁵⁴

№	Soliq xatolari turlari	Berilgan ovozlari	
		Sonda	Foizda
1	Birlamchi hujjatlarning yo'qligi yoki soliqqa tortish nuqtai nazaridan noto'g'ri rasmiylashtirilishi	22	40,00
2	Soliq qonunchiligini shartli ravishda noto'g'ri talqin qilish natijasidagi xatolar	9	16,36
3	Soliq qonunchiligidagi qarama-qarshiliklar va noaniqliklar bilan bog'liq xatolar	30	54,55
4	Arifmetik (hisob-kitoblardagi) xatolar	7	12,73
5	Soliqqa tortishdagi o'zgarishlarga o'z vaqtida javob qaytarmaslik (o'zgarishlarni o'z vaqtida hisobga olmaslik)	15	27,27
6	Soliq inspeksiyasiga hisobot hujjatlarini o'z vaqtida taqdim etmaslik	2	3,64
7	Soliqlarning to'lov muddatlarini o'tkazib yuborish	3	5,45

1-xato. Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'ini hisoblab chiqishda kadrlar bo'limi va buxgalteriya o'rtasida o'zaro hamkorlikning yo'qligi.


2-xato. Tashkilotning soliq solinadigan bazasini noto'g'ri shakllantirish oqibatida soliqlar va majburiy to'lovlarni noto'g'ri hisoblash.

3-xato. Tadbirkorlik faoliyatida tovarlarni sotish va xizmatlar ko'rsatish aylanmasidan 20% QQSni to'lamaslik. Bu xato tadbirkorning soliqlarini qayta hisoblanishiga olib keladi.

4-xato. Tadbirkorlik subyektlari foydalanayotgan binolar yoki yer uchastkalarining sotib yuborilganidan yoki hokimiyat tomonidan olib qo'yilganidan keyin soliq organlarini xabardor qilish yo'li bilan soliq solinadigan bazadan o'z vaqtida olib tashlamaslik.

⁵³ http://www.norma.uz/uz/bizning_sharhlar/ssp_tadbirkorlarning_soliqlar_buyicha_odativ_hatolarini_malum_qildi
⁵⁴ www.клерк.ру > Бухгалтерия > Обшая бухгалтерия > Бухучёт и налогообложение > Налоговые ошибки!!!

5-xato. Amortizatsiya haqida tushunchaga ega bo'lmalik. Amortizatsiya – mol-mulkning eskirishi bilan tobora qadrsizlanishidir.



6.2-rasm. O'tkazilgan rejali tekshirishlar jarayonida aniqlangan tabirkorlik subyektlari tomonidan yo'l qo'yilgan soliq xatoliklari⁵⁵


Soliq turlari bo'yicha xatolar o'rganilganda eng ko'p jismoniy shaxslar daromad solig'i, yagona ijtimoiy to'lov, fuqarolarning majburiy sug'urta badallari bo'yicha xatoliklar kuzatilgan (6.2-rasm).

Jismoniy shaxslar daromad solig'i, yagona ijtimoiy to'lov, Byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasiga majburiy sug'urta badallari bevosita bir-biriga bog'liq, aniqrog'i obyekt bir xil bo'lgan soliq majburiy ajratmalar bo'lganligi uchun ham eng ko'p soliq xatoligiga yo'l qo'yilganligini ta'kidlashimiz mumkin.

Soliq hisob-kitoblari ichki nazorati umumiy texnologiyasiga ko'ra korxonada xo'jalik operatsiyalari bo'yicha birlamchi hujjatlar, me'yoriy hujjatlar, mazkur operatsiya bilan o'zaro bog'langan soliqqa tortish elementlari ko'rsatilgan buxgalteriya provodkalarini rasmiylashtirish uchun zarur ko'rsatmalar bilan ta'minlangan bo'lishi kerak. Bu har bir operatsiyani birlamchi hujjatlarda rasmiylashtirishdan tortib, keyin soliq bo'yicha qaror qabul qilish, soliq hisob-kitoblarini amalga oshirish

⁵⁵ http://www.norma.uz/uz/bizning_sharhlar/ssp_tadbirkorlarning_soliqlar_buyicha_odatiy_hatolarini_malum_qildi

va soliqlarni to'lashgacha bo'lgan jarayonni bildiradi va butun bir faoliyatni o'zida aks ettirgan bo'lishi kerak. Ichki soliq nazoratini o'tkazish texnologiyasini quyidagi rasmda keltiramiz (6.3-rasm)



6.3-rasm. Ichki soliq nazorati texnologiyasi

Korxonalarda soliqlarni boshqarishning asosiy yo'nalishlaridan biri sifatida ichki soliq nazorati o'tkazilishi bilan birga soliq tahlili ham o'tkazish maqsadga muvofiqdir. Quyida korxonalarda soliq tahlilini o'tkazish, unda e'tibor qaratiladigan jihatlar haqida to'xtalib o'tamiz.

Korxonalar har bir faoliyat yo'nalishi bo'yicha hisobot (soliq) davri oxirida foyda yoki zarar ko'rinishidagi moliyaviy natijaga ega bo'ladi. Bunda subyekt miqyosida faoliyat yo'nalishlarini amalga oshirish jarayonida soliqqa tortishga tegishli ko'plab ko'rsatkichlar aniqlanadi. Misol uchun: mahsulot sotishdan tushum, ish haqi fondi, mulk hisobvaraqlari bo'yicha qoldiq va boshqa shu kabilar.

Soliq imtiyozlarining qo'llanilishi bilan bog'liqlikda yuqoridagi ko'rsatkichlar har bir iqtisodiy subyektda boshqa subyektlar bilan taqqoslaganda farq qilishi mumkin. Bu holat har qanday iqtisodiy

subyektning boshqaruvi aylanma mablag'larning yetishmasligi, soliqlar to'langandan so'ng taqsimlanadigan foyda miqdorining pastligi, soliq stavkalarining yuqoriligi, to'lanadigan soliqlar sonining ko'pligidan va boshqalardan kelib chiqqan holda soliqlarni optimallashtirishga intiladi.

Soliqqa tortishni optimallashtirish korxonada soliq tahlilini o'tkazishni taqozo etadi. Bu jarayon iqtisodiy subyektda soliq yukini baholash bilan boshlanishi kerak.

Ilmiy adabiyotlarda korxonalar miqyosida soliq yukini aniqlashning bir necha metodlari uchraydi. Ularning bir-biridan farqi soliq yukini hisoblashda kiritiladigan soliqlarning soni yoki ulardan foydalanilishida, shuningdek soliq summalari bilan o'zaro munosabatda (bog'liqlikda) integral ko'rsatkichlarning aniqlanishida namoyon bo'ladi.

Har bir metodikaning asosiy g'oyasi iqtisodiyotning turli sohalaridagi soliqqa tortish darajasini taqqoslash uchun foydalanish maqsadida alohida iqtisodiy subyektdagi soliq yukini ko'rsatib berishda ko'rinadi. Shuningdek, ularning har birida iqtisodiy subyektga qo'llanilayotgan soliqqa tortish darajasiga soliqlar soni, soliq stavkalari va imtiyozlari o'zgarishining ta'siri hisoblab chiqiladi. Bu jarayonda qo'llaniladigan bir necha metodlar bilan tanishib chiqamiz.

Ko'plab mamlakatlar moliya organlari tomonidan iqtisodiy subyektlarda soliq yukini aniqlash metodida soliq yukini aniqlash barcha to'langan soliqlarning sotishdan tushum (boshqa aktivlarni sotishdan tushumni ham hisobga olgan holda)ga nisbati orqali aniqlanadi (3.1):

$$SYu = S_{um} / T_{um} * 100\% \quad (3.1)$$

bu erda, SYu – soliq yuki;

S_{um} – umumiy to'langan soliq summasi;

T_{um} – umumiy sotishdan tushum.

Bu metod bo'yicha hisoblab chiqilgan soliq yuki ko'rsatkichi to'langan soliqlarning sotishdan tushumdagi ulushini aniqlab beradi va har bir soliq turining mahsulot sotishdan tushumga ta'sir darajasini ko'rsatib beradi.

Korxonalar miqyosida soliq tahlili o'tkazilayotganda soliqlar va majburiy ajratmalar umumiy tahlili, soliq yuki tahlili, soliqlar va majburiy ajratmalar bo'yicha qarzdorlik tahlili amalga oshiriladi. Ularning har biri tarkibi haqida quyida to'xtalib o'tamiz.

Soliq to'lovlari umumiy tahlili jarayonida quyidagilar tahlil qilinadi:

1. Tashkilot tomonidan to'lanadigan soliqlar va majburiy ajratmalarining vaqt bo'yicha tahlili.

2. Tashkilot tomonidan to'lanadigan soliqlar va majburiy ajratmalarining makon (jami to'langan soliqlar summasidagi ulushi) bo'yicha tahlili.

3. Soliq to'lovlari strukturasi va dinamikasi omilli (iqtisodiy va texnologik) tahlili.

Korxonalar miqyosida soliq yuki tahlilida quyidagilarga e'tibor qaratiladi:

1. Tashkilotning umumiy soliq yuki strukturasi tahlili. Bunda soliq tahlili egri soliqlar bo'yicha, mahsulot tannarxiga kiritiladigan soliqlar va majburiy ajratmalar bo'yicha, moliyaviy natijada aks etadigan soliqlar va majburiy ajratmalar bo'yicha, foyda solig'i bo'yicha, sof foydadan to'lanadigan soliqlar va majburiy ajratmalar bo'yicha tashkil etiladi.

2. Soliq yuki umumiy tahliliy koeffitsientlari tahlili. Bunda soliq tahlili mahsulot sotishdan tushumga nisbatan soliq yuki koeffitsientlari bo'yicha, ishlab chiqarish va muomala xarajatlariga nisbatan soliq yuki koeffitsientlari bo'yicha, korxonalar foyda ko'rsatkichiga nisbatan soliq yuki koeffitsientlari bo'yicha amalga oshiriladi.

3. Konkret tadbirkorlik subyektlari misolida soliq yuki koeffitsientlarining xususiy analitik tahlili.

4. Soliqlar va majburiy ajratmalar bo'yicha qarzdorlik holati tahlilida quyidagilar o'rganib chiqiladi va ularga baho beriladi:

- tashkilotning soliqlar va majburiy ajratmalar bo'yicha qarzdorligi dinamikasi tahlili;

- tashkilotning soliqlar va majburiy ajratmalar bo'yicha qarzdorligi tarkibi tahlili;

- tashkilot tomonidan to'langan soliqlar va majburiy ajratmalarining mavjud qarzlilar bilan o'zaro nisbati tahlili;

- tashkilot qarzlari paydo bo'lishining omilli tahlili.

Soliq tahlili jarayonida quyidagilar amalga oshiriladi:

- barcha bo'limlar bo'yicha hisob-kitob natijalari kompleks tahlil qilinadi;

- masalalarni hal qilish jarayonida va qarorlar qabul qilishda foydalaniladi;

- qarzdorlik yuzaga kelishiga sabab bo'layotgan soliqlar aniqlanadi;

- tahlil o'tkazilayotgan davr bo'yicha salbiy holatlar kuzatilgan alohida davr (yillar) belgilanadi;

- soliq to'lovchi uchun og'ir yuk hisoblangan soliqlar va majburiy ajratmalar belgilanadi;

- soliqlar va majburiy ajratmalar bo'yicha qarzdorlikning hamda soliq qonunchiligi buzilishining sabab va omillari aniqlanadi;

- mavjud murakkabliklarni hal qilish yo'llari belgilanadi.

Korporativ tuzilmalar miqyosida soliq yukini aniqlashda moliyaviy natijalarga murojaat qilishimiz shart. Bizga ma'lumki, xo'jalik yurituvchi subyekt faoliyatining moliyaviy natijalari O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1999 yil 5 fevraldagi 54-son qarori bilan tasdiqlangan "Mahsulot (ishlar, xizmatlar)ni ishlab chiqarish va sotish xarajatlari tarkibi hamda moliyaviy natijalarni shakllantirish tartibi to'g'risida"gi Nizomga asosan foydaning quyidagi ko'rsatkichlari bo'yicha aniqlanadi:

1. Mahsulotni sotishdan olingan yalpi foyda ($YaF = SST - IT$);

2. Asosiy faoliyatdan ko'rilgan foyda ($AFF = YaF - DX + BD - BZ$);

3. Umumxo'jalik faoliyatidan olingan foyda ($UF = AFF + MD - MX$);

4. Soliq to'langungacha olingan foyda ($STF = UF + FP - FZ$);

5. Yilning sof foydasi ($SF = STF - DS - BS$).

Moliyaviy natijalar shakllanishiga soliqlar va majburiy ajratmalar bevosita ta'sir ko'rsatishini alohida ta'kidlashimiz lozim. Buni quyidagi jadvalda aks ettiramiz (6.2-jadval).

6.2-jadval

Moliyaviy natijalar shakllanishiga ta'sir ko'rsatadigan soliqlar va majburiy ajratmalar

1.	YaF shakllanishiga soliqlarning ta'siri	Yagona ijtimoiy to'lov,
2.	AFF shakllanishiga soliqlarning ta'siri	Mol-mulk solig'i, yer solig'i, suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq, byudjetdan tashqari jamg'armalarga majburiy ajratmalar
3.	UFF shakllanishiga soliqlarning ta'siri	Foizlar va dividendlar bo'yicha soliq
4.	STF shakllanishiga soliqlarining ta'siri	Nazarda tutilmaydi
5.	Sof foyda shakllanishiga soliqlarning ta'siri	Foyda solig'i, obodonlashtirish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish solig'i, ustama foyda solig'i

Bizningcha, sof tushumga nisbatan soliq yukini aniqlashda mahsulot sotishdan tushum bilan bir vaqtda asosiy faoliyatdan boshqa tushumlarni ham hisobga olish lozim. Umumiy holda soliq yukini aniqlash asosiy faoliyatdan boshqa tushumlarni ham o'z ichiga olgan sof tushum, soliqlarga tortilgunga qadar foyda, sof foydaga nisbatan aniqlanishi maqsadga muvofiq, deb hisoblaymiz. Shuningdek soliq yukini aniqlash va tahlil qilish korporativ tuzilmalar moliyaviy natijalariga ta'sirini kelib chiqqan holda jismoniy shaxslar daromad solig'i, egri soliqlarni hisobga olgan holda va hisobga olmasdan amalga oshirilishi lozim. Ular bo'yicha formulalarni quyida keltirib o'tamiz.

Avvalo jismoniy shaxslar daromad solig'i, egri soliqlarni hisobga olgan holda soliq yukini aniqlash formulasi quyidagicha:

1. Sof tushumga nisbatan soliq yukini aniqlash formulasi

$$SYu = \frac{JS+MA}{ST} * 100. \quad (3.1)$$

2. Soliq to'langunga qadar foydaga nisbatan soliq yukini aniqlash formulasi

$$SYu = \frac{JS+MA}{STF} * 100 . \quad (3.2)$$

3. Sof foydaga nisbatan soliq yukini aniqlash formulasi

$$SYu = \frac{JS+MA}{SF} * 100 \quad (3.3)$$

bu yerda: SYu – soliq yuki;

ST – asosiy faoliyatdan boshqa tushumlarni ham o'z ichiga olgan sof tushum;

STF – soliq to'langunga qadar foyda;

SF – sof foyda;

JS – jami soliqlar;

MA – majburiy ajratmalar.

Yuqoridagi soliq yukini aniqlash bo'yicha formulalarda korporativ tuzilma ishchi xodimlari tomonidan to'lanadigan jismoniy shaxslar daromad solig'i va egri soliqlar (asosan qo'shilgan qiymat solig'i va aksiz solig'i)ning hisobga olinishini quyidagilar bilan izohlashimiz mumkin:

– birinchidan, ishchi va xodimlar bo'yicha hisoblanadigan va davlat byudjetiga o'tkazib beriladigan jismoniy shaxslar daromad solig'ining hisobga olinishi daromadning bevosita korporativ tuzilma tomonidan hisoblanishi, natijada esa ishchi-xodim va davlat byudjeti oldida majburiyatlar yuzaga kelishi hamda to'lovlar amalga oshiriladi;

– ikkinchidan, egri soliqlar mohiyatan iste'molchi tomonidan to'lab berilsada, hisobga olish usuli qo'llanilishi natijasida aylanma mablag'lar chiqib ketishi bilan bog'liq.

Jismoniy shaxslar daromad solig'i va egri soliqlar (asosan QQS va aksiz soliqlari)ni chegirib tashlagan holda soliq yukini aniqlash metodikasi quyidagicha:

1. Sof tushumga nisbatan soliq yukini aniqlash formulasi

$$SYu = \frac{(JS+MA)-(ES+JShDS)}{ST} * 100. \quad (3.4)$$

2. Soliq to'langunga qadar foydaga nisbatan soliq yukini aniqlash formulasi

$$SYu = \frac{(JS+MA)-(ES+JShDS)}{STF} * 100 . \quad (3.5)$$

3. Soliq to'langunga qadar foydaga nisbatan soliq yukini aniqlash formulasi

$$SYu = \frac{(JS+MA)-(ES+JShDS)}{SF} * 100 . \quad (3.6)$$

Bu yerda: ES – egri soliqlar;
JShDS – jismoniy shaxslar daromad solig'i.

Jismoniy shaxslar daromad solig'i va egri soliqlarning chegirilishini esa bevosita haqiqiy to'lovchi nuqtai nazaridan baholash mumkin.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1999 yil 5 fevraldagi 54-son qarori bilan tasdiqlangan "Mahsulot (ishlar, xizmatlar)ni ishlab chiqarish va sotish xarajatlari tarkibi hamda moliyaviy natijalarni shakllantirish tartibi to'g'risida"gi Nizomda yuqorida keltirganimizdek, soliq to'langungacha olingan foyda (STF) moliyaviy natijasi aniqlanadi. Lekin O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirining 2002 yil 27 dekabrda "Moliyaviy hisobotlar shakllari va ularni to'ldirish tartibini tasdiqlash to'g'risida"gi 140-sonli buyrug'iga asosan moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisobot (2-shakl)da bu ko'rsatkich "Foyda solig'ini to'langunga qadar foyda" deb belgilangan va bu ko'rsatkich real ko'rsatkich hisoblanadi. Shundan kelib chiqqan holda "Mahsulot (ishlar, xizmatlar)ni ishlab chiqarish va sotish xarajatlari tarkibi hamda moliyaviy natijalarni shakllantirish tartibi to'g'risida"gi Nizomdagi "Soliq to'langungacha olingan foyda" ko'rsatkichini ham "Foyda solig'ini to'langunga qadar foyda" deb o'zgartirish lozim. Chunki qator soliqlar davr xarajatlari tarkibiga kiritiladi.

Korxonalarda tashkil etiladigan soliq tahlilini tashkil etish jarayonida yuqorida ta'kidlab o'tganimizdek, soliq turlari dinamikasini, soliq turlari dinamikasidagi o'zgarishlarga sabab bo'luvchi omillarni o'rganish muhim ahamiyat kasb etishidan kelib chiqqan holda quyida Eyvalekmaxsustemirbeton aksiyadorlik jamiyati misolida ko'rib chiqamiz (6.3-jadval).

3.5-jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, aksiyadorlik jamiyatida jami to'langan soliqlar va majburiy ajratmalarga nisbatan qo'shilgan qiymat solig'i ulushi oxirgi yillarda pasayish tendensiyasiga ega va o'tgan moliya yilida 31,07 foizni tashkil etgan. Jamiyat miqyosida yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliq to'lovlarida ham pasayish kuzatilgan. Aksiyadorlik jamiyatida majburiy ajratmalar, xususan yagona ijtimoiy to'lov ulushi o'sishi kuzatilgan.

6.3-jadval


**Eyvalekmaxsustemirbeton AJ byudjetga to'lovlari
dinamikasi tahlili⁵⁶**

Jamiga nisbatan foizda

Soliqlar va majburiy ajratmalar turlari	2007	2008	2009	2010	2011	2012	2013	2014	2015
Yuridik shaxslar foyda solig'i	3,6	3,4	3,8	3,5	1,6	1,75	1,09	1,02	1,55
Jismoniy shaxslar daromad solig'i	14,4	11,6	8,6	11,0	7,7	6,08	8,57	0,90	8,77
Obodonlashtirish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish solig'i	0,16 9	0,14 2	0,1	0,7	0,4	0,82	0,24	0,97	1,07
QQS	45,5	49,6	45,1	27,8	53,1	57,3 0	49,54	44,7 5	31,07
Yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliq	0,0	0,0	1,2	1,7	1,8	1,51	3,14	2,84	2,16
Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq	0,8	0,7	0,5	0,7	0,7	0,58	0,78	0,74	0,60
Mol-mulk solig'i	2,2	1,8	1,2	1,7	0,7	0,47	1,17	1,53	1,78
Yer solig'i	6,2	5,7	6,6	10,6	5,9	4,87	6,00	6,98	7,43
Boshqa soliqlar	0	0	0	0	0	0,16	0,19	0,37	0,41
Respublika yo'l fondiga ajratma	5,5	5,7	7,0	6,7	3,5	3,53	3,07	3,40	3,33
Pensiya fondiga ajratma	5,2	5,0	5,8	10,4	7,0	7,21	5,12	10,7 7	14,29
UMALKHK'TMMTRQ JJA	3,8	3,8	3,6	2,3	1,3	1,26	1,09	1,22	1,19
Yagona ijtimoiy to'lov	12,7	12,6	16,6	22,8	16,3	14,4 6	20,00	24,5 2	26,36
Jami	100	100	100	100	100	100	100	100	100

⁵⁶ AJ hisobotlari asosida tuzildi.

Eyvalekmaxsustemirbeton AJ byudjetga to'lovlari dinamikasidan ko'rinib turibdiki, jamiyat tomonidan to'langan foyda solig'i 2015 yilda 2007 yilga nisbatan 2,05 punktga kamayganligini yuqorida ham ta'kidlab o'tdik. Foyda solig'i summasi kamayishiga ta'sir etuvchi omillar sifatida soliqqa tortilgunga qadar foyda summasining o'zgarishi, soliq bazasini hisoblashda qayta qo'shiladigan xarajatlarga e'tibor qaratilganligi hamda foyda solig'i stavkasining har yili pasaytirib kelinayotganligini ko'rishimiz mumkin. Shu o'rinda aksiyadorlik jamiyati tomonidan davlat byudjetiga to'lovlar tarkibida majburiy ajratmalar ulushi ham yuqoriligini ko'rishimiz mumkin (6.4-rasm).



6.4-rasm. Eyvalemaksustemirbeton AJ tomonidan to'langan majburiy ajratmalarining byudjetga jami to'lovlardagi dinamikasi⁵⁷

Yuqoridagi rasm ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, majburiy ajratmalar orasida yagona ijtimoiy to'lov va pensiya fondiga majburiy ajratma (tovaroborotga nisbatan) byudjetga to'lovlar tarkibida nisbatan yuqori ulushga ega.

Endi "Toshkent don mahsulotlari" aksiyadorlik jamiyati misolida soliqlar majburiy ajratmalar tahlilini ko'rib chiqamiz (6.4-jadval).

⁵⁷ AJ hisobotlari asosida tuzildi.

Toshkent don mahsulotlari AJda byudjetga to'lovlar va soliq yuki tahlili, foizda⁵⁸

Ko'rsatkichlar	2011	2012	2013	2014	2015	2016
Yuridik shaxslar foyda solig'i	2,13	1,71	1,30	1,78	0,92	0,87
Jismoniy shaxslar daromad solig'i	2,90	3,39	3,87	2,94	3,89	3,23
Obodonlashtirish va ijtimoiy infrazivilmani rivojlantirish solig'i	0,88	0,39	0,19	0,44	0,44	0,42
Qo'shilgan qiymat solig'i	72,73	70,39	68,20	71,25	68,84	52,83
Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq	0,07	0,08	0,08	0,08	0,08	0,17
Yuridik shaxslar mol-mulk solig'i	1,69	1,74	1,62	1,73	1,63	3,44
Yuridik shaxslar yer solig'i	2,31	2,69	3,07	2,92	3,38	5,66
Boshqa soliqlar	0,00	0,00	0,00	0,29	0,00	0,00
Respublika yo'l fondiga majburiy ajratma	4,62	4,71	4,91	4,88	5,01	7,13
Pensiya jamg'armasiga majburiy ajratma	5,26	6,61	7,43	4,84	5,74	8,00
Ta'lim va tibbiyot muassasalarining moddiy-texnik bazasini rivojlantirish jamg'armasiga ajratma	1,64	1,67	1,76	1,74	1,79	2,55
Yagona ijtimoiy to'lov	5,78	6,63	7,56	7,11	8,15	15,70
Byudjetga to'lovlarning kechiktirilganligi uchun moliyaviy jazo	0,00	0,00	0,00	0,00	0,12	0,00
Byudjetga jami to'lovlar	100	100	100	100	100	100
Soliq yuki:						
a) sof tushumga nisbatan	21,91	24,23	20,77	20,31	20,95	15,84
b) yalpi foydaga nisbatan	86,12	93,16	92,67	88,98	90,81	81,86
c) soliq to'lagunga qadar foydaga nisbatan	766,03	1624,3	2534,9	1381,0	2459,9	1736,6
d) sof foydaga nisbatan	993,85	2240,0	4528,3	1990,8	3458,2	2241,5


Yuqoridagi jadval ma'lumotlari asosida alohida soliqlar va majburiy ajratmalarning davlat byudjetiga jami to'lovlardagi ulushi dinamikasini ko'rib chiqamiz. Bunda avvalo aksiyadorlik jamiyati tomonidan to'langan yuridik shaxslar foyda solig'i dinamikasiga e'tibor qaratamiz. Yuridik shaxslar foyda solig'ining davlat byudjetiga jami to'lovlardagi ulushi nisbatan tebranuvchan. 2015 yilda keskin pasayishi bevosita soliqlarni noto'g'ri hisoblash, natijada esa penya hisoblanganligi bilan izohlanadi.

Mazkur aksiyadorlik jamiyatida ham qo'shilgan qiymat solig'i keskin yuqori ulushga ega. Tahlil qilingan davr mobaynida qo'shilgan

⁵⁸ Toshkent don mahsulotlari AJ hisobotlari asosida tuzildi.

qiymat solig'ining byudjetga jami to'lovlardagi ulushi 68,2 foizdan 72,7 foizgachani tashkil etgan. Bu ko'rsatkich keskin yuqori. Garchi qo'shilgan qiymat solig'ining haqiqiy to'lovchisi iste'molchi hisoblansada, soliq to'lovchi yuridik shaxs aylanma mablag'lari kamayishiga yoki umuman chiqib ketishiga olib kelishi mumkin.

“Toshkent don mahsulotlari” aksiyadorlik jamiyatida ham majburiy ajratmalar boshqa to'lovlarga nisbatan yuqoriligini ko'rishimiz mumkin (6.5-rasm). Bunda yuqoridagi “Eyvalekmaxsustemirbeton” AJga nisbatan taqqoslaganda yagona ijtimoiy to'lov darajasi past bo'lsada, qolgan to'lovlarga nisbatan baribir yuqoriligini ko'rishimiz mumkin.



6.5-rasm. “Toshkent don mahsulotlari” AJda majburiy ajratmalarning byudjetga jami to'lovlardagi dinamikasi, foizda⁵⁹

O'zdonmahsulot aksiyadorlik kompaniyasi tizimidagi yana bir korxonada Dunyo-M aksiyadorlik jamiyati tomonidan 2012-2016 yillar davomidagi byudjetga to'lovlar dinamikasini tahlil qilib chiqamiz (6.6-jadval).


⁵⁹AJ hisobotlari asosida tuzildi.

**Dunyo-M aksiyadorlik jamiyati tomonidan to'langan soliqlar
majburiy ajratmalar dinamikasi tahlili foizda⁶⁰**

Soliqlar va majburiy ajratmalar turlari	2012	2013	2014	2015	2016
Yuridik shaxslar foyda solig'i	3,57	2,47	2,32	3,49	3,29
Jismoniy shaxslar daromad solig'i	2,7	2,46	2,41	2,33	2,88
Obodonlashtirish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish solig'i	1,95	1,07	1,86	2,39	2,23
Qo'shilgan qiymat solig'i	68,07	68,23	66,68	63,55	53,42
Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq	0,01	0,07	0,01	0,01	0,01
Yuridik shaxslar mol-mulk solig'i	1,11	1,16	1,3	1,77	2,5
Yuridik shaxslar er solig'i	0,72	0,79	0,86	1,03	1,54
Boshqa soliqlar	0,73	1,1	1,08	1,08	1,72
Respublika yo'l jamg'armasiga majburiy ajratma	5,5	5,78	6,13	6,12	8,18
Byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasiga majburiy ajratma	7,61	8,2	7,6	7	12,1
Ta'lim va tibbiyot muassasalarining moddiy-texnik bazasini rivojlantirish jamg'armasiga ajratma	1,96	2,07	2,19	2,19	2,92
Yagona ijtimoiy to'lov	6,07	6,61	7,56	9,03	9,2
Byudjetga jami to'lovlar	100,0	100,0	100,0	100,0	100,0

Yuqoridagi jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, Dunyo-M aksiyadorlik jamiyatida qo'shilgan qiymat solig'ining ulushi keskin yuqori. Shuningdek boshqa soliqlarga qaraganda Byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasiga ajratma, Respublika yo'l jamg'armasiga ajratma, yagona ijtimoiy to'lovlarning byudjetlag jami to'lovlardagi ulushi ham boshqa soliqlarga qaraganda nisbatan yuqori ekanligini ko'rishimiz mumkin. Buni quyidagi diagrammalar ham ko'rsatib turibdi (6.6., 6.7-rasmlar).


⁶⁰ Dunyo-M aksiyadorlik jamiyati hisobotlari asosida tuzildi.



6.6-rasm. Dunyo-M aksiyadorlik jamiyatida byudjetga jami to'lovlar tarkibida yuridik shaxslar foyda solig'i va qo'shilgan qiymat solig'i dinamikasi⁶¹

Aksariyat holatlarda korporativ tuzilmalar tomonidan to'lanadigan asosiy soliqlar deganda birinchi navbatda foyda solig'i ko'z oldimizga kelsada, Dunyo-M aksiyadorlik jamiyatida bu soliqning byudjetga jami to'lovlardagi ulushi qo'shilgan qiymat solig'iga nisbatan keskin pastligi ko'rishimiz mumkin. Qo'shilgan qiymat solig'i pasayish tendentsiyasiga ega bo'lsada hamon 50 foizdan yuqori ekanligini ko'rishimiz mumkin. Bunga asosiy sabablar sifatida soliq stavkasining yuqoriligi hamda don mahsulotlariga talabning keskin yuqoriligi bilan izohlashimiz mumkin. Shu o'rinda "Toshkent don mahsulotlari" aksiyadorlik jamiyatining qo'shilgan qiymat solig'i to'lovlari dinamikasi bilan yaqinligini ham ta'kidlab o'tgan holda, buni tarmoq xususiyati sifatida baholashimiz mumkin. Aktsiyadorlik jamiyatida hattoki byudjetdan tashqari jamg'armalarga majburiy ajratmalar summasi ham foyda solig'iga nisbatan yuqorilgini ko'rishimiz mumkin (6.7-rasm).

⁶¹ Dunyo-M aksiyadorlik jamiyati hisobotlari asosida tuzildi.



6.7-rasm. Dunyo-M aksiyadorlik jamiyatida byudjetga jami to'lovlar tarkibida byudjetdan tashqari jamg'armalarga ajratmalar dinamikasi, foizda⁶²

Byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasiga majburiy ajratmaning byudjetga jami to'lovlardagi ulushi yuqoriligini ikkita jihat bilan izohlashimiz mumkin. Bunda birinchidan, sof tushumga nisbatan ajratmaning hisoblanishi va to'lab berilishi hamda fuqarolarning majburiy sug'urta badallari stavkasining oxirgi moliya yillari davomida o'sib kelayotganligi bunga sabab bo'lmoqda. Shuningdek Respublika yo'l jamg'armasi hamda ta'lim va tibbiyot muassasalarining moddiy-texnik bazasini rivojlantirish jamg'armasiga majburiy ajratmalar ham sof tushumga nisbatan hisoblanishi o'z navbatida foyda solig'idan ham ortib ketishiga olib kelmoqda. Yagona ijtimoiy to'lov ulushining ortib borishi ish haqi fondining ortib borishiga proporsional ekanligi esa barchamizga ma'lum holat. Shu o'rinda Harakatlar strategiyasida belgilangan vazifalardan kelib chiqqan holda byudjetdan tashqari jamg'armalarga sof tushumdan ajratmalarni bazasi bir xil bo'lganligi uchun ham unifikatsiyalash lozim, deb hisoblaymiz.

⁶² Dunyo-M aksiyadorlik jamiyati hisobotlari asosida tuzildi.

Masalani o‘rganish natijasi o‘laroq shuni xulosa sifatida aytishimiz mumkinki, korxonalarda ichki soliq nazoratini va soliq tahlilini tashkil etish bugungi iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida xo‘jalik subyektlari mablag‘laridan samarali foydalanishga xizmat qiladi, soliq huquqbuzarliklari tufayli moliyaviy yo‘qotishlarning oldini oladi. Ichki soliq nazoratining va soliq tahlilining samarali ishlashi soliqlar va majburiy ajratmalarning davlat byudjetiga o‘z vaqtida va to‘liq tushishini ta‘minlaydi hamda xo‘jalik subyektlari moliyaviy barqarorligini oshiradi. Bu o‘z navbatida aholi turmush darajasi o‘shishiga sabab bo‘ladi.

Nazorat savollari

1. Davlat soliq nazorati o‘tkazilishi xususiyatlari.
2. Rejali tekshirishlarga korporativ tuzilmalarni tayyorlash.
3. Ichki soliq nazoratini o‘tkazishning ahamiyati.
4. Ichki soliq nazorat o‘tkazish texnologiyasi.
5. Soliq tahlilida soliq yukini aniqlash tartibi.
6. Soliq tahlili orqali soliqlarni minimallashtirish masalalari.
7. Moliyaviy natijalar shakllanishiga ta’sir ko‘rsatadigan soliqlar va majburiy ajratmalar.
8. Soliq xatolari va ularni bartaraf etish.

7-BOB. SOLIQ MASLAHATINING KORPORATIV MOLİYANI BOSHQARISHDAGI HAMDA SOLIQ QONUNCHILIGI IJROSIDAGI AHAMIYATLI JIHATLARI

Korporativ tuzilmalarda soliqlar bo'yicha pul oqimlari harakatini samarali tashkil etishda, soliqlarni optimallashtirish va soliq majburiyatlarini boshqarishda, soliq huquqbuzarliklarining oldini olish orqali moliyaviy yo'qotishlarning oldini olishda, mamlakatimizda yangi faoliyat turi sifatida shakllanib kelayotgan soliq maslahati xizmati ham muhim ahamiyat kasb etadi. Bunda soliq maslahati soliq to'lovchilarga soliqlarning amal qilishi bilan bevosita bog'liq bo'lgan masalalar bo'yicha ko'rsatiladigan xizmat turi ekanligini qayd etib o'tishimiz lozim.

Soliq to'lovchilar tomonidan moliyaviy qonunchilikka, xususan soliq qonunchiligiga rioya qilishni ta'minlash, shuningdek, soliqqa oid qonunbuzarlik holatlarini soliq tekshiruvlariga qadar aniqlashni tashkil etish va shu orqali korporativ tuzilmalar moliyaviy holatiga jiddiy ta'sir ko'rsatadigan moliyaviy yo'qotishlarni bartaraf etish maqsadida soliq maslahatchilari o'z xizmatlarini taklif qiladilar.

Fikrimizcha, mamlakatimizda soliq maslahati sohasi, uning soliq munosabatlarini tashkil etishdagi ahamiyatli jihatlari yetarli darajada o'rganilmagan. Masalani o'rganish natijasida soliq maslahati tushunchasining iqtisodiy mohiyati bo'yicha fikrlar xilma-xilligiga duch keldik. Xususan, mazkur sohada tadqiqotlar olib borgan iqtisodchi olimlardan T.N.Gushchina tomonidan soliq maslahatiga "Qonunchilik bilan o'rnatilgan soliqlar va yig'implarni hisoblash va o'z vaqtida to'lashning to'g'riligi va to'liqligi bo'yicha yordam berish, soliq va yig'implar to'g'risidagi qonunchilik bilan tartibga solinadigan munosabatlar ishtirokchilarining huquqlari va qonuniy manfaatlari himoyasini ta'minlash faoliyati"⁶³ sifatida ta'rif berilgan. Shuningdek,

⁶³ Гушина Т.Н. Организация и методика налогового консультирования экономического субъекта в рамках оптимизации налога на прибыль организации... Автореферат диссертации на соискание учебной степени кандидата экономических наук. Орёл, 2009. С. 9.

soliq maslahati “iqtisodiy faoliyatning mustaqil sohasi va iqtisodiy-huquqiy maslahat yo‘nalishi”⁶⁴, “soliq to‘lovchilarning soliq qonunchiligida belgilangan majburiyatlarni optimal darajada bajarishlari uchun ma‘lum to‘lov asosida ko‘rsatiladigan xizmatlar bo‘yicha professional faoliyat turi”⁶⁵, “soliqqa tortish sohasida amalga oshiriladigan maslahat turi”⁶⁶, “mijoz-tashkilotning faoliyat xususiyatlarini hisobga olgan holda soliqlarni optimallashtirish bo‘yicha qonun bilan ta‘qiqlanmagan sxemalarini ishlab chiqish va soliq hisobini yuritish bo‘yicha pullik asosda ko‘rsatiladigan xizmatlar”⁶⁷, “amalga oshirilgan operatsiyalar bo‘yicha soliqlarni to‘g‘ri to‘lash, shuningdek kelgusi operatsiyalarni rejalashtirishda mijozlarga yordam ko‘rsatish asosiy vazifasi hisoblangan maslahat faoliyati turi”⁶⁸, “soliqqa tortish tizimi va unda yuzaga keladigan o‘zgarishlar haqida mijozga bilim (ma‘lumot) berish bo‘yicha faoliyat”⁶⁹, “soliq majburiyatlarini bajarish bo‘yicha xizmat ko‘rsatish turi sifatida passiv yordam va qonunchilik doirasida soliq yukini minimallashtirish maqsadidagi faol maslahatning o‘zaro yig‘indisi”⁷⁰ sifatida izohlanadi.

2006 yil 21 sentyabrda qabul qilingan O‘zbekiston Respublikasi “Soliq maslahati to‘g‘risida”gi Qonuniga ko‘ra “Soliq maslahati soliq maslahatchilari tashkilotining yuridik va jismoniy shaxslarga (mijozga (ishonch bildiruvchiga)) shartnoma asosida soliq maslahati bo‘yicha xizmatlar ko‘rsatish borasidagi faoliyatidir”⁷¹

Soliq maslahatining iqtisodiy mohiyatini asoslash yuzasidan berilgan izohlar asosida ta‘kidlashimiz mumkinki, ularda soliq majburiyatlarini belgilangan tartibda bajarishga hamda qonunchilik doirasida soliq yukini minimallashtirish yoki soliqlarni

⁶⁴ Гущина Т.Н. Теоретические основы налогового консультирования // Экономические и гуманитарные науки. 2009. № 5. С. 91-93; Лебедева Е.И. Налоговый консультант призван обеспечить баланс частных и публичных интересов // Налог и налогообложение. 2008. № 7. С. 52-54.

⁶⁵ Демишева Т.А. Организация и методика налогового консультирования. М.: МЦФЕР, 2004. С. 12.

⁶⁶ Д.Г. Черник, Л.С. Кирина, В.В. Балакин. Налоговое консультирование: Учебное пособие. М.:Москва, 2009. С. 23 (439).

⁶⁷ Дедкова Е.Г. Место и роль налогового консультирования в современной экономике // Экономические и гуманитарные науки. 2011. № 7. С. 93-94.

⁶⁸ Gary W. Sarter. Getting Started in Tax Consulting. New York: John Wiley & Sons, Inc., 2001.


⁶⁹ Башкирова Н.Н., Сугрובה Е. Б. Основы налогового консультирования. М.: Магистр, 2010. С. 9.

⁷⁰ Дорошина О.П. Развитие налогового консультирования в России и его общественная роль // Вестник ТИСБИ. 2011. № 4. С. 23.

⁷¹ O‘zbekiston Respublikasi “Soliq maslahati to‘g‘risida”gi qonuni. 3-modd.

optimallashtirishga qaratilgan umumiy jihatlar mavjud. Shundan kelib chiqqan holda soliq maslahati institutining faoliyat yuritishi ham davlat uchun, ham soliq to'lovchilar, xususan korporativ soliq to'lovchilar uchun ikki tomonlama ahamiyat kasb etadi. Ya'ni davlat byudjeti daromadlarini o'z vaqtida va to'liq shakllanishi natijasida davlat o'z funksiyalarini amalga oshirish jarayonini o'z vaqtida moliyalashtirish imkoniyati yuzaga keladi, boshqa tomondan korporativ tuzilmalarning qonunchilik doirasida soliq yukini minimallashtirishlari ularning moliyaviy barqarorligini oshirishga xizmat qiladi va bu holat o'z navbatida mamlakatda barqaror soliq to'lovchilar sonining o'sib borishiga xizmat qiladi. Shuningdek korporativ soliq majburiyatlarining o'z vaqtida bajarilishi hisobiga qo'shimcha moliyaviy majburiyatlarning oldi olinadi, soliqlarni minimallashtirish natijasida moliyaviy barqarorlik, erishiladigan foyda miqdori o'sib boradi.

Yuqoridagilar asosida hamda ularni umumlashtirgan holda, **soliq maslahati** byudjet daromadlarining shakllanishi nuqtai nazaridan davlat iqtisodiy manfaatlari hamda faoliyat samaradorligini oshirish nuqtai nazaridan soliq to'lovchilar manfaatlari uyg'unligiga erishishga yo'naltirilgan faoliyat, deya ta'rif berish maqsadga muvofiq deb o'ylaymiz. Chunki soliq maslahati soliqlar va majburiy ajratmalarning o'z vaqtida to'liq tegishli byudjetlarga tushishini ta'minlashga, soliq hisobotlarini belgilangan muddatlarda soliq organlariga taqdim etishga, amaldagi qonunchilik doirasida davlat tomonidan iqtisodiyotni rivojlantirish maqsadida berilgan soliq imtiyozlaridan va boshqa yengilliklardan soliq to'lovchilarning samarali foydalanishlarini ta'minlashga, soliq to'lovchilar huquq va manfaatlarini himoya qilishga xizmat qiladi. Bundan ko'rinib turibdiki, soliq maslahatini samarali tashkil etish soliq to'lovchilar faoliyat samaradorligining o'sishiga xizmat qilishi bilan birga davlat byudjeti daromadlarining belgilangan vaqtda shakllanishida ham o'z ahamiyatini namoyon qiladi.



7.1-rasm. **Soliq maslahatining ahamiyatli jihatlari**

Shuningdek, soliq maslahatining ahamiyatli jihatlari sifatida quyidagilarni ham keltirishimiz mumkin (7.1-rasm):

Yuqoridagi rasmda keltirilgan soliq maslahatining ahamiyatli jihatlarining har birini quyida alohida-alohida ko'rib chiqamiz.

Birinchidan, soliq maslahati soliq to'lovchilar va soliq organlari o'rtasidagi ziddiyatli munosabatlarni kamaytirishga xizmat qiladi. Bizga ma'lumki, soliqla tortish jarayonida davlat soliq xizmati organlari va soliq to'lovchi o'rtasidagi ziddiyatli vaziyatlar tez-tez uchrab turadigan holat hisoblanadi. Bunday ziddiyatlar o'zining funksiyalarini bajarishlari uchun zaruriy mablag'larni jamg'arishga qaratilgan davlatning fiskal manfaatlarini hamda soliq yukining salbiy ta'siridan kelib chiqqan holda o'z faoliyat natijalarini (foydasini) maksimallashtirishga intiladigan soliq to'lovchilar shaxsiy manfaatlarini o'rtasidagi obyektiv qarama-qarshilik natijasidir. Soliq qonunchiligiga tez-tez qo'shimcha va o'zgarishlar kiritilishi ham bevosita soliq munosabatlaridagi ziddiyatlarga sabab bo'ladi. Soliq qonunchiligining yurisprudensiya tilida ekanligi va bu tilning har kimga ham tushunarli emasligi muammoni yanada keskinlashtiradi. Ayrim hollarda soliqlar bilan bog'liq holatlar va soliqla oid me'yoriy hujjatlarni hatto mutaxassislar


ham qiyinchilik bilan o'zlashtiradilar. Bunday holatda qonunchilik hujjatlarini noto'g'ri tushunish, yetarlicha tushunmaslik, huquqiy me'yorlarning o'z o'rnida qo'llanilmasligi korporativ tuzilmalar faoliyatida yuqori darajadagi soliq risklari yuzaga chiqishiga sabab bo'ladi. Bu borada Nobel mukofoti laureati M.Alle ta'kidlaganidek "soliq qonunchiligi aksariyat hollarda oddiy soliq to'lovchi uchun muammoli jumboq hisoblanadi va natijada qo'shimcha xarajatlar hisobiga professionallardan yordam olish uchun qo'shimcha xarajatlarni amalga oshirishga majbur bo'ladilar"⁷². Aynan shunday sharoitda soliq maslahati ahamiyati alohida ko'zga tashlanadi.

Ikkinchidan, korporativ tuzilma tomonidan soliq maslahatchilarini soliq organlari tomonidan o'tkaziladigan soliq tekshiruvlari davomida yoki tekshiruv natijalarining xolis baholanganligini aniqlash maqsadida jalb qilish soliq tekshiruvlarining to'g'ri tashkil etilishiga, natijada esa tekshiruv natijalarining xolisona baholanishiga xizmat qiladi. Agarda tekshiruv natijalari noxolis baholangan holatlar yuzaga kelsa tegishli tartibda shikoyat qilish amaliyotini tashkil etishda ham soliq maslahatchilari xizmatidan foydalanish maqsadga muvofiq.

Soliq maslahatchilari davlat soliq xizmati organlari xodimlari bilan soliqqa tortish sohasidagi mutaxassislar bilan "yagona til"da muloqotga kirishadi. Bundan soliq maslahatchilari soliq to'lovchi va soliq organi o'rtasidagi vositachi sifatida shug'ullanishga qodir va yuqorida keltirilgan vazifalarni obyektiv tarzda bajarishga majburligi yuzaga chiqadi. Soliq organlari va soliq to'lovchilar o'rtasida turli xil qarashlar va muammolarni soliq munozaralarigacha yetkazib bormasdan, ziddiyatlarda asabzuzarliklarni keyingi darajaga surib qo'ygan holda amaliy hal qilish mumkin. Soliq to'lovchi manziliga kelib tushgan savollar va so'rovlarga javoblar mansabdor shaxslar tomonidan qiyinchilik bilan o'zlashtiriladi. Soliq organi uchun soliq maslahatchilarining qatnashishi esa me'yoriy holatning mohiyatini soliq to'lovchilarga zaruriy tarzda yetkazishi alohida ahamiyatga ega.

⁷² Алле М. За реформу налоговой системы. Переосмысливая общепризнанные истины / Пер. с франц. Т.А. Карлова; Под ред. И.А. Егорова. М.: ТЕИС, 2001. С.32.

Uchinchidan, soliq maslahatchilari tomonidan kichik biznes subyektlariga buxgalteriya hisobini yuritish bo'yicha xizmat ko'rsatish mikrofirma va kichik korxonalarda xarajatlarni kamaytirishga xizmat qiladi. Bunda soliq maslahatchilari mijozlariga (soliq to'lovchilarga) shartnoma asosida soliq majburiyatlarini o'z vaqtida va sifati bajarishlariga yordam berish maqsadida o'z xizmatlarini taklif etadi. Mamlakatimizda kichik biznes subyektlarining aksariyati o'z soliq majburiyatlarini bajarish uchun (buxgalteriya hisobini yuritish uchun) to'liq bandlikda yoki o'rindoshlik asosida kamida bitta buxgalterni ishga olish amaliyoti mavjud (7.2-rasm).



7.2-rasm. Kichik biznes subyektlarida soliq hisobini amalga oshiruvchilar⁷³

Amaldagi qonunchilikka ko'ra ish haqiga nisbatan hisoblanadigan majburiy to'lovlar, shu jumladan yagona ijtimoiy to'lov kichik biznes subyektlari zimmasiga tushayotgan soliq yukida yuqori salmoqqa ega. Soliq majburiyatlarini boshqarish maqsadida soliq maslahatchilaridan foydalanish darajasi nihoyatda past.

Keltirib o'tilayotgan holatlardan soliq majburiyatlarini boshqarish bilan bog'liq vazifalarni professional soliq mutaxassislari, xususan soliq maslahatchilari zimmasiga o'tkazish kichik tadbirkorlik subyektlarida shtatdagi hisobchiga haq to'lashdan tashqari, yagona ijtimoiy to'lov

⁷³ O'zbekiston tadbirkorlik subyektlarining soliq ma'muriyatchiligi va hisobotlarga doir xarajatlari. Xalqaro moliya korporatsiyasi. 2010. 46 b.

bo'yicha majburiyatlarni kamaytirish, maxsus buxgalteriya dasturlari, huquqiy hujjatlar bazasi va boshqalar uchun xarajatlarni tejab qolish imkonini beradi va javobgarlikdan holi bo'ladi.

To'rtinchidan, soliq organlari faoliyat samaradorligini oshirishda ham soliq maslahatchilari faoliyati ijobiy ahamiyat kasb etadi. Tajribalar shuni ko'rsatadiki, sifatli soliq maslahati, shubhasiz soliqlar va ularga tenglashtirilgan majburiy ajratmalarning undiriluvchanlik darajasini oshiradi va bu o'z navbatida davlat byudjeti solikli daromadlarining o'z vaqtida shakllanishiga xizmat qiladi. Bundan tashqari davlat tomonidan turli soliq imtiyozlarini joriy etish orqali odatda soliq to'lovchini aniq maqsad bo'yicha rag'batlantirish ko'zda tutiladigan holatlarda ham soliq maslahati muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki sifatli soliq maslahati ko'rsatish soliq imtiyozlaridan samarali foydalanish imkonini beradi.

Beshinchidan, korporativ tuzilmalar zimmasiga tushayotgan soliq yukini qonunchilik doirasida kamaytirish maqsadida soliqlarni rejalashtirish bo'yicha soliq maslahatchilari xizmatidan foydalanish iqtisodiy subyekt pul oqimlari harakatini samarali tashkil etishda hamda soliq qonunchiligining takomillashuvida ijobiy ahamiyat kasb etadi.

Soliq to'lovchilar odatda soliq maslahatchilariga soliq organlariga zaruriy hujjatlarni tayyorlash lozimligi uchun murojaat qilishadi. Lekin rivojlangan xorijiy mamlakatlar amaliyotida korxonalar tomonidan o'z zimmalariga tushayotgan soliq yukini qonunchilik doirasida kamaytirish maqsadida soliqlarni rejalashtirishni samarali tashkil etish masalasida ham soliq maslahatchilari xizmatidan foydalaniladi. Mazkur holatda soliq maslahatining vazifasi aniq huquqiy va iqtisodiy sharoitni hisobga olgan holda soliq to'lovchiga soliqqa tortishdagi o'rnini tushuntirish va o'z xo'jalik faoliyatini yuritish uchun optimal yechimni topib berishdan iborat. Bunda malakali soliq maslahatchisi mavjud soliq imtiyozlari va ulardan to'liq foydalanish yo'nalishlarini ko'rsatib beradi, soliq yukini hisobga olgan holda umumiy iqtisodiy foyda yoki ehtiyotkorlik nuqtai nazaridan mijoz uchun mumkin bo'lgan muqobil xatti-harakatlarni hisob-kitob qiladi. Bunday amaliyotning natijasi soliq to'lovchini o'ylamasdan qaror qabul qilishdan himoya qiladi, moliyaviy

yo‘qotishlarga olib kelishi mumkin bo‘lgan omillarni hisobga olmasdan soliqlarni minimallashtirishga qaratilgan xatti-harakatlardan ogohlantiradi. Soliqlarni rejalashtirish jarayonida soliq qonunchiligida aks etmagan yoki qarama-qarshiliklardan ham foydalaniladi. Chunki soliq to‘lovchining haqligi prezumpsiyasi tamoyiliga ko‘ra “Soliq to‘g‘risidagi qonun hujjatlaridagi bartaraf etib bo‘lmaydigan barcha qarama-qarshiliklar va noaniqliklar soliq to‘lovchining foydasiga talqin qilinadi”⁷⁴. Shundan kelib chiqqan holda soliqlarni rejalashtirish amaliyoti soliq qonunchiligida aks etmagan yoki yetarlicha mukammal darajada ishlanmagan jihatlarni ko‘rsatib beradi. Bunday holatda soliq maslahatchiligi qonunchilik sifatini oshirish lozimligini o‘z faoliyati orqali ko‘rsatib beradi.

Oltinchidan, fuqarolarning va xususiy mulkdorlarning soliqlar bilan bog‘liq qonuniy manfaatlarini himoya qilishda soliq maslahatchilari vositachi sifatida ishtirok etadi hamda sud-huquq tizimining ajralmas tarkibiy qismi hisoblangan soliq huquqining ta‘minlanishida muhim ahamiyat kasb etadi. Soliq maslahatchilari o‘zlarining vakolatlari, professional etikaning umumtan olingan me‘yorlari doirasida o‘z mijozlarining qonuniy huquq va manfaatlari bo‘yicha soliq organlari va sud-huquq organlari oldida vakillik qilishi, munozaraga kirishishi mumkin. Bunda soliq maslahatining ahamiyatli jihati sud jarayonigacha soliq munozaralarini ko‘rib chiqish orqali mijozlarning huquqini himoya qilishga ketadigan ma‘lum bir doiradagi xarajatlarini ongli ravishda tejash mumkin. Soliq huquqining o‘ziga xos xususiyatlari va uning iqtisodiyot hamda huquqiy tizim bilan qat‘iy bog‘liqligi soliq maslahatchilarining huquq sohasidagi o‘rnini yanada mustahkamlaydi. O‘z fuqarolarining va xususiy mulkdorlarning huquqini himoya qilish demokratik jamiyatning oliy tamoyillaridan biri ekanligidan kelib chiqqan holda hamda “davlat xususiy mulkdor huquqlarining himoyachisi”⁷⁵ sifatida soliq maslahatchiligi moliyaviy institutini rivojlantirish xususiy mulkdorlarning soliqlar bilan bog‘liq

⁷⁴ O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksi. 11-modda.

⁷⁵ Karimov I.A. Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasi. T.: O‘zbekiston, 2010. 48 b.

huquqlarini ta'minlashda, shak-shubhasiz ijtimoiy muhim ahamiyat kasb etadi.

Nazorat savollari

1. Soliq maslahatining iqtisodiy mohiyati.
2. Korporativ moliyani boshqarishda soliq maslahati institutining ahamiyati.
3. Soliqlarning yig'iluvchanlik darajasini oshirishda soliq maslahati institutining roli.
4. Soliq maslahatining huquqiy asoslari.
5. Soliq maslahati institutining rivojlanish bosqichlari.
6. Kichik biznes taraqqiyotida soliq maslahati institutining ahamiyati.

8-BOB. MAMLAKATIMIZDA SOLIQ MASLAHATI XIZMATI KO'RSATISHNING AMALDAGI HOLATI TAHLILI

Mamlakatimizda soliq maslahati xizmati O'zbekiston Respublikasi Soliq maslahati to'g'risidagi qonuni, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2007 yil 20 martdagi 55-son Soliq maslahati sohasini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risidagi qarori, soliq maslahati milliy standartlari va boshqa tegishli qonunchilik hujjatlariga asosan tartibga solinadi hamda amalga oshiriladi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar mahkamasining 2007 yil 20 martdagi 55-son Soliq maslahati sohasini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risidagi qaroriga asosan O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi soliq maslahati sohasidagi vakolatli davlat organi hisoblanadi va qonunchilikka ko'ra quyidagi vakolatlarga ega hisoblanadi:

- soliq maslahati bo'yicha faoliyatni tartibga soluvchi normativ-huquqiy hujjatlarni shu jumladan milliy standartlarni ishlab chiqadi va tasdiqlaydi;

- soliq maslahatchisi malaka sertifikatini beradi, uning amal qilishini tugatadi va uni bekor qiladi;

- soliq maslahatchilari reestrini yuritadi;

- qonun hujjatlariga muvofiq boshqa vakolatlarni amalga oshiradi.

O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining Soliq siyosati boshqarmasi tarkibida soliq maslahati sohasidagi munosabatlarni tartibga solishni ta'minlash bo'limi tashkil etilishi belgilangan.

Amaldagi qonunchilikka asosan soliq maslahati bo'yicha xizmatlar:


- mijozga (ishonch bildiruvchiga) soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarni hisoblab chiqarish hamda to'lash masalalari bo'yicha maslahat berishni;

- soliq hisobotini tuzishda mijozga (ishonch bildiruvchiga) yordam ko'rsatishni;

- soliq solish obyektlari va soliq solish bilan bog'liq bo'lgan obyektlarni aniqlashni hamda ularning hisobini yuritishni;

- sudda, huquqni muhofaza qiluvchi va nazorat qiluvchi organlarda soliq solish masalalari bo'yicha mijoz (ishonch bildiruvchi) nomidan va uning topshirig'iga binoan vakillik qilishni o'z ichiga oladi.

Shuningdek soliq maslahatchilari tashkilotlari yuqoridagilar bilan bir qatorda buxgalteriya hisobini yo'lga qo'yish, tiklash va yuritish; moliyaviy hisobot tuzish; buxgalteriya hisobi, menejment va moliya-xo'jalik faoliyatining boshqa masalalari bo'yicha konsalting xizmatlari ham ko'rsatishlari mumkin. Umumiy holda mamlakatimizda soliq maslahatchilari tashkilotlari quyidagi xizmatlarni ko'rsatishlari mumkin (8.1-rasm):



8.1-rasm. Soliq maslahati xizmati yo'nalishlari⁷⁶

2012 yil 5 yanvardan boshlab mamlakatimizda soliq maslahatini rivojlantirish maqsadida quyidagilar soliq maslahati hisoblanmasligi belgilab qo'yildi⁷⁷:

- o'z vakolatlarini amalga oshirish doirasida davlat soliq xizmati organlari, mahalliy davlat hokimiyati organlari va boshqa davlat organlari tomonidan soliq to'g'risidagi qonun hujjatlarini tushuntirish;
- soliq solish masalalari bo'yicha advokatlar tomonidan yuridik yordam ko'rsatish;
- auditorlik tashkilotlari va boshqa tashkilotlarning soliq solish bo'yicha konsalting hamda boshqa xizmatlari.

Soliq maslahatchilari tashkilotining fuqarolik javobgarligi sug'urta polisining mavjudligi soliq maslahati bo'yicha xizmatlar ko'rsatish

⁷⁶ O'zbekiston Respublikasi Soliq maslahati to'g'risidagi qonuni asosida tuzildi.

⁷⁷ O'zbekiston Respublikasi Soliq maslahati to'g'risidagi O'zbekiston Respublikasi qonuniga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish haqidagi qonuni.

to'g'risida shartnoma tuzishning majburiy sharti hisoblanadi. Mazkur majburiy shart tadbirkorlik subyektlariga soliq maslahatchilari tomonidan yetkazilgan zararlarni qoplashni tashkil etish maqsadida belgilab qo'yilganligini ta'kidlashimiz lozim. Soliq maslahati bo'yicha xizmatlar o'zining muhim shartlariga ega bo'lgan shartnoma asosida amalga oshiriladi.

8.1-jadval

Soliq maslahatchilari tashkilotining huquq va majburiyatlari⁷⁸

Soliq maslahatchilari tashkilotining huquqlari	Soliq maslahatchilari tashkilotining majburiyatlari
<ul style="list-style-type: none"> - mijozdan soliq maslahatini amalga oshirish uchun zarur bo'lgan hujjatlarni va boshqa ma'lumotlarni olish; - soliq maslahati berish jarayonida yuzaga kelgan masalalar bo'yicha mijozdan og'zaki yoki yozma tushuntirishlar olish; - soliq maslahatini amalga oshirish uchun zarur bo'lgan axborot, ma'lumotnomalar, hujjatlar va boshqa materiallarni qonun hujjatlarida belgilangan tartibda muassasalar hamda tashkilotlardan so'rab olish; - soliq solish masalalari bo'yicha davlat organlariga qonun hujjatlarida belgilangan tartibda murojaat qilish (iltimos qilish, takliflar kiritish, so'rovlar, arizalar, shikoyatlar berish va boshqa shu kabilar) hamda ulardan javoblar olish; - soliq maslahatida ishtirok etishga boshqa mutaxassislarni mijozning roziligi bilan shartnoma asosida jalb qilish; - mijoz soliq maslahatini amalga oshirish uchun zarur bo'lgan hujjatlar va boshqa ma'lumotlarni taqdim etmagan taqdirda, soliq maslahati berishni rad qilish; - soliq to'g'risidagi qonun hujjatlari bilan tartibga solinadigan munosabatlar ishtirokchilarining vakili sifatida davlat soliq xizmati organlarida, shuningdek soliqqa oid nizoni sudgacha hal qilish davomida va sudda qonun hujjatlarida belgilangan tartibda ish olib borish; - soliq tekshiruvlari o'tkazish vaqtida soliq maslahati bo'yicha xizmatlar ko'rsatish. 	<ul style="list-style-type: none"> - mijozning huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilishning qonun hujjatlarida nazarda tutilgan usullari hamda vositalaridan foydalanishi; - soliq maslahatini amalga oshirayotganda olingan axborotning maxfiylikiga rioya etishi; - soliq maslahati bo'yicha xizmatlar ko'rsatish to'g'risida shartnoma tuzilayotganda mijozning talabiga binoan malaka sertifikatini ko'rsatishi; - mijozga uning mansabdor shaxslari va boshqa xodimlari tomonidan zarur yetkazilganligi haqida dalolat beruvchi faktlar, shuningdek qonun hujjatlarining buzilganligi aniqlangan taqdirda, bu haqda mijozga ma'lum qilishi shart.

Soliq maslahatchilari tashkiloti tijorat tashkiloti sifatida aksiyadorlik jamiyatidan tashqari, istalgan tashkiliy-huquqiy shaklda o'z faoliyatini amalga oshirishlari mumkin. Bunda tashkilot rahbari soliq maslahatchisi sertifikatiga ega bo'lishi shart. Soliq maslahatchisi tegishli

⁷⁸ Amaldagi qonunchilik asosida tuzildi.

malaka sertifikatini olgan jismoniy shaxsdir. Soliq maslahatchisi, agar u soliq maslahatchilari tashkilotining shtatida turgan bo'lsa yoki soliq maslahatchilari tashkiloti u bilan fuqarolik-huquqiy xarakterdagi shartnoma tuzgan bo'lsa, soliq maslahatiga jalb etilishi mumkin.

Soliq maslahatchilari tashkilotlari o'z faoliyatlari davomida quyidagi huquq va majburiyatlarga ega hisoblanadi (8.1-jadval)

Soliq maslahatchisi O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tomonidan belgilangan tartibda o'z malakasini oshirishi shart. Bunda soliq maslahatchilarining malakasini oshirish har yili 1 aprelga qadar "Iqtisodiy munosabatlarni tartibga solishning huquqiy asoslari", "Soliq huquqi, yuridik va jismoniy shaxslarga soliq solish", "Buxgalteriya hisobi va hisobot" kabilarni o'z ichiga olgan "Soliq maslahatchilarining malakasini oshirish kursi dasturi" asosida amalga oshiriladi va 15 aprelga qadar Moliya vazirligiga taqdim etiladi⁷⁹.

Soliq maslahatchisi malaka sertifikatiga oliy ma'lumotga ega bo'lgan, soliq maslahatchilarini tayyorlash bo'yicha maxsus o'quv kursini o'tagan, oliy ta'lim muassasasini tamomlaganidan keyin kamida besh yillik, shu jumladan iqtisodiy yoki yuridik mutaxassislik bo'yicha kamida ikki yillik ish stajiga ega bo'lgan shaxs talabgor bo'lishi va belgilangan tartibda malaka imtihonidan o'tgan jismoniy shaxslarga sertifikat beriladi.

Mamlakatimizda soliq maslahati bo'yicha faoliyatning kafolatlari sifatida quyidagilar belgilab qo'yilgan:

Uchinchi shaxslarning soliq maslahatchilari tashkilotlarining faoliyatiga aralashishi, ulardan professional xizmatlar ko'rsatish vaqtida olingan biron-bir ma'lumotni talab qilishi, shuningdek bunday ma'lumotlarni soliq maslahatchilaridan, soliq maslahatchilarining yordamchilaridan va soliq maslahati bo'yicha xizmatlar ko'rsatish jarayonida ishtirok etayotgan boshqa shaxslardan talab qilishi taqiqlanadi.

Soliq maslahatini amalga oshirayotgan shaxslardan ular soliq maslahati bo'yicha vazifalarini bajarishlari bilan bog'liq holda tayyorlagan hujjatlarning olib qo'yilishi yoki ko'zdan kechirilishi mumkin emas.

⁷⁹ O'zbekiston Respublikasi moliya vazirining "Soliq maslahatchilarining malakasini oshirish tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida"gi 23-sonli buyrug'i. 2012. 29 fevral.

Soliq maslahatchisi va uning yordamchisi professional vazifalarini bajarishlari munosabati bilan o'zlariga ma'lum bo'lgan holatlar to'g'risida guvoh sifatida so'roq qilinishi mumkin emas.

Soliq maslahatchilari va ularning yordamchilari sud, huquqni muhofaza qiluvchi va nazorat qiluvchi organlar tomonidan ekspertlar hamda mutaxassislar sifatida, shuningdek tekshiruvlarni amalga oshirishga jalb etilishi mumkin emas.

Davlat hokimiyati va boshqaruv organlarida xizmat qiluvchi shaxslar soliq maslahatiga jalb etilishi mumkin emas.

Soliq maslahatchilari tashkiloti davlat hokimiyati va boshqaruv organlari, shuningdek xo'jalik boshqaruvi organlari tomonidan tashkil etilishi mumkin emas.

Davlat hokimiyati va boshqaruv organlarining mansabdor shaxslari, shuningdek qonun hujjatlariga muvofiq tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanishi ta'qiqlangan boshqa shaxslar soliq maslahatchilari tashkilotining muassislari bo'lishi mumkin emas.

8.2-jadval

Amaldagi soliq maslahati milliy standartlari haqida ma'lumot⁸⁰

SMMS raqami	SMMS nomi	Moliya vazirligi buyruq sanasi va raqami	AVda ro'yxatdan o'tkazilgan sana
1-sonli SMMS	Soliq maslahati bo'yicha xizmatlar ko'rsatish to'g'risida shartnoma tuzish tartibi	2012 yil 29 mart, 31-son	2012 yil 3 may
2-sonli SMMS	Soliq maslahati bo'yicha hisobot tuzish va mijozga (ishonch bildiruvchiga) taqdim etish tartibi	2012 yil 28 may, 44-son	2012 yil 28 iyun
3-sonli SMMS	Davlat soliq xizmati organlari tomonidan soliq tekshiruvlari o'tkazish vaqtida soliq maslahati bo'yicha xizmatlar ko'rsatish tartibi	2013 yil 8 yanvar, 3-son	2013 yil 6 fevral
4-sonli SMMS	Soliqqa oid nizoni sudgacha hal qilish davomida va sudda mijozning (ishonch bildiruvchining) manfaatlarini ko'zlab vakillik qilish	2013 yil 14 oktyabr, 95-son	2013 yil 28 noyabr

⁸⁰ <http://www.lex.uz> – O'zbekiston qonunchiligi milliy bazasi asosida tuzildi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2010 yil 26 noyabrdagi “2011-2015 yillarda respublika moliya-bank tizimini yanada isloh qilish va barqarorligini oshirish hamda yuqori xalqaro reyting ko‘rsatkichlariga erishishning ustuvor yo‘nalishlari to‘g‘risida”gi 1438-sonli Qaroriga ko‘ra soliq maslahatj milliy standartlarini ishlab chiqish va joriy etish, soliq malahati bo‘yicha ta‘limni olis hududlarda tashkil etish bo‘yicha soliq maslahatchilari palatasining hududiy markazlarini tashkil etish vazifalari qo‘yilgan edi. Shu asosda quyidagi soliq maslahati milliy standartlari ishlab chiqildi va amaliyotga joriy etildi (8.2-jadval).

Bevosita har bir soliq maslahati milliy standartiga to‘xtalib o‘tadigan bo‘lsak, soliq maslahati bo‘yicha xizmatlar ko‘rsatish to‘g‘risida shartnoma tuzish tartibini belgilab beruvchi 1-sonli SMMS 3-bandiga ko‘ra bu standart “buxgalteriya hisobini yo‘lga qo‘yish, tiklash va yuritish; moliyaviy hisobot tuzish; buxgalteriya hisobi, menejment va moliya-xo‘jalik faoliyatining boshqa masalalari bo‘yicha konsalting xizmatlari” ko‘rsatishga tatbiq etilmasligi keltirib o‘tilgan. Shuningdek bunday xizmatlar bo‘yicha shartnoma tuzish tartibi boshqa standartlarda o‘z aksini topmagan. Mazkur holatda o‘z-o‘zidan “Bunday xizmatlarni ko‘rsatish bo‘yicha shartnoma tuzish tartibi qaysi standart bilan tartibga solinadi?”, degan savol tug‘iladi. Umumiy holda shartnomaviy munosabatlarni tartibga solish bo‘yicha yagona standartning amal qilishi maqsadga muvofiq. Bundan tashqari bevosita qonun asosida shug‘ullanish mumkin bo‘lgan faoliyat yo‘nalishi sifatida keltirilgan buxgalteriya hisobini yo‘lga qo‘yish, tiklash va yuritish; moliyaviy hisobot tuzish; buxgalteriya hisobi, menejment va moliya-xo‘jalik faoliyatining boshqa masalalari bo‘yicha konsalting xizmatlari bo‘yicha alohida standart qabul qilish shart emas, deb hisoblaymiz.

Soliq maslahati bo‘yicha hisobot tuzish va mijozga (ishonch bildiruvchiga) taqdim etish tartibini belgilab beruvchi 2-sonli SMMSning maqsadi mijozga (ishonch bildiruvchiga) soliq maslahati bo‘yicha xizmat ko‘rsatuvchi soliq maslahatchilari tashkiloti tomonidan

solliq maslahati bo'yicha hisobot tuzish va taqdim etish tartibini belgilash hisoblanadi.

Davlat solliq xizmati organlari tomonidan solliq tekshiruvlari o'tkazish vaqtida solliq maslahati bo'yicha xizmatlar ko'rsatish tartibini belgilab beruvchi 3-sonli SMMSning maqsadi mijozga (ishonch bildiruvchiga) solliq maslahati bo'yicha xizmat ko'rsatuvchi solliq maslahatchilari tashkiloti tomonidan solliq maslahati bo'yicha hisobot tuzish va taqdim etish tartibini belgilash hisoblanadi. Solliq tekshiruvlari o'tkazish vaqtida solliq maslahati bo'yicha xizmatlar shartnoma asosida ko'rsatiladi va quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- tekshiruv vaqtida vujudga kelayotgan aniq ko'rsatilgan savollar bo'yicha xulosa berish, ushbu savollar bo'yicha mijozning (ishonch bildiruvchining) davlat solliq xizmati organlari oldidagi nuqtai nazarini tasdiqlovchi hujjatlarni (isbotlarni) taqdim etish yuzasidan tavsiyalar ishlab chiqish;

- solliq tekshiruvi doirasida amalga oshirayotgan harakatlarni kuzatib borish (solliq to'lovchining hududi va joylarini ko'zdan kechirish, mol-mulkini inventarizatsiya qilish, hujjatlar va predmetlarni olib qo'yish va boshqalar) hamda o'tkazilayotgan harakatlar qonuniyligi to'g'risida mijozga (ishonch bildiruvchiga) xulosa taqdim etish;

- solliq tekshiruvi natijalarini (solliq tekshiruvi dalolatnomasini) muhokama qilishda davlat solliq xizmati organlarining mansabdor shaxslari oldida mijozning (ishonch bildiruvchining) manfaatlarini ifoda etish.

Davlat solliq xizmati organlari tomonidan solliq tekshiruvlari o'tkazish vaqtida solliq maslahati bo'yicha xizmatlar ko'rsatish bo'yicha shartnomada solliq tekshiruvi natijalari bo'yicha davlat solliq xizmati organining qarori ustidan shikoyat berish bo'yicha tavsiyalar tayyorlash nazarda tutilishi mumkin.

Solliqqa oid nizoni sudgacha hal qilish davomida va sudda mijozning (ishonch bildiruvchining) manfaatlarini ko'zlab solliq maslahatchilarining vakillik qilish tartibini belgilab beruvchi 4-sonli SMMS sudgacha yoki sudda solliqqa oid nizolarni ko'rib chiqishda

mijozning manfaatlarini ko‘zlab vakillik qilishni nazarda tutadi. Bunda ko‘rsatiladigan xizmatlar turlari quyidagi jadvalda keltirilgan (8.3-jadval).

Soliq maslahatchilari tashkiloti mijozga (ishonch bildiruvchiga) soliqqa oid nizo bo‘yicha barcha vaziyatlar va yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan oqibatlarini tushuntiradi.

Umuman soliqqa oid nizolarni sudgacha hal qilish davomida va sudda mijozning (ishonch bildiruvchining) manfaatlarini ko‘zlab soliq maslahatchilarining vakillik qilishlarini majburiy tartibda amaliyotga joriy etish lozim, deb o‘ylaymiz.

8.3-jadval


Soliqqa oid nizoni sudgacha hal qilish davomida va sudda mijozning (ishonch bildiruvchining) manfaatlarini ko‘zlab vakillik qilishda soliq maslahati bo‘yicha xizmatlar⁸¹

Soliqqa oid nizoni sudgacha hal qilish davomida mijozning (ishonch bildiruvchining) manfaatlarini ko‘zlab vakillik qilish uchun soliq maslahati bo‘yicha xizmatlar	Sudda mijozning (ishonch bildiruvchining) manfaatlarini ko‘zlab vakillik qilishda soliq maslahati bo‘yicha xizmatlar
<ul style="list-style-type: none"> - soliq tekshiruvi materiallari, ularni ko‘rib chiqish tartibi, shuningdek soliq tekshiruvi materiallarini ko‘rib chiqish natijalari bo‘yicha davlat soliq xizmati organi qarorining qonun hujjatlari talablariga muvofiqligini tahlil qilish; - davlat soliq xizmati organining qarori ustidan shikoyat qilish uchun huquqiy nuqtai nazarni ishlab chiqish; - mijozning (ishonch bildiruvchining) nuqtai nazarini tasdiqlovchi hujjatlarni yig‘ish; - davlat soliq xizmati organining qarori ustidan yuqori davlat soliq xizmati organiga shikoyat tayyorlash va berish; - davlat soliq xizmati organining qarori ustidan shikoyat ko‘rib chiqilayotganda yuqori davlat soliq xizmati organlarida mijozning (ishonch bildiruvchining) manfaatlarini ko‘zlab vakillik qilish. 	<ul style="list-style-type: none"> - soliq tekshiruvi materiallari, ularni ko‘rib chiqish tartibi, shuningdek soliq tekshiruvi materiallarini ko‘rib chiqish natijalari bo‘yicha davlat soliq xizmati organi qarorining qonun hujjatlari talablariga muvofiqligini tahlil qilish; - shikoyat qilish uchun huquqiy nuqtai nazarni ishlab chiqish va davlat soliq xizmati organining qarori ustidan sudga shikoyat qilish; - mijozning (ishonch bildiruvchining) nuqtai nazarini tasdiqlovchi hujjatlarni yig‘ish; - qonun hujjatlariga muvofiq davlat soliq xizmati organining qarori ustidan sudga da‘vo kiritish va sud hujjatlari ustidan shikoyat qilish; - sudda mijozning (ishonch bildiruvchining) manfaatlarini ko‘zlab vakillik qilish.

⁸¹ 4-sonli SMMS asosida tuzildi.


Mamlakatimizda soliq maslahati qonun ustuvorligi, mustaqillik va maxfiylik tamoyillariga asoslangan holda tashkil etiladi.

Umuman, korporativ moliyani boshqarishda soliq munosabatlarini samarali tashkil etish maqsadida soliq maslahati xizmati ko'rsatish quyidagi model asosida tashkil etiladi (8.2-rasm).



8.2-rasm. Korxonalarda soliq maslahati konsepsiyasi

Mamlakatimizda faoliyat ko'rsatayotgan soliq maslahati tashkilotlari, malaka sertifikatiga ega soliq maslahatchilari soni yildan-yilga ortib bormoqda. O'z navbatida bu jihat ko'rsatilayotgan soliq maslahati hajmi ham o'sish tendensiyasiga ega bo'lmoqda (8.3-rasm).



8.3-rasm. O'zbekistonda soliq maslahati tashkilotlari va soliq maslahatchilari soni hamda ular tomonidan ko'rsatilayotgan xizmatlar hajmi⁸²

Yuqoridagi 4.5-rasm ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, 2010 yil 1 yanvar holatiga mamlakatimizda 18 ta soliq maslahati tashkiloti va 26 ta soliq maslahatchisi mavjud bo'lgan bo'lsa, 2017 yil 1 yanvarga kelib soliq maslahati tashkilotlari soni 77 taga, soliq maslahatchilari soni esa 126 taga etgan. Soliq maslahati xizmatlari hajmi 2016 yilda 2009 yilga nisbatan deyarli 33,6 baravar yuqori miqdorini tashkil etgan. Bunda oxirgi moliya yilida 8050,5 million so'mlik soliq maslahati xizmati ko'rsatilganligini ta'kidlashimiz lozim. Umumiy holda mazkur sohada xizmat ko'rsatish hajmi doimiy o'sish tendensiyasiga ega bo'lib kelmoqda. Soliq maslahati xizmatining bevosita soliq maslahati tashkilotlari tomonidan ko'rsatilishidan kelib chiqqan holda korrelyatsion va regression bog'liqlikni ko'rib chiqamiz (8.3-jadval).

⁸² O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi ma'lumotlari asosida tuzildi.

8.3-jadval

Soliq maslahati tashkilotlari soni va ular tomonidan ko'rsatilgan xizmatlar hajmi o'zgarishiga korrelyatsion bog'liqligi⁸³

Yillar	x - Soliq maslahati tashkilotlari soni (dona), x̄ - Soliq maslahati tashkilotlarining o'rtacha soni (dona), y - ko'rsatilgan xizmatlar hajmi (mln. so'm), ȳ - ko'rsatilgan xizmatlar hajmining o'rtacha hajmi (mln. so'm)						
	x	y	x _i -x̄	y _i -ȳ	(x _i -x̄)* (y _i -ȳ)	(x _i -x̄) ²	(y _i -ȳ) ²
2009	18	239,9	-27,6	-2890,9	79860,42	763,1	8357158,3
2010	23	592,5	-22,6	-2538,3	57428,47	511,9	6442840,0
2011	31	1325,9	-14,6	-1804,9	26396,3	213,9	3257573,8
2012	41	2233,5	-4,6	-897,3	4149,897	21,4	805102,4
2013	55	2903,1	9,4	-227,7	-2134,45	87,9	51835,9
2014	56	4056,9	10,4	926,1	9608,547	107,6	857707,5
2015	64	5643,9	18,4	2513,1	46178,67	337,6	6315797,3
2016	77	8050,5	31,4	4919,7	154356,4	984,4	24203694,1
JAMI	365,0	25046,2	0,0	0,0	375844,2	3027,9	50291709,2

$$r_{xy} = \frac{\sum(x_i - \bar{x}) \times (y_i - \bar{y})}{\sqrt{\sum(x_i - \bar{x})^2 \times \sum(y_i - \bar{y})^2}} = 0,96.$$

8.4-jadval

Soliq maslahati tashkilotlari soni va ular tomonidan ko'rsatilgan xizmatlar hajmi o'rtasidagi regression bog'liqlik⁸⁴


Yillar	x - Soliq maslahati tashkilotlari soni (dona), y - ko'rsatilgan xizmatlar hajmi (mln. so'm)			
	x	y	x * y	x * x
2009	18	239,9	4318,2	324,0
2010	23	592,5	13627,5	529,0
2011	31	1325,9	41102,9	961,0
2012	41	2233,5	91573,5	1681,0
2013	55	2903,1	159670,5	3025,0
2014	56	4056,9	227186,4	3136,0
2015	64	5643,9	361209,6	4096,0
2016	77	8050,5	619888,5	5929,0
	365,0	25046,2	1518577,1	19681,0

⁸³ O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi ma'lumotlari asosida muallif hisob-kitobi.

⁸⁴ O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi ma'lumotlari asosida muallif hisob-kitobi.

$$y = bx + a \quad b = \frac{N \times \sum XY - (\sum X) \times (\sum Y)}{N \times \sum X^2 - (\sum X)^2} = 124,13 \quad a = \frac{\sum Y - b \times \sum X}{N} = -2532,57$$

$y = 124,13x - 2532,57$ asosida grafik shakllantirilganda regression bog‘liqlik quyidagicha ekanligi aniqlandi (8.4-rasm).



8.4-rasm. Soliq maslahati tashkilotlari soni va ular tomonidan ko'rsatilgan xizmatlar hajmi o'zgarishiga regression bog'liqlik⁸⁵

Keltirilgan grafik ko'rsatib turibdiki, tashkilotlar soni ortishiga mutanosib ravishda xizmat ko'rsatish hajmi ham ortib bormoqda.

Mamlakatimizda faoliyat ko'rsatayotgan soliq maslahati tashkilotlari faoliyati o'rganilganda, ular tomonidan ko'rsatilayotgan xizmatlarga alohida e'tibor qaratildi. Xususan, United Tax Advisors soliq maslahati tashkiloti tomonidan quyidagi soliq maslahati xizmatlari taklif qilinayotganligini ko'rishimiz mumkin:

- soliq maslahati;
- soliqqa tortishni optimallashtirish;
- soliq tekshiruvlariga korxonalarni tayyorlash;
- tuzilayotgan shartnomalarning soliq oqibatlarini dastlabki baholash;

⁸⁵ O'zR Moliya vazirligi ma'lumotlari asosida tuzilgan.

- soliq organlari bilan o'zaro munosabatlarni huquqiy ekspertiza qilish;

- sudgacha instansiyalarda va sudda solikli bahslarni ko'rib chiqish;

- valyuta va eksport-import operatsiyalarini amalga oshirishda yuzaga kelishi mumkin bo'lgan xatolarning oldini olish;

- soliq imtiyozlaridan foydalanish imkoniyatlari bo'yicha konsultatsiyalar;

- xalqaro soliq bitimlarining qo'llanilishi (ikki marta soliqqa tortishning oldini olish).

"GLOBAL-TAX-CONSULT" mas'uliyati cheklangan jamiyat shaklidagi soliq maslahati tashkiloti tomonidan soliq to'lovchilarga ko'rsatilayotgan xizmatlar esa quyidagilardir:

- soliqqa tortish masalalari bo'yicha mijozga maslahat;

- soliq ekspertizasi;

- konkret bitimlar bo'yicha soliqlarni rejalashtirish;

- alohida soliqlarni boshqarish;

- biznesda kompleks soliq hamrohligi;

- buxgalteriya hisobi outsorsingi.

O'z navbatida "TAX CONSULT BENEFIT" soliq maslahati tashkiloti o'z faoliyati davomida soliqqa tortish masalalari bo'yicha maslahat; soliq maslahati bo'yicha maslahatlar; soliq hisobotini tuzish jarayonida yordam ko'rsatish; soliq ekspertizasi; soliq tekshiruvlarini o'tkazish vaqtidagi maslahat; soliqqa tortish obyektlari hisobini aniqlash va yuritish; soliqqa tortish masalalari bo'yicha, shu jumladan O'zbekiston Respublikasi rezidentlariga vakillik qilish; nollik stavka bo'yicha QQSni qaytarish yuzasidan hujjatlarni tayyorlash bo'yicha soliq maslahati xizmatlarini ko'rsatmoqda.

Respublikamizdagi soliq maslahati tashkilotlari tomonidan ko'rsatilayotgan xizmat turlarini ilovadan ham ko'rishimiz mumkin (1-ilovaga qarang).

Soliq maslahati bo'yicha amaldagi holatni bevosita iste'molchi hisoblangan soliq to'lovchilar orqali o'rganish maqsadida 2-ilovada

keltirilgan anketa-so'rovnomaga o'tkazildi. Anketa so'rovnomaga natijalarini 3-ildavda umumlashtirgan holda keltirdik (2-3 ilovalarga qarag). Umumiy holda so'rovnomaga natijalari sifatida quyidagilarni keltiramiz:

Birinchidan, soliq maslahati xizmatidan yuridik shaxslar nisbatan kengroq foydalanib kelmoqda va ularning xabardorlik darajasi yuqori.

Ikkinchidan, soliqqa doir masalalar bo'yicha eng ko'p murojaatlar soliq to'lovchi yuridik shaxslarga to'g'ri keladi. Bu jihatdan faoliyatdagi murakkablik bilan ham bog'liq.

Uchinchidan, soliq maslahati olish uchun soliq to'lovchi yuridik shaxslarning soliq organlariga murojaatlari, auditorlik tashkilotlari xizmatlaridan foydalanishlari, soliq maslahatchilari tashkilotlarini jalb qilishlari, rasmiy manbalardan keng foydalanayotganligini ko'rishimiz mumkin. Masala yuzasidan soliq organlariga to'g'ridan-to'g'ri yozma tarzda murojaat qilishning keng qo'llanilishi, soliq tekshiruvlari vaqtida asoslash bilan bevosita bog'liq.

To'rtinchidan, soliq maslahatini istiqbolda rivojlantirishdan maqsad o'rganilganda soliq to'lovchilar, xususan soliq to'lovchi yuridik shaxslar ham birinchi navbatda soliq majburiyatlarini o'z vaqtida bajarishni ta'minlash uchun zarurligi ta'kidlangan. Soliqlarni rejalashtirish masalasi esa ikkilamchi masala ekanligini ko'rish mumkin.

Nazorat savollari

1. Soliq maslahati xizmatining tashkiliy-huquqiy asoslari.
2. Soliq maslahati xizmati yo'nalishlari.
3. Soliq maslahati milliy standartlari.
4. Soliq maslahatchilari tashkilotining huquq va majburiyatlari.
5. Soliq maslahati tashkilotlarini ta'sis etish va faoliyat mexanizmi.
6. Soliq maslahatchisi malaka sertifikatini olish bo'yicha talablar.
7. Soliq maslahatchilari tashkilotlari tomonidan ko'rsatilayotgan xizmatlar.

9-BOB. SOLIQ MASLAHATI FAOLIYATINI TASHKIL ETISHNING XORIJ TAJRIBASI

Mamlakatimizda korporativ moliyaviy munosabatlarni tashkil etishda, xususan soliq munosabatlarida soliq maslahati institutining ahamiyatini oshirishda bu boradagi rivojlangan mamlakatlar tajribasini o'rganish muhim hisoblanadi. Shu boisdan soliq maslahati faoliyatini tashkil etish bo'yicha xalqaro tajriba xususida quyida to'xtalib o'tamiz.

Germaniyada soliq maslahatchiligi qariyb bir asrlik tajriba va an'anaga ega. Mamlakatda bu sohaning iqtisodiy taraqqiyot uchun dolzarbligi quyidagilar bilan bog'lanadi:

- soliq qonunchiligining murakkabligi va uning doimiy ravishda soliq to'lovchilarga ma'lum bir talablar qo'yib borishi;

- soliq ma'murchiligi va soliq to'lovchi o'rtasidagi o'zaro ziddiyatli vaziyatlar doimiy mavjudligi;

- soliq munosabatlarida oddiy soliq to'lovchining professional soliq maslahati bilan shug'ullanuvchi shaxslar tomonidan taklif etiladigan yordamga muhtojligi;

- soliq majburiyatlarini bajarish jarayonida yordam ko'rsatishidan tashqari qonunchilik doirasida soliq yukini kamaytirishga qaratilgan faoliyat sifatida ham namoyon bo'lishi;

- korxonalarining soliqqa tortish bilan bog'liq muammolarini hal qilish uchun iqtisodiy bilimning alohida sohasi shug'ullanishi lozimligi.

Bugungi kunda Germaniyada soliq maslahatchiligi faoliyati "Soliq maslahatchiligi to'g'risida"gi Qonun bilan tartibga solinadi va bu qonun qabul qilinganiga tez orada 50 yil to'ladi. 2008 yilga kelib bu qonunga sakkizinchi tuzatish kiritilgan⁸⁶. Hozirgi kunda mamlakatda 80 mingdan ortiq jismoniy shaxs tasnifidagi akkreditatsiyadan o'tgan soliq maslahatchilari va faoliyat obyekti soliq maslahatchiligi bo'lgan 9 mingga yaqin yuridik shaxslar faoliyat yuritib kelmoqda.⁸⁷ Bu sohada kadrlar tayyorlash qat'iy ta'lim standartlari asosida alohida stajirovkalarga yo'naltirilgan holda tashkil etiladi.⁸⁸

⁸⁶ Налогообложение: проблемы науки и практики – 2009: Монография / Под ред. Ю.Б.Иванова. Харьков: ИД ИНЖЕК, 2009. С. 100-101.

⁸⁷ Rudolf Reibel. European Professional Affairs Handbook for Tax Advisers. Second edition. Confederation Fiscale Europeenne, 2013. P. 151.

⁸⁸ Урман Н.А. Налоговое консультирование: развитие и проблемы // Вестник Томского государственного университета. Томск: Экономика, 2013. №4. С. 154.

Mutaxassislarning bunday darajada ko'pligini soliq maslahati xizmatiga bo'lgan soliq to'lovchilarning yuqori talabi bilan izohlash mumkin. Lekin bu masalaning bir tomoni. Boshqa tomondan mazkur faoliyatni alohida qonun bilan tartibga solish, iste'molchilarni soliq sohasi bo'yicha qoniqarsiz maslahatlardan umumiy tartibda himoya qilishga mos davlatning ham aniq bir manfaati mavjud.

“Soliq maslahatchilari nima uchun kerak?” degan savolga javob topishda hisobga olinishi lozim bo'lgan muhim jihatlardan biri soliq ma'murchiligi va soliq to'lovchi o'rtasidagi o'zaro ziddiyatli vaziyatlar doimiy mavjudligi haqida yuqorida ham qayd etib o'tdik. Lekin bu yerda subyektiv omilning ham muhim rol o'ynashini ko'rish mumkin. Soliqqa tortishning huquqiy me'yorlari dastlabki muallifi sifatida mos qonun loyihalarini ishlab chiquvchi moliya-soliq ma'muriyati vakillari ko'zga tashlansa, soliq organlari xodimlari esa o'z kundalik professional faoliyatida bunday soliq qonunchiligi asosida rahbarlik qiladi. Soliq to'lovchilar uchun soliqlarni to'lash bilan bog'liq masalalarni hal qilish ular faoliyatining majburiy bir qismi, xolos.

Haqiqatda soliq qonunchiligi yurisprudensiya tilidaligi sababli har kim ham to'liq tushungan holda qabul qilavermaydi. Bunday asosda noto'g'ri tushunish, yetarlicha tushunmaslik, huquqiy me'yorlarning o'z o'rnida qo'llanilmasligi soliq to'lovchining hech qanday aybisiz soliq ma'murchiligi aybi bilan soliq bilan bog'liq turli ziddiyatlarni yuzaga keltiradi va soliq to'lovchilar qo'shimcha moliyaviy yo'qotishlariga sabab bo'ladi. Mazkur holat soliqqa tortishning me'yoriy bazasidagi o'zgarishlardan so'ng keskin ta'sir ko'rsatishini ta'kidlashimiz lozim. Masalan, o'tkazilgan soliq islohoti natijasida ularning kuchga kirishi dastlabki onlaridanoq soliq to'lovchi o'z qarorlarida barcha o'zgarishlarni hisobga olishga majbur. Bunda soliq tekshiruviga qadar yoki hech bo'lmaganda dastlabki soliq davrining oxiriga qadar o'zgarishlarni hisobga olish talab etiladi. Umumiy holda ta'kidlash mumkinki, davlat va soliqlarni undirish mavjud ekan soliq munosabatlari tomonlari o'rtasidagi ziddiyatli holatlardan to'liq qochish mumkin bo'lgan mamlakatni topishning imkoni yo'q. Shuni alohida qayd etish kerakki, solikli ziddiyatlar muammolari umumiy mohiyati bir xilligi sharoitida turli mamlakatlarda ularning oldini olish va bartaraf etish yo'llari va usullari, ularni hal qilishning qonuniy asoslari va ijtimoiy-huquqiy madaniyati, shuningdek ularni ko'rib chiqish jarayoni

o'zaro farqlanadi. Germaniyada solikli ziddiyatlarni hal qilishda soliq maslahatchilari markaziy o'rinni egallaydi.

Germaniyada soliq maslahatchiligi samarali faoliyati natijasida bevosita davlat va soliq to'lovchilar manfaatlariga xizmat qilishini ta'kidlashimiz lozim. Mamlakatda soliq maslahati xizmati iste'molchilari sifatida birinchi navbatda xususiy tadbirkorlik va tijorat tashkilotlari tipidagi kichik va o'rta biznes vakillari ko'zga tashlanadi. Keyingi o'rinlarda esa yollanma ishchilar, mulkni ijaraga beruvchilar, omonatchilar, nafaqaxo'rlar, meros egalari guruhi hamda soliqqa tortiladigan daromadga ega notijorat tashkilotlari turadi. Soliq maslahatchilari o'z mijozlari hisoblangan soliq to'lovchilarga shartnoma asosida soliq majburiyatlarini o'z vaqtida va sifatli bajarishlariga yordam berish maqsadida o'z xizmatlarini taklif etadi. Germaniyada soliq maslahatchilari kichik va o'rta biznes subyektlari buxgalteriya hisobini yuritish, moliyaviy va soliq hisobotlarini tuzish bo'yicha ham xizmat ko'rsatishlari mumkin. Bunda shuni alohida ta'kidlash kerakki, mijozga shtat asosida buxgalter yoki soliq menejeri jalb qilgandan ko'ra soliq maslahati xizmatidan foydalanish iqtisodiy jihatdan samarali hisoblanadi. Soliq maslahatchisi bajarilgan ishlar bo'yicha javobgarlikni o'z zimmasiga oladi. Mijozga yetkazilishi mumkin bo'lgan zararni qoplash maqsadida majburiy sug'urta amal qiladi. Shubhasiz, mazkur jihatlar soliq to'lovchi uchun bu foydalidir.

Bu tizimda soliq organlari va boshqa tarmoq tashkilotlari uchun ham afzallik jihatlar mavjud. Tajriba shuni ko'rsatadiki, sifatli soliq maslahati, shubhasiz soliqlar va majburiy ajratmalar undirish, shuningdek, soliq organlari va byudjetdan tashqari maqsadli jamg'armalar faoliyat samaradorligini oshirish imkonini beradi. Har yili soliq ma'murchiligi umumiy qarori bilan soliq maslahatchilari xizmatidan soliq to'lovchilar foydalanish orqali yillik soliq deklaratsiyalari topshirish muddatini 4-7 oyga uzaytirishlari muntazam qo'llab-quvvatlanmoqda. Boshqa tomondan soliq maslahatchilari faoliyati o'z xususiyatiga ko'ra soliq organlari ish faoliyati ustidan tashqi nazorat vazifasini ham bajaradi.

Soliq to'lovchilar soliq maslahatchilariga soliq organlariga zaruriy hujjatlarni tayyorlash lozimligi uchun murojaat qilish bilan birga soliqlar bo'yicha ortiqcha to'lov yoki yetarlicha to'lanmaganlik holatlarini aniqlash, mijozning umumiy moliyaviy holatini aniqlash masalalari bo'yicha ham murojaat qilishadi. Mijozlar, xususan korporativ

tuzilmalar uchun qonunchilik yo‘l qo‘ygan chegarada soliq yukini kamaytirish maqsadida soliqlarni rejalashtirish yoki boshqa xo‘jalik maqsadlarida ularni optimallashtirish muhim o‘ringa ega. Tajriba shuni ko‘rsatadiki, istiqboldagi soliq islohotlari sharoitida bunday xizmat turiga talab keskin oshadi. Bunda odatda yangi huquqiy me‘yor kuchga kiringunga qadar yoki kuchga kiringandan keyin korporativ tuzilma tomonidan biror bir qaror qabul qilishning maqsadga muvofiqligi borasidagi masala ko‘rib chiqiladi. Soliq maslahatidan xususiy foyda shubhasiz. Lekin soliq maslahatining davlat uchun ijtimoiy samarasi haqida soliq organlari vakillari va fan vakillarida ayrim holatlarda shubha paydo bo‘lishi ham mumkin.

Germaniyada umumtanolangan soliqqa tortish tamoyillari amal qiladi. Bunday tamoyillardan biri soliqqa tortishdagi adolatlilik tamoyilidir. Sifatli soliqlarni rejalashtirish, shubhasiz, bu ijtimoiy tamoyilni qo‘llash imkonini beradi. Soliqlarni rejalashtirish natijasida soliqqa tortishning me‘yoriy-huquqiy bazasida “mukammal ishlanmaganlik” ko‘zga tashlanishi birinchi navbatda soliq to‘lovchining huquqi yuqori turishidan kelib chiqqan holda oxir-oqibat soliq qonunchiligining to‘g‘rilanishiga olib keladi. Bunday holatda soliq maslahatchiligi o‘z-o‘zidan qonunchilik sifatini oshirish imkonini beradi.

Germaniyada soliq maslahatchilari soliq huquqi sohasidagi sud-huquq tizimining ajralmas tarkibiy qismi hisoblanishi belgilab qo‘yilgan. Ular o‘zlarining vakolatlari, professional etikaning umumtanolangan me‘yorlari doirasida o‘z mijozlarining qonuniy huquq va manfaatlari bo‘yicha soliq organlari va sud-huquq organlari oldida vakillik qilishga, himoya qilishga va bahslashishga majburdir. Bu yerda ahamiyatli jihati sud jarayonigacha soliq munozaralarini ko‘rib chiqadi va bu o‘z navbatida mijozlarning huquqini himoya qilishga ketadigan ma‘lum bir miqdordagi xarajatlarini ongli ravishda tejash imkonini beradi. Soliq huquqining o‘ziga xos xususiyatlari va uning iqtisodiyot hamda hisobot tizimi bilan o‘zaro aloqadorligi soliq maslahatchilarining huquq sohasidagi o‘rnini yanada mustahkamlaydi.

Xalqaro amaliyotda soliq maslahatchilari aynan vositachi sifatida maydonga chiqadi va bu amaliyot IHTTning 2008 yil yanvar oyidagi soliq ma‘murchiligi bo‘yicha forumi ekspertizasi tomonidan ijobiy baholangan⁸⁹. Soliq organlari va soliq to‘lovchilar o‘rtasidagi turli xil

⁸⁹ Зарипов В.М. Роль ОЕСР в противодействии агрессивному налоговому планированию.

qarashlar va muammolarni soliq munozaralarigacha yetkazib bormasdan, ziddiyatlardagi o'zaro jiddiy qarama-qarshiliklarni keyingi darajaga surib qo'ygan holda amaliy darajada hal qilish mumkin. Soliq to'lovchi manziliga kelib tushgan savollar va so'rovlarga javoblar mansabdor shaxslar tomonidan qiyinchilik bilan o'zlashtiriladi. Ko'pincha soliq organi uchun soliq maslahatchilarining ma'lum bir me'yoriy holat mohiyatini soliq to'lovchilarga zaruriy tarzda yetkazishda ishtirok etishiga hojat yo'q. Germaniyada moliya-soliq organlari va soliq maslahatchilari o'rtasidagi munosabatlar umumiy planda boshqalardan ajralib turgan holda o'zaro hurmat hamda soliq tizimidagi belgilangan o'rnidan kelib chiqqan holda bir-birini tushunish tamoyillari asosida tashkil etiladi. Bunday faoliyat soliq to'lovchi uchun bo'lgani kabi davlat uchun ham foydadan holi emas. Soliq organlari faoliyat samaradorligining o'sishi va soliq to'lovchilar o'rtasida soliq maslahati faoliyati bevosita davlat uchun ijtimoiy-iqtisodiy samara keltirishini alohida ta'kidlash mumkin.

Germaniyada soliq maslahatchilari soliqqa tortish bilan bevosita bog'liq xizmatlar bilan birga "Soliq maslahatchiligi to'g'risida"gi qonun bilan tartibga solinmaydigan konsalting tipidagi xizmatlarni ham ko'rsatadi. "Korxonalarda mavjud ma'lumotlar bazasi asosida soliq maslahatchilari korxonaga boshqarishdagi kundalik muammolarni hal qilishda ham soliq to'lovchilarga yordam berishi mumkin. Ular orasida iqtisodiy tahlil, xarajatlar kalkulyatsiyasi, loyiha-smeta hujjatlarini tayyorlash, narx shakllanishini boshqarish, joriy va strategik rejalashtirish, bank kreditlari olish uchun hujjatlarni tayyorlash bilan bog'liq masalalar ajralib turadi".⁹⁰ Soliq maslahatchilari tadbirkorlarga munosabat bo'yicha belgilab berilgan mazkur istisno holatlardan minnatdor bo'lib, ular boshqaruvdagi xatolar sababli moliyaviy holatdagi nuqsonlarni belgilash va ularga qarshi chora-tadbirlarni taklif qilish orqali korxonalarni bankrotlikdan himoya qilishlari mumkin. Bu o'z navbatida ish joylarini saqlashga qaratilgan umumdavlat vazifasini bajarishda yordam ko'rsatayotganligini anglatadi. Mazkur holat ham soliq maslahatchiligi faoliyatining xususiy va ijtimoiy samarasining o'zaro yonma-yonligiga yaqqol misol bo'la oladi.

"Rivojlangan mamlakatlar, jumladan, Yaponiya, Janubiy Koreya va Germaniya singari davlatlar tajribasi shuni ko'rsatmoqdaki, soliq

⁹⁰ Буссе Р. Налоговое консультирование в современной системе налогообложения: опыт Германии // Налогообложение: проблемы науки и практики / Под ред. Ю.Б.Иванова. Харьков: ИНЖЕК, 2009. С. 104-105.

madaniyatining yuqori bo'lishi jamoatchilik munosabatlari (Public Relations)ning keng miqyosda shakllanganligi bilan bevosita bog'liqdir. Ushbu mamlakatlardagi soliq xizmati organlari ulardagi ko'plab kompaniyalarda bo'lgani singari jamoatchilik bilan ishlash bo'limlariga ega bo'lishib, bu ham o'z navbatida soliq maslahatiga oid xizmatlar ko'rsatishni aks ettiradi. Nafaqat soliq xizmati organlari, balki tadqiqotimizning obyekti bo'lgan soliq maslahatchilari tashkilotlari ham o'z tashkiliy strukturalarida Public relations department, ya'ni jamoatchilik bilan ishlash bo'limlariga ega bo'lishi, bu ular tomonidan ko'rsatiladigan soliq maslahati xizmatlarining sifatini yanada ko'tarilishiga imkon yaratadi".⁹¹

Rivojlangan mamlakatlarning tajribasi ko'rsatishicha, bozor iqtisodiyoti sharoitida moliyaviy xizmatlar bozorining audit, konsalting, mikrokreditlash, baholash xizmatlari, advokatura va hokazo subyektlari bilan bir qatorda soliq maslahati ham muvaffaqiyat bilan faoliyat yuritadi. Rossiya Federatsiyasi konsultantlar Assosiatsiyasi tajribasi ko'rsatishicha, rossiyalik mijozlar 85-90 foiz holatda quyidagi muammolarni hal qilishda yordam so'rab konsultantlarga murojaat etadi: moliyalashtirish manbalarini qidirish, tovarlarni sotish va soliq to'lovlarini kamaytirish.

... Bu holatda konsultantlar ekspert sifatida maslahat berishning asosiy metodlaridan foydalangan holda ishlaydilar va birinchi muammoni hal qilish uchun biznes-reja va investitsion arizolarni ko'rib chiqadilar, ikkinchisi uchun – marketing tadqiqotlarini o'tkazadilar, uchinchisi uchun soliqqa tortish bo'yicha maslahat berishni amalga oshiradilar.⁹²

Barcha bozor iqtisodiyoti rivojlangan mamlakatlarda professional soliq maslahati yuqori talabga ega hamda serdaromad ish bo'lib hisoblanadi. Masalan, Avstraliyada mamlakat aholisi 18 mln kishi, soliq boshqaruvida 18 ming kishi band, professional soliq maslahati sohasida esa 22 ming kishi faoliyat yuritadi.⁹³

Xorijiy mamlakatlarda, xususan Yevropa qit'asida soliq maslahatchiligi bozorining holatini ko'rib chiqadigan bo'lsak, 1959 yildan buyon Yevropa soliq maslahatchilari konfederatsiyasi faoliyat

⁹¹ Sherov S. Respublikada soliq maslahati xizmatlarini rivojlantirish istiqbollari // Bozor, pul va kredit. T., 2015. №7. B. 34.

⁹² Попов В.М., Ляпунов С.М., Касаткин А.А. Бизнес планирование: анализ ошибок, рисков и конфликтов. М.: КноРус, 2003. С. 85.

⁹³ Налогообложение: планирование, анализ и контроль/ Под ред. Л.Е. Голишчевой. М.: Кнорус, 2009. С. 13.

yuritib kelmoqda. Hozirgi kunga kelib bu konfederatsiya 160 mingdan ortiq soliq maslahatchilarini o'z ichiga olgan 33ta Yevropa mamlakatlari soliq maslahatchilari professional uyushmalarini birlashtiradi⁹⁴. Bu borada statistika Yevropa mamlakatlari bo'yicha har 10 ta soliq organi xizmatchisiga 11 ta soliq maslahatchisi to'g'ri kelishiga guvohlik beradi va bu ko'rsatkich o'z-o'zidan professional soliq maslahatchiligiga bo'lgan talabni o'zida ifodalaydi.⁹⁵

Yevropa mamlakatlarida soliq maslahatchilari tomonidan soliqdan boshqa sohalar bo'yicha ham xizmat ko'rsatishga alohida e'tibor qaratiladi va bunga imkoniyat yaratib berilgan (9.1-jadval).

9.1-jadval

Evropa mamlakatlarida soliq maslahatchilari tomonidan ko'rsatiladigan xizmatlar haqida ma'lumot⁹⁶

mamlakatlar soni bo'yicha

№	Faoliyat turlari	1	2	3	4
1	Buxgalteriya hisobi va kompaniyalar				
1.1	Buxgalteriya xizmatlari	7	7	3	2
1.2	Pensiya bo'yicha xizmatlar	8	4	5	2
1.3	Ijtimoiy himoya bo'yicha xizmatlar	8	6	5	1
1.4	Ijtimoiy himoya jarayonlarida vakillik qilish	8	7	4	1
2	Konsultatsiya				
2.1	Iqtisodiy masalalar va inson resurslari bo'yicha	11	3	4	0
3	Huquqiy				
3.1	Kompaniya yoki tijorat (biznes) huquqi	3	2	5	10
3.2	Mehnat qonunchiligi	3	1	6	10
3.3	Bankrotlik masalalari	3	3	6	8
3.4	Soliqdan boshqa huquqiy maslahatlar	2	1	6	11
3.5	Agar huquqiy maslahat faqat qo'shimcha xarakterga ega bo'lsa soliqdan boshqa masalalar bo'yicha huquqiy maslahat	4	2	5	9
3.6	Soliqdan boshqa masalalar bo'yicha sudda vakillik qilish	2	1		17
3.7	Hakamlik (arbitraj)	6	2	4	6
3.8	Shartnomaviy muzokaralar va hujjatlarni tayyorlash	8	1	4	7
4	Audit				
4.1	Yakka tartibda va hamkorlik asosida majburiy audit o'tkazish	3	1	2	13
4.2	Kichik korxonalar uchun majburiy audit	3	1	1	14
4.3	O'rta biznes vakillari uchun majburiy audit	1	1	1	17
4.4	Tashabbus asosidagi audit	2	3	2	12

⁹⁴ www.palata-nk.ru/php/content.php?id=1903

⁹⁵ Артеменко Д.А. Проблемы институционализации независимой медиации взаимодействия бизнеса и государства в процедурах налогового администрирования // Вопросы регулирования экономики. М., 2010. №4. С. 7.

⁹⁶ Rudolf Reibel. European Professional Affairs Handbook for Tax Advisers. Second edition. Confederation Fiscale Europeenne, 2013. P. 20.


5	Boshqalar				
5.1	Kompaniya uchun kotiblik xizmatlari	9		2	6

1	Ha, istalgan xizmatni ko'rsatishlari mumkin
2	Ha, ushbu xizmat ma'lum bir professionallar, sh.j. soliq maslahatchilari tomonidan ko'rsatiladi
3	Nazariy jihatdan ha, biroq amaliyotda bilim, tajribaning etishmasligi, talabning kamligi, javobgarlik masalasi tufayli xizmatlar ko'rsatilmaydi
4	Yo'q. Soliq maslahatchisi ushbu faoliyat bilan shug'ullanish uchun qo'shimcha malakaga ega bo'lishi kerak

Jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, buxgalteriya hisobi, pensiya va ijtimoiy himoya masalalari bo'yicha xizmatlar ko'rsatish, iqtisodiy masalalar bo'yicha maslahatlar berish, mijoz nomidan turli muzokaralarda ishtirok etish va buning uchun hujjatlarni tayyorlash kabilar bo'yicha soliq maslahatchilari Yevropaning ko'plab mamlakatlarida yo'lga qo'yilgan.

Yuqorida ta'kidlab o'tganimizdek, mamlakatimizda soliq maslahati tashkilotlari aksiyadorlik jamiyatidan boshqa har qanday tashkiliy-huquqiy shaklda tashkil etilishi mumkin, boshqa tashkilotlarning soliq bo'yicha maslahatlari soliq maslahati sifatida qaralmaydi.

Yevropadagi mamlakatlarda esa soliq maslahati faoliyatini tashkil etish o'ziga xos xilma-xillikga ega (9.1-rasm).



A	Soliq maslahatchilari alohida firma sifatida
A+B	

B	Soliq maslahatchilari professional firmada sherik yoki aksiyador sifatida
A+B+C	
B+C	
C	Soliq maslahatchisi soliq yoki boshqa professional firmalarda ishchi sifatida
C+D	
D	Soliq maslahatchisi firma tarkibiy qismi sifatida

9.1-rasm. Evropa mamlakatlarida soliq maslahati bo'yicha faoliyatning turli xil kategoriyalardagi firma va kompaniyalarda tashkil etilishi, foizda⁹⁷

Yuqoridagi rasm ma'lumotlari asosida Germaniya va Avstriyada soliq maslahatchilari alohida firma sifatida hamda professional firmada sherik yoki aksiyador bo'lish orqali o'z faoliyatlarini amalga oshirish keskin yuqori ulushga ega. Chexiya va Polshada esa soliq maslahatchilari asosan alohida firma tashkil etgan holda soliq maslahati ko'rsatadilar. Niderlandiya, Finlyandiya kabi mamlakatlarda soliq maslahatchilari soliq yoki boshqa professional firmalarda ishchi sifatida o'z faoliyatlarini tashkil etishlari ko'p kuzatiladi. Shuningdek Rossiya Federatsiyasida kompaniyalar tarkibiy qismi sifatida soliq maslahatchilari faoliyatiga jiddiy e'tibor qaratilgan bo'lib, bunda soliq maslahatchilari bo'yicha alohida shtat tashkil qilinganligini ta'kidlashimiz lozim.

Masalani o'rganish natijasida soliq maslahatchiligi faoliyatini huquqiy tartibga solish elementlarini qiyosiy tahlil qilib chiqdik va quyidagi jadvalni shakllantirdik (9.2-jadval).

⁹⁷ Rudolf Reibel. European Professional Affairs Handbook for Tax Advisers. Second edition. Confederation Fiscale Europeenne, 2013. P. 22.

Soliq maslahatchiligini huquqiy tartibga solish elementlari qiyosiy tahlili

№	Tartibga solish elementi	Qo'llash bo'yicha jahon tajribasi	O'zbekiston amaliyotida mavjud elementlar
1.	Qonunchilik bazasi	Soliq munosabatlarida soliq maslahatchilari faoliyati alohida qonun bilan va Soliq kodeksi bilan tartibga solinadi	"Soliq maslahati to'g'risida"-gi Qonun bilan tartibga solinadi
2.	Soliq maslahatchiligiga talabgorga qo'yiladigan talablar	Majburiy malaka talablari: bazaviy ma'lumotga egalik, ish tajribasi, malaka imtihoni	Majburiy malaka talablari: oliy ma'lumotga egaligi; maxsus o'quv kursini o'taganligi; besh yillik ish stajiga, jumladan iqtisodiy yoki yuridik mutaxassislik bo'yicha 2 yillik ish stajiga ega bo'lishi
3.	Soliq maslahatchisining bilimini nazorat qilish	Faqat majburiy imtihon belgilangan	Majburiy imtihonga qo'shimcha ravishda maxsus kursni ham o'tash lozim
4.	Soliq maslahatchisining mijoz oldidagi javobgarligi	Shaxsiy javobgarlik va soliq maslahati bo'yicha xizmat ko'rsatuvchi tashkilot javobgarligi belgilangan	Soliq maslahati bo'yicha xizmat ko'rsatuvchi tashkilot javobgarligi belgilangan
5.	Javobgarlikni sug'urtalash	Soliq maslahatchisining javobgarligini majburiy sug'urtalash	Soliq maslahatchilari tashkilotining javobgarligini majburiy sug'urtalash
6.	Tariflarning davlat tomonidan tartibga solinishi	Minimal tariflar va koeffitsientlar tizimi o'rnatilgan	Mijoz bilan shartnoma asosida belgilanadi

Xorij amaliyotida soliq maslahatchilari faoliyatining ma'lum bir jihatlarini Soliq kodeksi bilan ham tartibga solinishi, faqatgina majburiy imtihonning amal qilishi, shaxsiy javobgarlikning ham belgilab qo'yilganligi, soliq maslahatchisining o'zining ham fuqarolik javobgarligini majburiy tartibda sug'urtalash amaliyoti mavjudligi, xizmat ko'rsatish bo'yicha minimal tariflar va koeffitsientlar tizimi amal qilishi kabilar mavjudligini yuqoridagi jadval asosida qayd etib o'tishimiz lozim.

Nazorat savollari

1. Soliq maslahati xizmatining xalqaro darajada rivojlanishi.
2. Xalqaro iqtisodiy taraqqiyotda soliq maslahati xizmatining muhimligi.
3. Soliq maslahati xizmati ko'rsatishning Germaniya tajribasi.
4. Xorijiy amaliyotda soliq maslahatchilariga qo'yiladigan talablar.
5. Yevropa mamlakatlarida soliq maslahatchilari tomonidan ko'rsatiladigan xizmatlar.
6. Yevropa mamlakatlarida soliq maslahati bo'yicha faoliyatning turli xil kategoriyalardagi firma va kompaniyalarda tashkil etilishi.

10-BOB. AMALGA OSHIRILAYOTGAN SOLIQ ISLOHOTLARI VA SOLIQLARNING BIZNES MUHITIGA TA'SIRINI KAMAYTIRISH

Mamlakatimizda qulay ishbilarmonlik muhitini yaratish, korporativ tuzilmalarni soliqqa tortish bo'yicha qonunchilik barqarorligini ta'minlash maqsadida qator soliq islohotlari o'tkazilib kelinmoqda. Xususan, aksiyadorlik jamiyatlari faoliyatini samarali tashkil etish, xususiy mulk ustuvorligini ta'minlash borasida qabul qilingan qonunchilik hujjatlarida ham qator soliq imtiyozlari nazarda tutilgan. Ularning amaliyotga joriy etilishi natijasida korporativ boshqaruv tizimi, xususiy tadbirkorlik rivojlanishi ta'minlanmoqda (10.1-jadval).

10.1-jadval

Aksiyadorlik jamiyatlari faoliyatiga doir qabul qilingan qonunchilik hujjatlarida belgilangan soliq imtiyozlari⁹⁸

№	Qonunchilik hujjati	Berilgan soliq imtiyozi
1	O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2015 yil 24 apreldagi "Aksiyadorlik jamiyatlarida zamonaviy korporativ boshqaruv uslublarini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida" gi farmoni	Aksiyadorlik jamiyatlari boshqaruv xodimlari sifatida jalb qilingan xorijiy mutaxassislarning mehnatiga haq to'lash fondidan yagona ijtimoiy to'lov to'lashdan Xorijiy mutaxassislarning boshqaruv xodimlari sifatidagi faoliyatidan olgan daromadlari daromad solig'i, to'lov manbaidan olinadigan daromad solig'i, shuningdek, fuqarolarning O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi Byudjetdan tashqari pensiya jamg'armasiga to'lanadigan majburiy sug'urta badallaridan ozod etiladi
2	O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2015 yil 15 maydagi "Xususiy mulk, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni ishonchli himoya qilishni ta'minlash, ularni jadal rivojlantirish yo'lidagi to'siqlarni bartaraf etish chora-tadbirlari	2015 yilning 1 iyulidan yakka tartibdagi tadbirkorlarga, faoliyatidan kelib chiqqan holda, har bir yollangan ishchi uchun byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasiga eng kam oylik ish haqining 50 foizi miqdorida sug'urta badali va yakka tartibdagi ish beruvchi tadbirkor uchun belgilangan soliq stavkasining 30 foizi miqdorida soliq to'lash sharti bilan bir nafardan uch nafargacha ishchini yollash huquqi beriladi Yakka tartibdagi tadbirkorlar kasb-hunar kolleji bitiruvchilarini ishga yollagan holatda kollejni bitirgandan

⁹⁸ Amaldagi qonunchilik hujjatlari asosida tuzildi.


	to'g'risida"gi farmoni	boshlab o'n ikki oy mobaynida yollanma ishchilar uchun belgilangan soliqdan ozod etiladi
3	O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2015 yil 21 dekabrda "Aktiyadorlik jamiyatlariga xorijiy investorlarni jalb qilish borasidagi qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarori	O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2005 yil 11 apreldagi PF-3594-sonli Farmoni bilan xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalariga xorijiy investor tomonidan kiritilgan investitsiyalar hajmiga qarab yuridik shaxslarning foyda solig'i, mulk solig'i, obodonlashtirish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish solig'i, yagona soliq to'lovi, shuningdek, Respublika yo'l jamg'armasiga majburiy ajratmalar to'lash bo'yicha berilgan imtiyozlar tabaqalashtirilgan tarzda xorijiy investorning ulushi ustav kapitalining 15 foizidan 33 foizigacha miqdorni tashkil etadigan aksiyadorlik jamiyatlariga tatbiq etildi 2020 yilning 1 yanvarigacha xorijiy investorlarning aksiyadorlik jamiyatlarida ularga tegishli bo'lgan aksiyalaridan dividend tarzida olayotgan daromadidan soliq to'lashdan ozod etildi.

O'tkazilayotgan soliq islohotlari natijasida har yili Jahon banki tomonidan tuziladigan va e'lon qilib boriladigan "Biznes yuritish" reytingida mamlakatimizning egallab turgan o'rni ijobiy tomonga o'zgarimoqda.

Bizga ma'lumki, Jahon banki tomonidan oxirgi yillar davomida e'lon qilinib kelinayotgan mamlakatlar kesimida "Biznes yuritish" reytingida "Soliqlarni to'lash" bo'yicha ham mavjud holat baholanadi va tegishli reytingda aks ettiriladi. Bunda "Soliqlarni to'lash" bo'yicha mamlakatlarning reytingi quyidagi uchta ko'rsatkich asosida amalga oshiriladi:

1. Bir yil davomida amalga oshiriladigan soliq to'lovlari soni.
2. Soliqlarni hisoblash va to'lash uchun ketadigan vaqt (soatlarda).
3. Umumiy soliq stavkasi (foydaga nisbatan foizda).


2007-2016 yillar bo'yicha "Soliqlarni to'lash" mezonini bo'yicha e'lon qilingan reytingda O'zbekiston quyidagi o'rinlarni egallagan (10.1-rasm).



10.1-rasm. Jahon bankining “Biznes yuritish” reytingida “Soliqlarni to’lash” mezonini bo’yicha O‘zbekiston egallagan o‘rinlar⁹⁹

Yuqoridagi 5.1-rasm ma’lumotlari asosida ta’kidlashimiz mumkinki, “Soliqlarni to’lash” bo’yicha reytingda O‘zbekiston 2007 yilda 155 o‘rinda qayd etilgan bo’lsa, 2016 yilda 115 o‘rinni egallagan hamda soliq tizimining o‘tgan yillarga nisbatan barqarorlashganligini ko‘rishimiz mumkin. Lekin tahlil qilingan davrdagi ayrim yillarda reyting ko‘rsatkichi pasayganligini ham ta’kidlashimiz lozim. Buning asosi sifatida 2008 yilda yangi tahrirdagi Soliq kodeksi asosida yangi hisob-kitob tartiblarining amaliyotga joriy etilishi bilan izohlashimiz mumkin. Umuman O‘zbekistonning soliqlarni to’lash bo’yicha reytingi belgilanayotganda asos bo’lgan ko‘rsatkichlar quyidagi rasmda keltirilgan (10.2-rasm).

⁹⁹ Jahon bankining “Biznes yuritish” hisobotlari (Doing Business) asosida tuzildi.




10.2-rasm. Soliqlarni to'lash bo'yicha reytingni aniqlashdagi asosiy ko'rsatkichlarning O'zbekistondagi holati¹⁰⁰

Mamlakatimizda soliq majburiyatlarini bajarish uchun ketadigan vaqt sarfi 2016 yilda 192,5 soatga teng ekanligini ko'rishimiz mumkin, vaholanki 2007 yilda bu ko'rsatkich 152 soatni tashkil etgan. Umumiy holda bu ko'rsatkich 2010 yildan so'ng pasayish tendensiyasiga ega ekanligini ko'rishimiz mumkin. Soliq to'lovlarni soni esa tahlil qilinayotgan davr mobaynida 130tadan 33tagacha kamayganligini ko'rishimiz mumkin. Mazkur holatni obyekt hamda to'lov manbai bir xil bo'lgan soliqlar yoki majburiy ajratmalarning o'zaro unifikatsiya qilinganligi bilan izohlashimiz mumkin va bu ijobiy holat hisoblanadi. Foydaga nisbatan umumiy soliq stavkasining ham doimiy ravishda pasayish tendensiyasiga ega ekanligini, 2007 yilda 122,3 foizga teng bo'lgan bu ko'rsatkich 2016 yilda 41,1 foizni tashkil etganligini alohida ta'kidlashimiz mumkin. Keltirib o'tilgan ko'rsatkichlar yuzasidan aniq xulosa berish uchun bu ko'rsatkichlarning tarkibiy qismlari (tashkil

¹⁰⁰ Jahon bankining "Biznes yuritish" hisobotlari asosida tuzildi.

etuvchilari)ni tahlil qilish maqsadga muvofiq hisoblanadi. Shu boisdan bu masalaga quyida atroflicha to‘xtalib o‘tamiz.

Bunda birinchidan, 2007-2016 yillar bo‘yicha korporativ daromad (foyda)ga soliqlar, mehnatga soliqlar va iste‘molga soliqlar kesimida soliq to‘lovlari sonini alohida ko‘rib chiqamiz (10.3-rasm).




10.3-rasm. Alohida yo‘nalishlar bo‘yicha soliq to‘lovlari soni¹⁰¹

10.3-rasm ma‘lumotlari asosida ta‘kidlashimiz mumkinki, mamlakatimizda iste‘molga nisbatan soliqlar soni 2007 yilda 94tani tashkil etgan bo‘lsa, 2016 yilga kelib 13tani tashkil etmoqda. Korporativ daromad (foyda)ga soliqlar soni esa 2007 yilda 24ta bo‘lgan, 2011-2016 yillarda esa 8ta amal qilib kelmoqda va 2007 yildagiga nisbatan 3 baravar kamni tashkil etmoqda. Mehnat haqiga nisbatan soliqlar soni esa tahlil qilinayotgan davrda o‘zgarmagan.

¹⁰¹ Jahon banki guruhi va Pricewaterhousecoopers kompaniyasining “Soliqlarni to‘lash” bo‘yicha hisobotlari (“Paying taxes” pwc.com/payingtaxes) asosida tayyorlandi.

Ikkinchidan, yuqoridagi uchta yo‘nalish bo‘yicha soliq majburiyatlarini bajarish uchun bir yil davomidagi vaqt sarfi o‘rganilganda quyidagi grafik hosil bo‘ldi (10.4-rasm).




10.4-rasm. Alohida soliq guruhlari bo‘yicha soliq majburiyatlarini bajarish uchun yillar davomidagi vaqt sarfi, soatda¹⁰²

Yuqoridagi rasm ma’lumotlari daromadga yoki foydaga nisbatan soliqlar hamda mehnat haqi bo‘yicha soliqlar bo‘yicha majburiyatlarni bajarishga sarflanadigan vaqt sarfi 2007 yilga nisbatan so‘nggi yillarda yuqoriligini ko‘rsatib turibdi. Xususan, korporativ daromadga yoki foydaga soliqlar bo‘yicha majburiyatlarni bajarish uchun sarflanadigan vaqt sarfi 2011-2016 yillarda 2007-2009 yillardagiga nisbatan ikki baravardan ortiqni tashkil etadi. Iste’mol soliqlari bo‘yicha 2011-2016 yillar davomidagi har yillik vaqt sarfi esa 2007 yildagiga nisbatan 2 soat kamni tashkil etgan. Soliq majburiyatlarini bajarishga ketadigan vaqt sarfi bo‘yicha jiddiy o‘shish 2010 yilda kuzatilgan.

2007-2016 yillar bo‘yicha umumiy soliq stavkasi tahlil qilinganda quyidagi grafik hosil bo‘ldi (10.5-rasm).

¹⁰² Jahon banki guruhi va Pricewaterhousecoopers kompaniyasining “Soliqlarni to‘lash” bo‘yicha hisobotlari (“Paying taxes” pwc.com/payingtaxes) asosida tayyorlandi.



10.5-rasm. Alohida soliq guruhlari bo'yicha soliq stavkalarini, tijorat foydasiga nisbatan foizda¹⁰³


Alohida soliq guruhlari bo'yicha tijorat foydasiga nisbatan soliq stavkalarini tahlil qilinganida mehnatga soliqlarning 2007 yilga nisbatan pasayganligini ko'rishimiz mumkin. Korporativ daromad (foyda)ga soliqlar esa nisbatan o'sish tendensiyasi kuzatilgan bo'lsada, 2016 yilda 2015 yilga nisbatan 0,4 foizli punktga kamaygan holda 1,5 foizni tashkil etgan. Boshqa soliqlar esa 2007 yilda 85 foizga, 2008 yilda 66,9 foizga teng bo'lgan holda 2009 yilda 61,6 foizgacha pasaygan, lekin 2010 yildan boshlab o'sish tendensiyasi kuzatilgan holda 2014 yil 70,3 foizga qadar ko'tarilgan bo'lsada 2015 yilda bu ko'rsatkich 1,9 foizni tashkil etgan, ya'ni 68,4 foizli punktga kamaygan va nihoyat 2016 yilda boshqa soliqlarning tijorat foydasidagi ulushi 1,5 foizni tashkil etgan.

Amalda soliq qonunchiligining barqarorligi ham korporativ tuzilmalar iqtisodiy taraqqiyotini ta'minlashda o'zining ahamiyatiga ega hisoblanadi. Chunki korporativ strategiya ishlab chiqishda va joriy moliyaviy rejalashtirishda soliq omili muhim omillardan biri hisoblanadi. Shundan kelib chiqqan holda mamlakatimiz iqtisodiy

¹⁰³ Jahon banki guruhi va Pricewaterhousecoopers kompaniyasining "Soliqlarni to'lash" bo'yicha hisobotlari ("Paying taxes" pwc.com/payingtaxes) asosida tayyorlandi.

taraqqiyotini yanada jadallashtirish maqsadida soliq tizimi barqarorligi ta'minlanishi zarur. Bunday fikr bildirishimizga sabab "hozirgacha mamlakat soliq tizimining barqarorligiga erishilganicha yo'q, aksincha, so'nggi paytlarda Soliq kodeksiga va boshqa soliqqa oid qonun hujjatlariga oid juda ko'p o'zgartishlar kiritilmoqda".¹⁰⁴

O'zbekiston Respublikasi soliq tizimini tartibga soluvchi eng asosiy hujjat hisoblangan yangi tahrirdagi Soliq kodeksiga kiritilgan o'zgarishlar tahlil qilinganda o'zgartirish va qo'shimchalar har yili kiritilayotganligiga guvoh bo'lishimiz mumkin (10.6-rasm).



10.6-rasm. 2008-2016 yillar mobaynida Soliq kodeksiga kiritilgan o'zgartirishlar soni¹⁰⁵

Yangi tahrirdagi Soliq kodeksi kuchga kirgandan buyon jami 633ta, jumladan 2009 yilda 224ta, 2013 yilda 94ta, 2016 yilda 74ta o'zgartirish va qo'shimchalar kiritilganligini ko'rishimiz mumkin. Vaholanki, 2005 yil 28 yanvardagi O'zbekiston Respublikasi Oliy majlisi Senati va Qonunchilik palatasi qo'shma yig'ilishida Birinchi Prezidentimiz I.A.Karimov eski Soliq kodeksi xususida "1997 yilda ishlab chiqilgan va qabul qilingan Soliq kodeksi iqtisodiy islohotlar

¹⁰⁴ Niyazmetov I. Soliq tizimi barqarorligini ta'minlash va takomillashtirishning ob'ektiv zarurligi. // Moliya. T., 2015. №4. 92 b. (92-98).

¹⁰⁵ Amaldagi Soliq kodeksiga kiritilgan o'zgarishlar asosida muallif tomonidan tuzildi.

sohasida bugungi kunning yangi va ustuvor vazifalari talablariga javob bermaydi. Faqat so'nggi ikki yil davomida Soliq kodeksi va soliq qonunchiligiga yuzdan ortiq o'zgartish va qo'shimchalar kiritilganligi ham shundan dalolat beradi",¹⁰⁶ deya qat'iy ta'kidlagan edilar. Yuqoridagi rasm ma'lumotlaridan oxirgi ikki yil davomida soliq qonunchiligiga kiritilgan o'zgartishlarning o'zi ham yuztaga yaqinlashayotganligini ko'rishimiz mumkin.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi PF-4947-sonli "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi farmoni bilan tasdiqlangan 2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasida belgilangan qator chora-tadbirlarni amalga oshirishda soliq mexanizmidan foydalanish masalasiga alohida e'tibor qaratilganligini ta'kidlashimiz lozim (4-ilovaga qarang).

Shuningdek Harakatlar strategiyasida "soliq yukini kamaytirish va soliqlarga tortish tizimini soddalashtirish siyosatini davom ettirish, soliq ma'muriyatchiligini takomillashtirish va tegishli rag'batlantiruvchi choralarni kengaytirish"¹⁰⁷ masalasi qo'yilganligi ham soliq islohotlarining iqtisodiy taraqqiyotdagi ahamiyatini belgilab beradi. Aynan mazkur jihatdan kelib chiqqan holda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 18 iyuldagi "Soliq ma'muriyatchiligini tubdan takomillashtirish, soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarning yig'iluvchanligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmoni¹⁰⁸ qabul qilindi. Unga ko'ra 2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasidagi soliq solish tizimini izchillik bilan soddalashtirish, soliq solinadigan bazani kengaytirish orqali soliq yukini pasaytirish kabi vazifalar ijrosi yuzasidan, shuningdek soliq ma'muriyatchiligining zamonaviy uslublarini joriy etish, soliqlar va

¹⁰⁶ Karimov I. Bizning bosh maqsadimiz – jamiyatni demokratlashirish va yangilash, mamlakatni modernizatsiya va isloh etishdir. T.: O'zbekiston, 2005. 88-89 b. (96 b.)

¹⁰⁷ 2017 - 2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha harakatlar strategiyasi, 3. 1-yo'nalishidan.

¹⁰⁸ <http://prezident.uz/uz/lists/view/797>

boshqa majburiy to'lovlarning yig'iluvchanligini oshirish maqsadida davlat soliq xizmati organlari tizimini isloh qilishning muhim yo'nalishlari sifatida quyidagilar belgilandi:

– soliq ma'muriyatchiligi jarayoniga zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va ilg'or avtomatlashtirilgan tahlil uslublarini keng joriy etish, soliq to'lovchilarga, eng avvalo, tadbirkorlik subyektlariga to'g'ridan-to'g'ri muloqotsiz elektron xizmat ko'rsatishga to'liq o'tish;

– soliq majburiyatlarini bajarishda soliq to'lovchilarga har tomonlama ko'maklashish, soliqqa oid huquqbuzarliklar profilaktikasining ta'sirchan mexanizmlarini ishlab chiqish va soliq to'lovchilarning huquqiy madaniyatini oshirish, soliq nazoratini amalga oshirishning zamonaviy uslublarini joriy etish;

– faoliyat ko'rsatmayotgan korxonalarining faoliyatini tiklashga har tomonlama ko'maklashish, past rentabelli va zarar ko'rib ishlayotgan korxonalarining moliyaviy ahvolini sog'lomlashtirish, o'zaro hisob-kitoblar mexanizmlarini mustahkamlash, soliq qarzi oshishiga yo'l qo'ymaslik orqali soliq solinadigan bazani kengaytirish masalalari ham belgilandi.

2018 yil 1 yanvardan:

– soliq organlari va halol soliq to'lovchilar o'rtasida ularga joriy soliq solish masalalarini hal qilishda har tomonlama ko'maklashgan holda kengaytirilgan axborot almashinuvini nazarda tutuvchi soliq nazoratining zamonaviy shakli – soliq monitoringi joriy etiladi;

– yirik soliq to'lovchilar bo'yicha soliq ma'muriyatchiligi funksiyalari Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar davlat soliq boshqarmalari tomonidan amalga oshiriladi;

– vaqtinchalik moliyaviy qiyinchiliklarga to'qnash kelgan halol soliq to'lovchilar – xo'jalik yurituvchi subyektlarga qonun hujjatlarida belgilangan tartibda soliq ta'tillari berilishi mumkin;

– o'tkazilgan kameral nazorat natijalari bo'yicha aniqlangan tafovutlar yuzasidan soliq to'lovchilar tomonidan asoslar taqdim

etilmagan taqdirda, soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar summalarini sud tartibida undirish joriy etiladi;

– ortiqcha to'langan soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarni qaytarish yoki hisobga olish soliq to'lovchi vakolatli organlarga murojaat etgan sanadan boshlab 15 ish kuni ichida amalga oshiriladi;

– soliq tekshiruvi obyektlarini samarali tanlab olish uchun soliqqa oid huquqbuzarliklarni sodir etish xavflarini tahlil qilish, shuningdek soliq organlari tomonidan yuqori likvidli mahsulotlar haqiqiy ishlab chiqarish hajmining doimiy hisobi va nazoratini amalga oshirish bo'yicha ixtisoslashtirilgan avtomatlashtirilgan tizim joriy etiladi;

– davlat soliq xizmati organlari xo'jalik yurituvchi subyektlar xodimlarining hisobotdagi va haqiqiy soni muvofiqligi ustidan tizimli monitoringni amalga oshiradi, natijasi bo'yicha soliq solinadigan bazani aniqlashtiradi.

Keltirilayotgan jihatlarni hisobga olish, umuman amalga oshirilayotgan soliq islohotlaridan soliq to'lovchilarning xabardorlik darajasini oshirish soliqlarning yig'iluvchilanlik darajasini oshirishga xizmat qiladi. Bundan tashqari turli xil soliq huquqbuzarliklari, soliq risklari yuzaga kelishining oldini oladi.

Nazorat savollari

1. Amalga oshirilayotgan soliq islohotlari va ularning iqtisodiy taraqqiyotdagi o'rni.
2. Jahon bankining "Biznes yuritish" reytingida "Soliqlarni to'lash" mezoni bo'yicha O'zbekistonning o'rni.
3. 2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasida ko'zda tutilgan soliq islohotlari.
4. Soliq kodeksiga kiritilayotgan o'zgarishlar va ularning soliq xatoliklarini keltirib chiqarishdagi oqibatlari.
5. Xalqaro soliq raqobati.

11-BOB. SOLIQ MAJBURIYATLARI IJROSINI TA'MINLASHDA SOLIQ MASLAHATINING AHAMIYATINI OSHIRISH

Soliq qonunchiligining tez-tez o'zgarib turishi soliq to'lovchilar oldida ma'lum bir murakkabliklarni yuzaga keltiradi va bu murakkabliklar o'z navbatida jiddiy muammolarga olib kelishi mumkin. Boshqa tomondan har qanday soliq to'lovchi ham soliq qonunchiligini to'liq tushunmasligi oqibatida soliq organlari bilan nizoli vaziyatlarning vujudga kelishi ko'p uchraydigan holatlardan biridir.

Soliq maslahati xizmatining davlat byudjeti daromadlarini shakllantirish nuqtai nazaridan davlat manfaatlari hamda faoliyat samaradorligini oshirish nuqtai nazaridan soliq to'lovchilar manfaatlari uyg'unligiga erishishni ta'minlashdagi ahamiyatidan kelib chiqqan holda quyida mazkur sohani rivojlantirish masalalari xususida to'xtalib o'tamiz.

Soliq maslahatining ham soliq to'lovchilar uchun, ham byudjet daromadlarini shakllantirish nuqtai nazaridan soliq organlari uchun ahamiyatli jihatlarini ko'rib o'tgan edik. Soliq maslahatining soliq munosabatlarini tashkil etishdagi ahamiyatli jihatlar va ulardan samarali foydalanishni tashkil etish maqsadida amalga oshirilishi lozim bo'lgan chora-tadbirlar borasida quyidagilarga e'tibor qaratish lozim, deb o'ylaymiz.

Birinchidan, soliq maslahati tashkiloti faoliyati davlat uchun ham muhim ahamiyat kasb etadi. Soliq maslahatchilarining faoliyatidan moliya, soliq va bojxona organlari birday manfaatdor bo'lishlari mumkin, chunki soliq maslahatchilari o'z mijozlariga belgilangan soliqlar va majburiy to'lovlarni to'g'ri va o'z vaqtida to'lashda ko'mak beradilar. Bunda yuqoridagi davlat tuzilmalari va soliq maslahatchilarining maqsadlari o'zaro to'liq mos tushadi. Binobarin, agar soliq maslahatchilarining faoliyati soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarning o'z vaqtida hamda to'g'ri to'lanishi masalasini hal etishga

samarali yordam bersa, ular zimmasiga davlat organlari ba'zi vakolatlarining o'tishini ham kutish mumkin.¹⁰⁹

Mamlakatimiz iqtisodiyotini yanada rivojlantirish hamda tadbirkorlik muhitini yanada yaxshilash maqsadida tadbirkorlik subyektlari moliyaviy-xo'jalik faoliyatini nazorat qiluvchi organlar tomonidan tekshirishlar soni yildan-yilga qisqarib bormoqda. Bunday sharoitda soliq to'lovchilarning soliqlar va majburiy ajratmalarni o'z vaqtida va to'liq to'layotganliklarini o'rganish maqsadida J.Masharibov tomonidan ... EKIHning 1000 baravaridan ortiq summada soliq to'laydigan soliq to'lovchi yuridik shaxslar soliqlar to'g'ri hisoblab chiqarilishi va to'lanishi borasida soliq maslahatchilari bilan majburiy tarzda shartnoma tuzishlari kerakligini joriy qilishni maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz,¹¹⁰ deya ta'kidlanadi. Biz esa avvalo soliqqa oid nizoli vaziyatlarni sud tartibida ko'rib chiqish jarayonida soliq maslahatchilarining ishtirokini majburiy tartibda kiritishni lozim, deb hisoblaymiz.

Ikkinchidan, soliq maslahati xizmatlari bo'yicha tariflar o'rganishlar natijasida ularning nisbatan yuqoriligini ko'rish mumkin. Jumladan, GLOBAL-TAX-CONSULT MCHJ shaklidagi soliq maslahati tashkilotida yirik korxonalar uchun bir martalik og'zaki maslahatlar uchun murakkablik darajasiga qarab eng kam ish haqining 2 baravaridan 10 baravarigacha, kichik biznes subyektlari uchun esa bir – ikki baravari miqdorida xizmat haqlari amal qilmoqda. Soliq maslahati bo'yicha kompleks xizmat ko'rsatish (yil bo'yicha soliqlar va majburiy ajratmalarning to'g'ri hisoblanganligi bo'yicha soliq auditi o'tkazish, cheklanmagan tartibda yozma va og'zaki maslahatlar berishni o'z ichiga oladi) yirik korxonalar uchun eng kam ish haqining 20 baravaridan 50 baravarigacha amal qilayotgan bo'lsa, kichik biznes subyektlari uchun 50 baravardan 100 baravargacha miqdorni tashkil etadi va hokazo (5-6 ilovalarga qarang). Umuman soliq maslahati tashkilotlarining soliq to'lovchilar keng doirasiga kirib borguniga qadar soliq maslahati xizmatlari bo'yicha tariflarni tartibga solish nuqtai nazaridan davlat

¹⁰⁹ Masharibov J. Soliq maslahati: rivojlanish istiqbollari // Soliqlar va bojxona xabarlari. T., 2009. №1. B. 3-4.

¹¹⁰ Masharibov J. Soliq maslahati: rivojlanish istiqbollari // Soliqlar va bojxona xabarlari. T., 2009. №1. B. 3-4.

tomonidan xizmat turlari bo'yicha yuqori va quyi chegarani belgilash maqsadga muvofiq, deb o'ylaymiz. Bunda yuqorida ko'rganimiz kabi yirik iqtisodiy subyektlar va kichik biznes subyektlari uchun tariflar alohida bo'lgani holda yangi tashkil etilgan tadbirkorlik subyektlari uchun ham alohida tariflar ishlab chiqilishi lozim.

Uchinchidan, soliqlarni rejalashtirish bo'yicha alohida soliq maslahati milliy standartini ishlab chiqish va amaliyotga joriy etish lozim. Chunki soliq maslahati bo'yicha faoliyatda soliqlarni rejalashtirish soliq majburiyatlarining belgilangan tartibda bajarilishini ta'minlashga xizmat qilishdan keyingi o'rindagi eng asosiy yo'nalishlardan biri hisoblanadi. Soliqlarni rejalashtirish tartibi bo'yicha soliq maslahati milliy standartida belgilanadigan asosiy jihatlar sifatida quyidagilarni keltirish maqsadga muvofiq:

- tashkiliy-huquqiy shakllarni belgilashda soliqlarni hisobga olish bo'yicha maslahatlar berish;

- soliq majburiyatlarini bajarish yuzasidan hisobot taqdim etish va to'lov muddatlari, shuningdek to'lovlarni o'z vaqtida amalga oshirish choralari aks etgan soliq kalendarlarini tuzish;

- amaldagi soliq imtiyozlaridan to'liq foydalanish bo'yicha maslahatlar berish;

- davlat tomonidan iqtisodiyotni rivojlantirish maqsadida soliq imtiyozlari taqdim etilgan sohalarida faoliyatni tashkil etish (masalan, mahalliyashtirish dasturi) bo'yicha maslahatlar berish.

To'rtinchidan, soliq maslahati malaka sertifikatini olish uchun belgilangan shartlar tarkibidan majburiy o'quv kurslarini o'tashni olib tashlash, malaka oshirish kurslarini o'tash muddatini esa bir yildan 3 yilga uzaytirish lozim. Chunki, soliqqa tortish amaliyoti, moliyaviy-xo'jalik faoliyati, soliq maslahati amaliyoti bo'yicha yetarlicha bilimga, malakaga, ko'nikmaga hamda tajribaga ega boshqa talablarga javob beradigan mutaxassislar soliq maslahatchisi sertifikatini olish uchun o'quv kursini o'tashlariga vaqt omili salbiy ta'sir ko'rsatadi. Boshqa tomondan soliq maslahatchilarining malaka oshirish muddatlarini uzaytirish lozim. Mamlakatimizda professional soliq maslahati

xizmatini joriy etish o'tish uchun soliq maslahatchilari kompetentligiga mos ravishda toifalar belgilanishi lozim. Bunda soliq maslahati ko'rsatish faoliyat doirasi kengayib borish tartibida jismoniy shaxslar; kichik biznes subyektlari; yirik real sektor korxonalari; moliya bozori institutlari; sud ishlari bo'yicha toifalangan holda belgilanishi lozim.

Beshinchidan, bugungi kunda "huquqbuzarliklarning oldini olish va qonunga itoatkor tadbirkorlik subyektlarining barqaror faoliyati kafolatlarining asosiy mexanizmlaridan biri sifatida auditorlik tashkilotlari va soliq maslahatchilari ko'rsatayotgan xizmatlar sifati va taqdim etayotgan xulosalarining haqqoniyligi uchun javobgarlikni kuchaytirish yuzasidan ular faoliyatining huquqiy asoslarini takomillashtirish"¹¹¹ga alohida e'tibor qaratilmoqda. Soliq maslahati tashkilotiga soliq hisobotlarini tuzish bilan birga soliq organlariga topshirish ham yuklatilishi kutilayotganligidan kelib chiqqan holda Soliq kodeksining 45-moddasi 1-bandi quyidagicha bayon etilishi lozim: "Soliq hisoboti soliq to'lovchi yoki ishonchnoma asosida soliq maslahatchilari tashkilotining soliq maslahatchisi tomonidan ushbu Kodeksda belgilangan muddatlarda taqdim etiladi. Soliq maslahatchilari tashkilotining soliq maslahatchisi tomonidan taqdim etilgan soliq hisoboti soliq to'lovchi tomonidan taqdim etilgan hisoblanadi".

Oltinchidan, O'zbekiston Respublikasining Ma'muriy javobgarlik kodeksida foyda (daromad) yoki soliq solinadigan boshqa obyektlarning hisobini olib bormaslik yoxud bunday hisobni belgilangan tartibni buzgan holda olib borish, basharti bu harakatlar to'lanishi lozim bo'lgan soliqning yoki boshqa majburiy to'lovlarning summasini kamaytirishga olib kelsa, shuningdek byudjetga va davlat maqsadli jamg'armalariga soliqlarni, boshqa majburiy to'lovlarni hisoblab chiqarish va to'lash uchun zarur bo'lgan soliq hisobotlarini, hisob-kitoblarini hamda boshqa hujjatlarni, debitorlar bilan o'zaro hisob-kitoblarning solishtirma dalolatnomalarini yoxud to'lov muddati o'tgan debitorlik qarzi mavjud emasligi to'g'risidagi yozma bildirishnomani

¹¹¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016 yil 5 oktyabrda "Tadbirkorlik faoliyatining jadal rivojlanishini ta'minlashga, xususiy mulkni har tomonlama himoya qilishga va ishbilarmonlik muhitini sifat jihatidan yaxshilashga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" farmoni.

taqdim etmaslik, yoki o'z vaqtida taqdim etmaslik yoki belgilanmagan shaklda taqdim etish. Shuningdek kameral nazorat natijalari bo'yicha aniqlangan tafovutlarning asoslarini yoxud aniqlashtirilgan soliq hisobotini belgilangan muddatda taqdim etmaslik, eng kam ish haqining bir baravaridan uch baravarigacha miqdorda jarima solishga sabab bo'lishi belgilab qo'yilgan. Xuddi shunday huquqbuzarlik ma'muriy jazo chorasi qo'llanilganidan keyin bir yil davomida takror sodir etilgan bo'lsa, eng kam ish haqining uch baravaridan o'n baravarigacha miqdorda jarima solishga sabab bo'lishi ham qayd etilgan. Bunda agarda soliq hisobotlarini tuzish va taqdim etish soliq maslahati tashkilotiga yuklatilishi mumkinligidan kelib chiqqan holda O'zbekiston Respublikasining Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksining **175-moddasiga** 4-banddan so'ng quyidagicha mazmundagi band kiritilishi lozim: "Byudjetga va davlat maqsadli jamg'armalariga soliqlarni, boshqa majburiy to'lovlarni hisoblab chiqarish va to'lash uchun zarur bo'lgan soliq hisobotlarini, hisob-kitoblarini hamda boshqa hujjatlarni tuzish va taqdim etish soliq maslahati tashkilotiga yuklatilgan, lekin soliq maslahat tashkiloti mijoz (ishonch bildiruvchi)ning topshirig'ini bajarmagan yoki lozim darajada bajarmagan holatda ma'muriy javobgarlik soliq maslahati tashkilotiga qaratiladi."

O'zbekiston Respublikasining Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksining **175¹-moddasiga ko'ra**, buxgalteriya hisobi va hisobotini yuritish tartibini buzish mansabdor shaxslarga eng kam ish haqining besh baravaridan o'n baravarigacha miqdorda jarima solishga sabab bo'lishi, xuddi shunday huquqbuzarlik ma'muriy jazo chorasi qo'llanilganidan keyin bir yil davomida takror sodir etilgan bo'lsa, mansabdor shaxslarga eng kam ish haqining o'n baravaridan yigirma baravarigacha miqdorda jarima solinishi belgilab qo'yilgan. Bunda ham agarda buxgalteriya hisobi va hisobotini yuritish soliq maslahati tashkilotiga yuklatilishi mumkinligidan kelib chiqqan holda O'zbekiston Respublikasining Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksining **175¹-moddasiga** qo'shimcha sifatida 5-band quyidagicha kiritilishi lozim: "Buxgalteriya hisobi va hisobotini yuritish soliq maslahati tashkilotiga

yuklatilgan holatda buxgalteriya hisobi va hisobotini yuritish tartibining buzilishi bo'yicha ma'muriy javobgarlik soliq maslahati tashkilotiga qaratiladi".


Yettinchidan, soliq maslahati tashkilotlarining soliq to'lovchilar keng doirasiga kirib borishini ta'minlash maqsadida maxsus tartibda reklama masalalariga alohida e'tibor qaratish lozim. Davlat tomonidan soliq maslahati sohasini rivojlantirishga alohida e'tibor qaratilayotgan bir vaqtda soliq maslahatchilari tashkilotlarining o'zlari ham faoliyatlarini kengaytirishga intilishlari lozim. Chunki "Soliqqa tortish masalalari bo'yicha maslahat olish uchun kimga murojaat qilasiz?" mazmunidagi savol bo'yicha o'tkazilgan so'rovnomada aksariyat soliq to'lovchilar soliq organlariga, auditorlik tashkilotlari yoki rasmiy manbalarga murojaat qilishi aniqlandi. Ayrim holatlarda soliq maslahati bo'yicha faoliyat ayrim soliq to'lovchilarda faqatgina soliq organlari tomonidan taqdim etilishi mumkinligi haqida tushuncha shakllanib qolganligini ham alohida ta'kidlashimiz lozim.

Sakkizinchidan, amaldagi qonunchilikka ko'ra buxgalteriya hisobi subyekting rahbari "buxgalteriya hisobini yuritishni ixtisoslashtirilgan tashkilotga (auditorlik tashkilotlari, soliq maslahatchilari tashkilotlari va ustavida buxgalteriya hisobini yuritish bo'yicha xizmat ko'rsatish nazarda tutilgan boshqa tashkilotlar) shartnoma asosida yuklash huquqiga ega.¹¹² Mikrofirma va kichik korxonalarda shtat asosida buxgalter jalb qilgan holda ularga oylik ish haqi, shuningdek ish haqi fondidan kelib chiqqan holda yagona ijtimoiy to'lov to'lab borgandan ko'ra mazkur huquqdan foydalangan holda soliq maslahatchilari tashkilotlarini jalb qilgan holda moliyaviy va soliq hisobotlarini tuzish va taqdim etishni yo'lga qo'yish maqsadga muvofiq.

To'qqizinchidan, soliq to'lovchilarning soliq qonunchiligiga qat'iy rioya qilishlari, byudjet daromadlarining belgilangan tartibda shakllanishini ta'minlash maqsadida hududlarda ham soliq maslahatini rivojlantirish masalasiga alohida e'tibor qaratish maqsadga muvofiq. 2016 yil 1 iyul holatiga hududlar kesimida faoliyat ko'rsatayotgan soliq

¹¹² 2016 yil 13 aprelidagi O'zbekiston Respublikasi "Buxgalteriya hisobi to'g'risida"gi qonuni. 11-modda.

maslahati tashkilotlari tahlil qilinganda quyidagi diagramma hosil bo‘ldi (11.1-rasm).



11.1-rasm. Hududlar kesimida faoliyat ko‘rsatayotgan soliq maslahati tashkilotlari tahlili¹¹³

Yuqoridagi 11.1-rasm ma’lumotlari ko‘rinib turibdiki, respublika bo‘yicha jami 60 ta soliq maslahati tashkiloti faoliyat ko‘rsatayotgan bo‘lsa, ularning 36tasi, ya’ni 60 foizi Toshkent shahrida faoliyat ko‘rsatmoqda. Keyingi o‘rinda Andijon viloyatida 7ta soliq maslahati tashkiloti faoliyat ko‘rsatmoqda. Navoiy, Namangan va Toshkent viloyatlarida 3tadan, Qashqadaryo va Jizzax viloyatlarida 2tadan, Buxoro, Samarqand, Surxondaryo va Farg‘ona viloyatlarida bittadan soliq maslahati tashkilotlari soliq to‘lovchilarga xizmat ko‘rsatib kelmoqda. Qoraqalpog‘iston Respublikasi, Xorazm va Sirdaryo viloyatlarida esa birorta ham soliq maslahati tashkiloti faoliyat ko‘rsatmayapti. Vaholanki, 2010 yilda “uzoq hududlarda soliq maslahati bo‘yicha o‘qitishni tashkil etish bo‘yicha Soliq maslahatchilari palatasining hududiy markazlarini tashkil etish”¹¹⁴ masalasi qo‘yilgan

¹¹³ O‘zbekiston Respublikasi moliya vazirligi rasmiy veb-sayti www.mf.uz asosida tuzildi.

¹¹⁴ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2010 yil 26 noyabr-dagi 1438-sonli “2011-2015 yillarda respublika moliya-bank tizimini yanada isloh qilish va barqarorligini oshirish hamda yuqori xalqaro reyting ko‘rsatkichlariga erishishning ustuvor yo‘nalishlari to‘g‘risida” qaroriga 2-ilova.

edi. Uzoq hududlarda soliq maslahati bo'yicha o'qitishni tashkil etish bo'yicha Soliq maslahatchilari palatasining hududiy markazlari faoliyatini yo'lga qo'yish hududlarda ham sohani rivojlantirishga imkon beradi, deb hisoblaymiz.

Nazorat savollari

1. Soliq majburiyatlari ijrosini ta'minlashda soliq maslahatining ahamiyatini oshirish maqsadida e'tibor qaratiladigan jihatlar.
2. Soliq maslahatini rivojlantirishga to'sqinlik qilayotgan omillar.
3. Soliq maslahatini rivojlantirishning moliya, soliq, bojxona organlari faoliyatini ahamiyati.
4. Hududlarda soliq maslahatini rivojlantirish masalalari.

12-BOB. KORPORATIV MOLİYANI BOSHQARISHDA SOLIQ MUNOSABATLARINI SAMARALI TASHKIL ETISH

Ma'lumki, har bir korporativ moliyaviy munosabat bevosita yoki bilvosita soliqlar bilan bog'liq. Shundan kelib chiqqan holda korporativ moliyani boshqarishda soliq munosabatlarini samarali tashkil etish masalalari xususida to'xtalib o'tamiz. Avvalo korporativ moliyani boshqarishda kapital jalb qilish, ya'ni moliyaviy ta'minot masalalarini hal qilishda soliqlarni hisobga olish maqsadga muvofiq. Bunda qarz kapitali jalb qilish hisobiga moliyaviy ta'minot bir tomondan foizli xarajatlarning foyda solig'i bazasini kamaytirishi natijasida solikli xarajatlarni pasaytiradi. Mazkur jihat qarz kapitali bahosi bo'yicha soliq samarasi sifatida ko'rsatiladi. Boshqa tomondan foizlar bo'yicha qo'shimcha moliyaviy majburiyatlarni yuzaga keltirishi bilan bir vaqtda ma'lum grafik asosida qarzni qaytarish majburiyatini ham yuklaydi. Qo'shimcha aksiyalarni joylashtirish yoki qo'shimcha ta'sischi'larni jalb qilish orqali moliyaviy ta'minotda majburiyatlar doirasi nisbatan torroq va soliq bo'yicha ijobiy samara kapital bahosini aniqlashda hisobga olinmaydi.

Lekin investor iqtisodiy shart-sharoitdan kelib chiqqan holda boshqa sohalarga investitsiya kiritish natijasida oladigan daromadi yoki korporativ tuzilmalarga investitsiya kiritish natijasida daromad olish ehtimoli hamda daromad bo'yicha soliq to'lash tartibini o'zaro solishtiradi, shuningdek korporativ tuzilmalarga qarz kapitalini kiritish natijasida olinadigan daromad bo'yicha soliq darajasini albatta o'rganadi. Dividend ko'rinishidagi hamda kiritilgan qarz kapitali bo'yicha olingan foiz ko'rishidagi daromadlarga nisbatan esa to'lov manbaida 10 foizlik soliq stavkasi amal qiladi.

Shu o'rinda hozirgi iqtisodiy sharoitda mamlakatimizdagi korporativ tuzilmalarda kapital jalb qilish jarayonida soliq omilidan tashqari boshqa omillarni hisobga olish lozimligini alohida ta'kidlashimiz lozim. Qo'shimcha qimmatli qog'ozlar emissiyasi

muvaffaqiyatli amalga oshirilish ehtimoli past bo'lgan holatda korporativ tuzilmalar to'g'ridan-to'g'ri bank kreditlariga murojaat qilishga majbur bo'lishmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2015 yil 24 apreldagi "Aksiyadorlik jamiyatlarida zamonaviy korporativ boshqaruv uslublarini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmoni asosida aksiyadorlik jamiyatlari boshqaruv xodimlari sifatida jalb qilingan xorijiy mutaxassislarning mehnatiga haq to'lash fondidan yagona ijtimoiy to'lov to'lashdan; xorijiy mutaxassislarning boshqaruv xodimlari sifatidagi faoliyatidan olgan daromadlari daromad solig'i, to'lov manбайдan olinadigan daromad solig'i, shuningdek, fuqarolarning O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi Byudjetdan tashqari pensiya jamg'armasiga to'lanadigan majburiy sug'urta badallaridan ozod etildi.


O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2015 yil 21 dekabrda "Aksiyadorlik jamiyatlariga xorijiy investorlarni jalb qilish borasidagi qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi Qaroriga asosan 2020 yilning 1 yanvarigacha xorijiy investorlarning aksiyadorlik jamiyatlarida ularga tegishli bo'lgan aksiyalaridan dividend tarzida olayotgan daromadidan soliq to'lashdan ozod qilindi. Shuningdek, "O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2005 yil 11 apreldagi PF-3594-sonli farmoni bilan xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalariga xorijiy investor tomonidan kiritilgan investitsiyalar hajmiga qarab yuridik shaxslarning foyda solig'i, mulk solig'i, obodonlashtirish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish solig'i, yagona soliq to'lovi, shuningdek Respublika yo'l jamg'armasiga majburiy ajratmalar to'lash bo'yicha berilgan imtiyozlar tabaqalashtirilgan tarzda xorijiy investorning ulushi ustav kapitalining 15 foizidan 33 foizigacha miqdorni tashkil etadigan aksiyadorlik jamiyatlariga tatbiq etilishi belgilab qo'yildi. Keltirib o'tilgan imtiyozlar sabab mamlakatimizda faoliyat ko'rsatayotgan tashkiliy-huquqiy shakli aksiyadorlik jamiyati bo'lmagan xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalarining o'z tashkiliy-huquqiy shakllarini o'zgartirishlariga sabab bo'lishi mumkin. Chunki xorijiy investitsiya ishtirokidagi korxonalar

ustav kapitalida xorijiy investor bevosita ishtirok etmoqda va xorijiy menejerlar ham faoliyat yuritmoqda, natijada esa yuqorida keltirilgan imtiyozlardan bevosita foydalanish imkoniyati mavjud. Shuningdek dividendlarni soliqqa tortish bo'yicha imtiyozning berilishi ular uchun rag'batlantiruvchi vosita bo'lib xizmat qiladi. Keltirilayotgan holatlar tufayli boshqa tashkiliy-huquqiy shakldagi korporativ tuzilmalarning aksiyadorlik jamiyatlari sifatida qayta ro'yxatdan o'tishi natijasida aksiyadorlik jamiyatlari sonida o'zgarish bo'lishi mumkin.

Ikkinchi masala sifatida bevosita korporativ tuzilmalar asosiy faoliyatida soliqlar bo'yicha imtiyoz berilgan jihatlarga e'tibor qaratish lozim, deb hisoblaymiz. Masalan korporativ tuzilmaning yangi mahsulotlar ishlab chiqarish bo'yicha loyihalaridan mahalliyashtirish dasturlariga kirish orqali soliq imtiyozlariga ega bo'lish masalasi o'rin olishi ham davlat uchun, ham korporativ tuzilma uchun alohida muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki, ma'lum bir tovar turining mahalliyashtirilishi natijasida aynan o'sha tovar turini chetdan olib kelish uchun ketadigan sarf-xarajatlarning oldi olinadi va ikkinchi tomondan soliq majburiyatlarining kamayishi hisobiga korporativ tuzilma moliyaviy barqarorligi o'sishiga erishiladi.

Shuningdek, tayyor mahsulot eksportiga e'tibor qaratish ham o'z navbatida ikki tomonlama ahamiyatga ega hisoblanadi. Bunda eksport natijasida mamlakatimizga valyuta kirib kelinishi ta'minlansa, ikkinchi tomondan qo'shilgan qiymat solig'i bo'icha nollik stavka qo'llanilishi, foyda va mol-mulk soliqlari bo'yicha imtiyozli stavkalarining qo'llanilishi natijasida moliyaviy barqarorlik o'sishiga erishiladi. Buning uchun esa tashqi savdoda eksport operatsiyalarini amalga oshirish tartibini soddalashtirishimiz talab etiladi.

Navbatdagi uchinchi masala korporativ tuzilmalar investitsion faoliyatiga soliqlarning ta'siriga e'tibor qaratishimiz lozim bo'ladi. Bunda birinchi navbatda korporativ tuzilmalarning boshqa korporativ tuzilmalar ustav kapitalidagi ishtiroki masalasiga e'tibor qaratilganda, foyda solig'i va dividendlarga soliq stavkalari o'zgarishlarini o'zaro solishtirishimiz lozim bo'ladi (12.1-rasm).



12.1-rasm. 2007-2016 yillarda yuridik shaxslar foyda solig'i va dividend ko'rinishidagi daromadlarga soliq stavkalari, foizda¹¹⁵

Keltirilgan 12.1-rasm ma'lumotlari ko'rsatib turibdiki, yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'i stavkasi pasayish tendensiyasiga ega bo'lsada, dividend ko'rinishidagi daromadlarga soliq stavkasi o'rganilgan davr mobaynida o'zgarmagan. Aksiyalar orqali investitsiya kiritish ma'lum darajada riskli bo'lgan bir vaqtda dividendlarga soliq stavkasining yuridik shaxslar foyda solig'iga nisbatan yuqoriligi korporativ tuzilmalar tomonidan qimmatli qog'ozlardan foydalangan holda investitsion faoliyatni amalga oshirishga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Boshqa tomondan, foyda solig'i stavkasi 7,5 foiz bo'lib turgan holatda dividendlarga nisbatan soliq stavkasini ham pasaytirish maqsadga muvofiq. Chunki moliyaviy-xo'jalik faoliyatini kengaytirish natijasida erishilgan natijadan 7,5 soliq to'lash, olinishi noaniq bo'lgan dividend bo'yicha to'lanadigan 10 foizlik soliqdan afzal, albatta. Aynan keltirilayotgan jihatlardan kelib chiqqan holda investitsiyalar jalb qilish, korporativ tuzilmalar, xususan aksiyadorlik jamiyatlari faoliyat samaradorligini oshirishga alohida e'tibor qaratilayotgan bir vaqtda dividend ko'rinishidagi daromadlarga soliq stavkasini pasaytirib borish maqsadga muvofiq, deb hisoblaymiz.

¹¹⁵ 2007-2016 yillar bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Prezidentining davlat byudjeti parametrlari to'g'risidagi qarorlari asosida tuzildi.

Xorijiy investorlarni aksiyadorlik jamiyatlariga keng jalb qilish maqsadida dividendlarga soliq solishdan 2020 yilga qadar ozod qilinganligini yuqorida ham ta'kidlab o'tdik. Mazkur imtiyozning samaradorligini oshirish hamda aksiyadorlik jamiyatlari faoliyatiga to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar ko'proq jalb qilish maqsadida aksiyadorlik jamiyatlari aksiyalari nominal bahosining minimal chegarasi bo'yicha qat'iy miqdorni belgilashimiz maqsadga muvofiq. Chunki ayrim aksiyadorlik jamiyatlari aksiyalari nominal bahosi tahlil qilinganda ayrimlarida bir so'mlik, shuningdek Universal sug'urta aksiyadorlik sug'urta kompaniyasi tomonidan bir tiyinlik aksiya muomalaga chiqarilganligini ko'rishimiz mumkin. Aksiyadorlik jamiyatlariga xorijiy investorlarni jalb qilish masalasi qo'yilgan vaqtda aksiya nominal bahosining bunday pastligi taklif jarayonida ma'lum bir muammolarni yuzaga keltiradi. Chunki bir so'mlik yoki bir tiyinlik aksiyani xorijiy investorlarga erkin almashtiriladigan valyutada taklif qilish o'ziga xos qiyinchilik tug'diradi. Keyin keltirilayotgan nominal bahodagi aksiya bo'yicha dividend miqdori haqida so'z yuritish yana bir o'ziga xos jihatga ega.

IPO jarayoni ko'p bosqichli bo'lib, uzoq vaqt (bir necha yillarni) va yuqori miqdordagi moliyaviy xarajatlarni talab qiladi. Kompaniyaning ichki tayyorgarligidan va barcha zaruriy jarayonlardan o'tishidan tashqari, IPOning amalga oshish vaqti iqtisodiyotning joriy holati bilan bog'liqligini ham alohida ta'kidlash lozim. Chunki bozordagi nobarqaror holat kapitalni joylashtirish bo'yicha risk darajasini keskin oshirishi va kutilayotgan kapitallashuv darajasiga erishish imkoniyatini pasaytirishi mumkin. Kompaniya o'z ichki imkoniyatlarini tahlil qilgan holda IPO operatsiyalarini amalga oshirish to'g'risida qaror qabul qilgandan keyin, tayyorgarlik jarayonini boshlaydi. Bu jarayon bir necha yillarni o'z ichiga qamrab olgan to'rtta bosqichni o'zida aks ettiradi.

Birinchi bosqichda tashkilotchilar va IPO ishtirokchilari guruhi tuziladi hamda ular tomonidan kompaniya moliyaviy strategiyasi

belgilanadi va mos ravishda biznes-reja ishlab chiqiladi. Shuningdek, kompaniya tayyorgarlik darajasi moliyaviy tomondan baholanadi. Bu jarayonda xalqaro standartlar asosida moliyaviy hisobotlar tayyorlanadi.

Ikkinchi bosqichda tashqi hamkorlar, maslahatchilar, yirik potensial investorlar tomonidan kompaniya moliyaviy holatining ishonchliligini tekshirish jarayoniga katta e'tibor qaratiladi. Bunda umumiy moliyaviy tahlil, auditorlik tekshiruvi, yuridik ekspertiza amalga oshiriladi.

Shuningdek, qimmatli qog'ozlarni joylashtirish bo'yicha PR-agentlar, investorlar bilan ishlashga jiddiy yondashilib, potensial investorlar oldiga borib taqdimotlar o'tkaziladi. Taqdimotlar o'tkazish uchun potensial investorlarni tanlashda investor faoliyati tashkil etilgan davlatda soliqqa tortish darajasini ham hisobga olish talab etiladi. Chunki dividendlarga nisbatan soliq yuki yuqori bo'lgan davlatlarda aksiyalar sotib olish orqali daromad ko'rishga intilish darajasi nihoyatda past bo'ladi.

Bundan tashqari mazkur bosqichda savdo maydonini tanlash, ya'ni qimmatli qog'ozlar bo'yicha oldi-sotdi bitimlari ro'yxatga olinadigan fond birjasi va ochiq bozorga chiqish vaqti aniqlab olinadi.

IPO o'tkazish bosqichlaridan eng asosiysi hisoblangan **uchinchi bosqichda** qimmatli qog'ozlarni davlat organlarida va birjada ro'yxatdan o'tkazish, joylashtirilishi kutilayotgan qimmatli qog'ozlar narx diapazonini belgilash, birlamchi emissiya prospektini chop etish amalga oshiriladi.

Yakuniy to'rtinchi bosqichda esa kompaniya aksiyalarining birjada muomalasi boshlanib, unda aksiyadorlar va menejerlardan tashqari anderrayterlar, moliyaviy, huquq va soliq maslahatchilari, potensial investorlar va moliya bozorining boshqa ishtirokchilari qatnashadi. Shuningdek, strategik ahamiyatga ega kompaniyalar aksiyalarini joylashtirishda davlat organlari ham ishtirok etishi mumkin. Bunda anderrayterlar birlamchi bozorda aksiyalarni kafolatli joylashtirish bilan shug'ullansa, soliq maslahatchilari aksiyalarni

joylashtirishda soliqqa oid masalalar yuzaga kelganda bevosita ishtirok etadi.

Yuqorida ta'kidlab o'tganimizdek, IPO operatsiyalarini o'tkazish ma'lum darajada xarajatlarni talab qiladi. Bunda aksiyalarni joylashtirishga ketadigan xarajatlarni shartli ravishda boshlang'ich va asosiy xarajatlarga bo'lish mumkin. IPO o'tkazishning maqsadga muvofiqligini baholashga ketgan xarajatlar boshlang'ich xarajatlar sifatida baholanadi. Asosiy xarajatlar bevosita tayyorgarlikka ketgan xarajatlardir. Umumiy holda, IPO qiymati yuridik ekspertiza, soliq tahlili va moliyaviy baholash, auditorlik hisobotlarini tayyorlash, anderrayerlar bilan shartnomalar tuzish, aksiyalar emissiyasi va ularni ro'yxatdan o'tkazish, listing bilan bog'liq va boshqa xarajatlarni o'z ichiga oladi. Eng ko'p xarajat talab qiladigan jarayon bu kompaniya moliyaviy holatining ishonchligini tekshirish jarayonidir.

Umuman yuqoridagilardan kelib chiqqan holda aksiyalarni ochiq obuna tarzida xalqaro fond birjalarida joylashtirish, ya'ni IPO operatsiyalarining tashkiliy xususiyatlariga doir quyidagi xulosalarni alohida keltirib o'tish mumkin:

Birinchidan, aksiyalarni ochiq obuna tartibida joylashtirish nisbatan yuqori miqdordagi xarajatlarni, ko'p vaqtni talab qilsada katta miqdordagi kapitalni ham jalb qilish imkonini beradi. Bu o'z navbatida yangidan-yangi istiqbolli loyihalarni amalga oshirish imkonini beradi.

Ikkinchidan, rivojlanayotgan davlatlardagi strategik ahamiyatga ega korporativ tuzilmalar tomonidan IPO operatsiyalarini tashkil etish va o'tkazish jarayonida mazkur amaliyotning kamchiliklarini e'tibordan chetda qoldirmaslik zarur. Chunki dushmanlik kayfiyatidagi investorlarning korporativ tuzilmalar faoliyatiga kirib kelishi kompaniya moliyaviy xavfsizligiga putur yetkazishi bilan bir vaqtda mamlakat iqtisodiyotiga ham jiddiy salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin.

Uchinchidan, potensial investorlarni jalb qilish maqsadida taqdimotlar o'tkazish jarayonida investor faoliyati tashkil etilgan davlatda soliqqa tortish darajasini ham hisobga olish lozim. Chunki

dividendlarga nisbatan soliq yuki yuqori bo'lgan davlatlarda aksiyalar sotib olish orqali daromad ko'rishga intilish darajasi nihoyatda past bo'ladi.

To'rtinchidan, mamlakatimizda faoliyat ko'rsatayotgan aksiyadorlik jamiyatlari aksiyalarini xalqaro fond birjalariga ochiq joylashtirish amaliyotini tashkil etishda listing talablaridan biri hisoblangan dastlabki to'lovlar va har yillik to'lovlar darajasini hisobga olish lozim. Chunki bunday to'lovlarning amalga oshirilishi aksiyadorlik jamiyatlari moliyaviy holatiga jiddiy ta'sir ko'rsatmasligi talab etiladi.

Beshinchidan, xalqaro yetakchi fond birjalarining IPO bo'yicha talablariga mamlakatimizda faoliyat ko'rsatayotgan barcha aksiyadorlik kompaniyalarining ham javob bera olmasligidan kelib chiqqan holda mintaqaviy fond birjalarini rivojlantirish yoki talablari nisbatan qulayroq bo'lgan fond birjalariga aksiyalarni joylashtirish bo'yicha strategik moliyaviy rejalar mamlakat miqyosida qabul qilinishi va amalga oshirilishi maqsadga muvofiq, deb o'ylaymiz.

Korporativ moliyani boshqarishda dividend siyosati eng asosiy masalalardan biridir. Bunda dividend to'lash to'g'risida qaror qabul qilishning doimiy ravishda kuzatilmaligi asosiy masala hisoblansada, aksiyadorlik jamiyatlarida dividend siyosatining muammoli jihati bevosita soliqlar bilan bog'liq. "Tarixan korporativ shaklning bir kamchiligi sifatida dividendlarning ikki marta soliqqa tortilishi keltiriladi. Bunda korporatsiya foydaga erishganda bu foyda bo'yicha soliq to'laydi (dastlabki soliqqa tortish) hamda bu foyda aksiyadorlarga dividend shaklida taqsimlanganda aksiyadorlar tomonidan bu dividendlar bo'yicha shaxsiy daromadga soliqlar (bu daromadga nisbatan ikkinchi soliqqa tortish) to'lanadi. Bunday daromadni ikki marta soliqqa tortish xususiy korxonalar va o'rtoqlik jamiyatlarida kuzatilmaydi. Yuqorida ta'kidlaganimizdek, bu korporatsiyalarning eng jiddiy kamchiligi hisoblanadi".¹¹⁶ Lekin milliy amaliyotda soliq

¹¹⁶ Arthur J. Keown, John D. Martin, J. William Petty. Foundations of finance : the logic and practice of financial management. 8th ed. USA: Pearson education, 2014. 14-p. (522 p.).

qonunchiligiga ko'ra barcha korporativ tuzilmalarda ulushlardan kelib chiqqan holda taqsimlanadigan foyda dividendlarga tenglashtiriladi va dividend solig'i to'lanadi. Natijada rivojlangan mamlakatlarda kuzatiladigan kamchilik barham topganligini ta'kidlashimiz lozim. Lekin boshqa tomondan oxirgi yillarda aksiyadorlik jamiyatlariga berilayotgan soliqlar bo'yicha keng imtiyozlar, xususan dividendlar bo'yicha imtiyozlardan foydalanish maqsadida xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi xususiy korxonalar va mas'uliyati cheklangan jamiyatlar o'z tashkiliy huquqiy shaklini aksiyadorlik jamiyatiga aylantirishga sabab bo'lishi mumkin.

Korporativ moliyada birlashish va qo'shib olishlar amaliyoti ham tez-tez uchrab turadigan amaliyot hisoblanadi. Mazkur amaliyotda ham soliq munosabatlari e'tibordan chetda qolmasligini ta'kidlashimiz lozim. Bizga ma'lumki "Firma foyda olsa foyda solig'i to'lashi lozim. Lekin zarar ko'rsa hukumat soliqlar bo'yicha chegirma taqdim etmaydi. Shunday ekan konglomeratlar tashkil etish bitta mahsulot ishlab chiqaruvchi firmalar uchun soliqlar bo'yicha afzallik berishi mumkin, chunki bitta bo'linmadagi yo'qotish boshqa bo'linmadagi foyda hisobiga qoplanib ketishi mumkin".¹¹⁷ Natijada to'lanadigan foyda solig'i miqdori kamayadi. O'zbekiston temir yo'llari aksiyadorlik jamiyati tarkibiga Toshkent metropolitenining kiritilishi ham ma'lum darajada qo'shib olayotgan kompaniya tomonidan to'lanayotgan soliqlarning kamayishiga olib keladi. Mamlakatimizda iqtisodiyotni tarkibiy o'zgartirish, faoliyatni diversifikatsiyalash masalalariga ustuvor ahamiyat qaratib kelinayotgan bir vaqtda korporativ birlashishlar va qo'shib olishlar amaliyoti ham iqtisodiy taraqqiyotga xizmat qiladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2008 yil 19 noyabrdagi Iqtisodiy nochor korxonalarini tijorat banklariga sotish tartibini tasdiqlash to'g'risidagi F-4010-sonli farmoyishi asosida tijorat banklari tomonidan iqtisodiy nochor korxonalarini qo'shib olish amaliyoti samarali ishlab kelayotganligini shu o'rinda qayd etib o'tishimiz lozim.

¹¹⁷ Jonathan Berk, Peter DeMarzo. Corporate finance. 3rd ed. Pearson, 2014. 937-p. (1141).

Farmoyishga ko'ra bankrot korxonalar yoki ularning mol-mulkini tijorat banklariga sotish, mulk qilib topshirish, uni xo'jalik yurituvchi subyektlarning ustav fondiga kiritish, shuningdek, bankrot korxonalar mol-mulki negizida yangi tashkil etilgan xo'jalik yurituvchi subyektlarning banklar tomonidan keyinchalik sotilishi qo'shilgan qiymat solig'i solinishidan ozod etiladi. Qo'shimcha ravishda tijorat banklari tomonidan, shu jumladan (ishlab chiqarishni tashkil etish va yo'lga qo'yish hamda mahsulotlarni sotishda muvaffaqiyatli ish tajribasiga ega) boshqa investorlar ishtirokida bankrot korxonalar mol-mulki negizida yangi tashkil etilgan xo'jalik yurituvchi subyektlar foyda solig'i, yagona soliq to'lovi, mol-mulk solig'i va yer solig'idan bo'shaydigan mablag'lar ishlab chiqarishni texnik va texnologik qayta jihozlash, modernizatsiya qilish va rivojlantirishga maqsadli yo'naltirilgan holda ular strategik investorga sotilgunga qadar, lekin davlat ro'yxatidan o'tgandan boshlab uch yildan ko'p bo'lmagan muddatga ozod etiladi. Tijorat banklari tomonidan ta'sis etiladigan boshqaruv kompaniyalari davlat ro'yxatidan o'tgandan boshlab dastlabki ikki yil davomida foyda solig'i va yagona soliq to'lovini to'lashdan ozod etiladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2010 yil 26 noyabrdagi 2011-2015 yillarda respublika moliya-bank tizimini yanada isloh qilish va barqarorligini oshirish hamda yuqori xalqaro reyting ko'rsatkichlariga erishishning ustuvor yo'nalishlari to'g'risidagi PQ-1438-sonli qaroriga muvofiq, tijorat banklari ixtiyoriga o'tgan bankrot korxonalarning mol-mulki negizida tashkil etilgan xo'jalik subyektlari strategik investorlarga sotilgan vaqtdan boshlab uch yil mobaynida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2008 yil 19 noyabrdagi Iqtisodiy nochor korxonalarini tijorat banklariga sotish tartibini tasdiqlash to'g'risidagi F-4010-sonli farmoyishi 2-bandida nazarda tutilgan soliq imtiyozlaridan foydalanish huquqiga ega. Shu munosabat bilan tijorat banki tomonidan bankrot korxonalar negizida tashkil etilgan korxonalar, ular strategik investorga sotilgunga qadar, lekin davlat

ro'yxatidan o'tgandan boshlab uch yildan ko'p bo'lmagan muddatga va strategik investorlarga sotilgan vaqtdan boshlab uch yil mobaynida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2008 yil 19 noyabrdagi Iqtisodiy nochor korxonalarini tijorat banklariga sotish tartibini tasdiqlash to'g'risidagi F-4010-sonli farmoyishi 2-bandida nazarda tutilgan soliq imtiyozlaridan foydalanish huquqi berildi.

Keltirib o'tilgan amaliyotni va soliq imtiyozlarini tijorat banklari kabi boshqa moliyaviy sektor subyektlari, iqtisodiyotning real sektori korxonalari bo'yicha ham joriy etish, ya'ni iqtisodiy nochor korxonalarini qo'shib olish (sotib olish) orqali faoliyatini kengaytirish operatsiyalarini soliqlar orqali rag'batlantirishni amaliyotga keng joriy etish o'z samarasini beradi, deb hisoblaymiz.

Bizga ma'lumki, oxirgi yillarda korporativ boshqaruv tizimini rivojlantirishga, iqtisodiyotda davlatning ishtirokini asoslangan darajaga qadar qisqartirishga va bunda strategik ahamiyatga ega tarmoqlardagina davlat ishtirokini saqsab qolishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Bu borada O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2015 yil 24 aprelda 4720-sonli "Aksiyadorlik jamiyatlarida zamonaviy korporativ boshqaruv uslublarini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida", 2015 yil 15 mayda 4725-sonli "Xususiy mulk, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni ishonchli himoya qilishni ta'minlash, ularni jadal rivojlantirish yo'lidagi to'siqlarni bartaraf etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmonlari, 2015 yil 31 martdagi PQ 2327-sonli "Aksiyadorlik jamiyatlari faoliyatining samaradorligini oshirish va korporativ boshqaruv tizimini takomillashtirish komissiyasini tashkil etish to'g'risida"gi, 2015 yil 28 apreldagi 2340-sonli "Iqtisodiyotda xususiy mulk ahamiyatini va ulushini oshirish to'g'risida"gi qarorlari asosida qator chora-tadbirlar amalga oshirilib kelinmoqda. Xususan, 2015 yil 5-6 noyabr kunlari mamlakatimizda o'tkazilgan investitsion forum ham bevosita iqtisodiyotda davlat ulushini qisqartirish va xususiy mulkning ahamiyatini oshirish, bu jarayonga xorijiy investorlarni faol jalb qilish masalalariga qaratilganligini ta'kidlashimiz lozim.

Yuqoridagi tadqiqotlarimiz asosida korporativ birlashishlar va qo‘shib olishlar amaliyotini samarali tashkil etish va rivojlantirishga qaratilgan quyidagi ilmiy xulosalarni keltirishimiz mumkin.

Birinchidan, korporativ birlashishlar va qo‘shib olishlar amaliyotini tashkil etishda, avvalo uning afzalliklari va kamchiliklariga alohida e‘tibor qaratish talab qilinadi. Chunki mamlakat ichida monopoliyaning yuzaga kelishiga sabab bo‘luvchi birlashishlar iqtisodiyotda ma‘lum bir muammolarni yuzaga keltirishi mumkin. Boshqa tomondan jahon bozorida raqobatlasha oladigan kompaniyalarning vujudga kelishiga sabab bo‘luvchi korporativ birlashishlar mamlakat iqtisodiyotiga ijobiy ta‘sir ko‘rsatishini ham hisobga olish lozim (Nobel 2014).

Ikkinchidan, korporativ birlashishlar va qo‘shib olishlarning amalga oshirilishi qanchalik darajada samarali bo‘lishiga alohida e‘tibor qaratish maqsadga muvofiq. Bunga sabab sifatida rivojlangan mamlakatlar tajribasi birlashish va qo‘shib olish operatsiyalarining har doim ham ijobiy natija keltirmasligi, oqibatda esa yirik korporativ tuzilmalar faoliyatining tugatilishiga olib kelgan holatlar ko‘p bora kuzatilganligini keltirishimiz mumkin.

Uchinchidan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2015 yil 24 aprelda 4720-sonli “Aksiyadorlik jamiyatlarida zamonaviy korporativ boshqaruv uslublarini joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmoniga asosan faoliyat ko‘rsatayotgan aksiyadorlik jamiyatlarini tanqidiy o‘rganish natijalariga ko‘ra nochor va tugatilishi yoki boshqa tashkiliy-huquqiy shaklga aylantirilishi lozim, deb topilgan aksiyadorlik jamiyatlarini boshqa mahalliy aksiyadorlik jamiyatlari tomonidan qo‘shib olish amaliyotiga jiddiy e‘tibor qaratish maqsadga muvofiq.

To‘rtinchidan, 2015 yil 28 apreldagi 2340-sonli “Iqtisodiyotda xususiy mulk ahamiyatini va ulushini oshirish to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti qaroriga muvofiq davlat mulkini xususiylashtirish jarayonlarida korporativ qo‘shib olish operatsiyalarini

ham davlat tomonidan rag'batlantirishga jiddiy e'tibor qaratish lozim, deb o'ylaymiz. Chunki yuqorida ta'kidlab o'tganimizdek yangi korxonalar tashkil etgandan ko'ra mavjud korxonalarni qo'shib olish olish hisobiga faoliyatni kengaytirish aksariyat holatlarda samarali hisoblanadi.

Nazorat savollari

1. Investitsion qarorlar qabul qilishda soliq omilini hisobga olish.
2. Kapital jalb qilishda soliqlarning ta'sirini hisobga olish.
3. Birlashish va qo'shib olishlarda soliq majburiyatlarining yuzaga kelishi yoki qo'shimcha afzalliklar.
4. Dividend amaliyotlari orqali soliq majburiyatlarini boshqarish.
5. Amaldagi qonunchilik asosida soliqlarni optimallashtirish imkoniyatlari.
6. Soliqlarni minimallashtirishning foydaga ta'sirini baholash.
7. Soliqlarni optimallashtirishning foydaga ta'sirini baholash.
8. Soliqlardan noqonuniy qochishning oqibatlari.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI
Normativ-huquqiy hujjatlar va metodologik ahamiyatga
molik nashrlar

1. O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. 1992 yil 8 dekabr.
www.lex.uz
2. O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksi. www.lex.uz
3. O‘zbekiston Respublikasining Soliq kodeksi. www.lex.uz
4. O‘zbekiston Respublikasi “Davlat soliq xizmati to‘g‘risida”gi qonuni. 1997 yil 29 avgust.
5. O‘zbekiston Respublikasi “Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to‘g‘risida”gi Qonuni (yangi tahrirda). 2014 yil 6 may.
6. O‘zbekiston Respublikasi “Buxgalteriya hisobi to‘g‘risida”gi qonuni (yangi tahrirda). 2016 yil 13 aprel.
7. O‘zbekiston Respublikasi “Auditorlik faoliyati to‘g‘risida”gi qonuni (yangi tahrirda). 2000 yil 26 may.
8. O‘zbekiston Respublikasi “Baholash faoliyati to‘g‘risida”gi qonuni. 1999 yil 19 avgust.
9. O‘zbekiston Respublikasi “Garov to‘g‘risida”gi qonuni (yangi tahrirda). 1998 yil 1 may.
10. O‘zbekiston Respublikasi “Investitsiya va pay fondlari to‘g‘risida”gi Qonuni. 2015 yil 25 avgust.
11. O‘zbekiston Respublikasi “Qimmatli qog‘ozlar bozori to‘g‘risida”gi qonuni (yangi tahrirda). 2015 yil 3 iyun.
12. O‘zbekiston Respublikasi “Soliq maslahati to‘g‘risida”gi qonuni. 2006 yil 21 sentyabr.
13. O‘zbekiston Respublikasi “Sug‘urta faoliyati to‘g‘risida”gi qonuni. 2002 yil 5 aprel.
14. O‘zbekiston Respublikasi Soliq maslahati to‘g‘risidagi O‘zbekiston Respublikasi qonuniga o‘zgartish va qo‘shimchalar kiritish haqidagi qonuni. 2012 yil 4 yanvar.

15. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Aksiyadorlik jamiyatlarida zamonaviy korporativ boshqaruv uslublarini joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 4720-sonli farmoni. 2015 yil 24 aprel.

16. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016 yil 5 oktyabrdagi “Tadbirkorlik faoliyatining jadal rivojlanishini ta‘minlashga, xususiy mulkni har tomonlama himoya qilishga va ishbilarmonlik muhitini sifat jihatidan yaxshilashga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”4848-sonli farmoni.

17. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-4947-sonli farmoni. 2017 yil 7 fevral.

